TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

NOMIQ KAMOL
TAVFIQ FIKRAT
NOZIM HIKMAT

40

Kitob quyidagi ko'rsatilgan muddatda topshirilishi shart

Oldingi foydalanishlar miqdori_____	

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

NOMIQ KAMOL
TAVFIQ FIKRAT
NOZIM HIKMAT

40

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.161-3
KBK 84(5Turk)
K 20

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Boboxon Muhammad Sharif, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Tohir Qahhor

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8570-7-0

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

NOMIQ KAMOL

DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ 29946

NOMIQ KAMOLNING HAYOTI VA IJODI

Nomiq Kamol (1840–1888) Turkiyaning buyuk millatparvar va vatanparvar shoiri, dramaturg, romanchi, jasur jurnalist, davlat arbobidir.

Adibning asl ismi Mehmet Kamol. Usmonli saltanatining Tekirtog‘ viloyatida tug‘ilgan. Otasi — yangishaharlik Mustafo Osimbek, sulton Ikkinchi Abdulhamidning munajjimboshisi. Onasi — arnovutlik Fotma Zahro xonim, Tekirtog‘ mutasarrifi (viloyat hokimiga maqomdosh) Abdulatif poshoning qizi. Qisqasi, uning ajodlari usmonlilar xonadoniga qarindosh posholar, vazirlar bo‘lgan. Mehmet Kamolning onasi vafot etgach, yoshligi, asosan, Abdulatif posho bobosining uyida o‘tgan. Xususiy ta’lim olgan, arab, fors tillarini yaxshi o‘rgangan. Bobosi Istanbulga ishga tayinlangach, shu yerda yashagan, o‘qishni davlat maktablarida davom ettirgan. 1855-yilda bobosi o‘sha chog‘da Usmonli saltanatiga qarashli Bulg‘oristonga Sofiya qaymaqomi etib tayinlangach, u ham to‘rt yil Sofiyada yashadi. Nish (Sirbiston viloyatidagi tuman) qozisining qizi Nasimaga uylandi, ikki qiz, bir o‘g‘il ko‘rdi. Ilk she’rlari Sofiyada yozildi. Shoir do‘sti Ashraf unga kotib ma’nosidagi Nomiq taxallusini beradi. Bobosi vafot etgach, 1857-yilda Istanbulga qaytdi, Bobioliy (Bosh vazir saroyi) tarjima idorasiga ishga kirdi. Istanbul adabiy muhitiga, lefko‘shalik G‘olibbek rahbarligidagi “Anjumani shuaro” jamiyatiga kirdi. Arab va fors adabiyotini g‘ayrat bilan o‘rgandi. Tarjima idorasida ishlarkan, fransuzcha darslar oldi, g‘arb adabiyotiga oshno bo‘ldi. Shinosiyning “Tasviri afkor” gazetasida faol qatnashdi. 1865-yil Shinosiy gazetani unga berib, o‘zi Fransiyaga ketdi. Bir o‘zi nashrni davom ettirdi. Ayni paytda fikrdoshlari bilan yashirin tarzda “Ittifoqi hamiyat” jamiyatini tuzdi (u keyinchalik “Yangi usmonlilar” jamiyatiga aylangan). Jamiyatning maqsadi yangi konstitutsiya yaratish, davlatni parlament tartibida boshqarish, monarxiyaga chek

qo‘yish edi. Shu yo‘nalishda shiddatli maqolalar berilgani uchun 1867-yilda gazetasi yopiladi va o‘zi Arzirumga voliy yordamchisi etib ishga tayinlanadi ya’ni surgun qilinadi). Biroq u Ziyo posho bilan Parijga qochadi, u yerda sulton Abdulaziz muxoliflari bilan birga faoliyat ko‘rsatdi. “Yosh usmonlilar” jamiyati tuzildi, Londonda “Muxbir” gazetasini chiqarishdi. So‘ngra Nomiq Kamol ham Londonga borib, fikrdoshlari bilan “Hurriyat” gazetasini nashr ettirdi. Muxolifatda pishgan adib Bosh vazir Ali posho bilan yarashib, 1870-yilda Istanbulga qaytdi. Sharti — siyosatdan uzoq turish, hukumatga qarshi yozmaslik. Bu shartni buzmaslik niyatida u “Diogen” hajviy jurnaliga turli taxalluslar bilan qatnashib turdi. 1872-yilda Ziyo posho vafot etgach, Nomiq Kamol darhol ochiq muxolifatga o‘tdi, “Ibrat” gazetasi nashrini yo‘lga qo‘ydi. Hukumat uni Istanbuldan uzoqlashtirish uchun Gelibo‘luga ishga tayinladi. U yerdan turib gazetasini chiqardi va tuzumni tanqid qilgan maqolalarini turli taxalluslar bilan chop ettirdi. Bu orada gazetasi bir necha bor yoptirildi va qayta ochildi. O‘zi ham Qibrisga surgun qilindi. 38 oy Mag‘usada surgun hayotini yashadi, kasallikka chalindi; orada bir necha yangi asarlar yaratdi. 93 kun taxtda o‘tirgan sulton Beshinchi Murod aqli zaifligi bois taxtdan tushirildi. Uning o‘rniga Ikkinchi Abdulhamid taxtga chiqqach, shoir Istanbulga qaytdi. “Hurriyat qasidasi”ni yozdi. Sulton ilk Usmonli konstitutsiyasini yaratish maqsadida hay’at tuzdi, unga Nomiq Kamol ham a’zo etib tayinlandi. Ammo bir majlisda podshohga qarshi o‘qigan she’ri sababli sudlandi va Girit oroliga surgun qilindi. 1875-yilda uni hukumat Midilli oroli mutasarrif etib tayinladi. Bu yerda besh yil hokimlik vazifasini bajardi, orol xazinasini boyitdi, 20 ta boshlang‘ich turk maktabini ochdi; turklarning turmush tarzini ancha ko‘tardi; yosh Husayn Hilmi poshoni qo‘llab-quvvatladi (posho 1909-yilda sadria’zam bosh vazir maqomiga yuksalgan). Ibratli xizmati bois 1882-yilda Usmonli nishoni (medali) bilan mukofotlandi. Mag‘usada yoza boshlagan “Jaloliddin Xorazmshoh” asarini shu yerda bitirdi. O‘qish uchun yozilgan 15 pardali bu tarixiy dramada islom birligi g‘oyasini ko‘targani uchun sulton Abdulhamid unga bolo (yuksak mulkiy mansab) rutbasini berdi. Midillida qochoq mol oldi-sotdisi bilan

shug'ullanadiganlar fitnasi bois mansabdan olindi va Rodos oroliga hokimlikka tayinlandi. Bu yerdagi inglizlar va yunonlarning unga qarshi harakati natijasida hokimlikni tark etdi, 1887-yilda Saqiz oroliga mutasarriflikka tayinlandi. Nomiq Kamolga orolning quruq havosi yoqmadi, u kasalga chalindi va 47 yoshida vafot etdi. Oroldagi bir masjid hovlisiga dafn etildi. Shoirning so'nggi istagi podshoga yetkazilgach, Ikkinchi Abdulhamid farmoniga ko'ra qabri ko'chirildi, Gelibo'ludagi O'rxon G'oziyning o'g'li Sulaymon posho turbasi yoniga qayta ko'mildi. Bir necha yil o'tgach, sulton Abdulhamid shoirning maqbarasini tiklattirdi, marhumning o'g'li Ali Akramni saroyga ishga oldi, otasi Mustafo Osimbekni saroy munajjimboshisi etib tayinladi.

Nomiq Kamol tanzimot davri adabiyotining ulkan namoyondasidir. U adabiyot va san'at jamiyat taraqqiysiga xizmat qilishi kerak, degan tushunchani ijodining bosh maqsadiga aylantirgandi. Yoshligidagi ilk she'riy mashqlari Sofiya daftari qo'lyozmasidan va 1857-yil Istanbulga qaytganidan keyin bitgan devon adabiyoti yo'lidagi g'azal, qasida, qit'a va hajviyalar va naziralardan iboratdir. U Ovruponing Parij, London, Vena kabi bir necha markaziy shaharlarida yashagach, g'arb tarzida, hayotiy asarlar yaratishga bel bog'laydi. Asarlarini oddiy xalq anglay oladigan sodda tilda yozdi, devon adabiyotidagi jimjimador uslublardan voz kechdi. She'rlarida, dramalarida, maqolalarida vatan, millat, hurriyat g'oyalarini ilgari surdi. Shuning uchun u adabiyot tarixida "Vatan shoiri", "Hurriyat shoiri" sifatlari bilan ajralib turadi.

Nomiq Kamolning ijodi she'riy, nasriy, dramatik, adabiy-tanqidiy, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi asarlardan iborat.

U turk adabiyoti tarixida ilk drama "Vatan yoxud Silistra" (1873) muallifi sifatida shuhrat qozongan. Asar Istanbul teatrida sahnaga qo'yilgach, tomoshabinlar qattiq hayajonga tushgan. "Yashasin Vatan! Yashasin Kamol!" deya hayqirishgan. Dramaturgning "Bechora bola" (1873), "Akifbek" (1874), "Gulnihol" (1875), "Qora balo", "Jaloliddin Xorazmshoh" (1885) kabi dramalari turk teatr san'atining paydo bo'lishi va shakllanishi tarixida o'ziga xos ahamiyatga egadir. U bir maqolasida "teatr jahon oynasidir" deydi, insonning, jamiyatning yaxshi va yomon tomonlarini o'ziga

ko'rsatishini ta'kidlaydi. Dramaturg o'z asarlarida vatansevarlik, inson haq-huquqlari, hurriyat, hamiyat, islom birligi, oila axloqi kabi ezgu g'oyalarni ulug'ladi.

Nomiq Kamol turk adabiyoti tarixidagi ilk roman "Intiboh" (1876) muallifidir. Yozuvchining "Jazmi" (1880) nomli romani ham bor.

Tarixiy mavzudagi "Davri istilo" (1871), "Boriqayi zafar" (1872), "Avroqi parishon" (1872), "Silistra qamali" (1874), "Kanija" (1874), "Usmonli tarixi" (1888) kitoblari ham o'tmishdagi muhim hodisalarni, davrlarni yoritgani jihati bilan alohida qimmatga molik.

Adibning adabiy-tanqidiy maqolalari, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi asarlari ham Usmonli saltanati tarixi, madaniyati, matbuoti, turmush tarzini o'rganishda diqqatga sazovordir.

Nomiq Kamol hayoti va ijodi xususida yaratilgan yuzlarcha kitoblar, dramalar, hujjatli kinoasarlar fikrimizning dalilidir.

Turkiya Respublikasining quruvchisi Otaturk ham uning fikrlaridan ta'sirlangan, ijodini yuksak baholagan. Otidagi Kamol sifatini unga havas qilib olgan, ham deyishadi.

1940-yilda shoirning 100 yillik yubileyi katta tantanalar bilan nishonlandi. Adibning asarlari, hayoti va ijodiga bag'ishlangan kitoblar qayta-qayta bosildi.

Nomiq Kamolning "Jaloliddin Xorazmshoh" dramasi mustaqillik yillarida Xurshid Davron va Nafisa Sultonqulova tomonidan ilk bor o'zbekchaga tarjima qilingach, iste'dodli rejissor Tojivoy Isroilov tarafidan sahnaga qo'yildi va O'zbekiston televideniyesida namoyish etildi. Bu jildga ana shu dramadan parchalar kiritildi. Shuningdek, shoirning ayrim she'rlari Karim Bahri tomonidan ilk bor tilimizga o'girildi. Bular kitobxonga muallif ijodi xususida ma'lum bir tasavvur beradi deb o'ylaymiz.

Tohir Qahhor,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

SHE'RLAR

VATAN QO'SHIG'I

Amalimiz, afkorimiz iqboli Vatandir,
Sarhadimizga qal'a bizning xoki badandir.
Usmonlilarmiz, ziynatimiz qonli kafandir.
Jabhada shahodat-la butun kom olarmiz biz,
Usmonlilarmiz, jon berib, nom olarmiz biz.

Qon ila qilichdir ko'ringan bayrog'imizda,
Jon qo'rquvsi o'tmas dashtimizda, tog'imizda,
Har go'shada bir sher yotar tuprog'imizda.
Jabhada shahodat-la butun kom olarmiz biz,
Usmonlilarmiz, jon berib, nom olarmiz biz.

To'p portlasin, otashlari atrofga sochilsin,
Jannat eshigi jon bergan invonga ochilsin,
Dunyoda ne topdiki, o'limdan-da qochilsin —
Jabhada shahodat-la butun kom olarmiz biz,
Usmonlilarmiz, jon berib, nom olarmiz biz.

BAYTLAR

Navbahorim ishq ila mohi muharramdir menga,
Gulshanning har lolasi bir dog'i motamdir menga.

* * *

Ocholmas ko'zlarini to qiyomat tongigacha
Sening husningni ko'rgan bir necha ro'yosida.

* * *

Tur bosh ustimda, bori hayot-u momotimning,
Bir gul ekilsa, ko'pmi shahidning mozoriga.

* * *

O'zini ahli hamiyat yo nechuk etmas talaf,
Olti oyda g'ayb bo'ldi olti yuz yillik sharaf.

* * *

Otasi o'g'liga har kun der edi: "Yo valadi...",
Otasi rasvo edi, o'g'li battar rasvoladi.

* * *

Tushimga kirar har kecha g'urbatda xayoli,
Birlashtirar shevasi furqat-la visoli...

* * *

Ikki mubtaloning budir surati,
Ziyoning Kamol birladir rif'oti.

* * *

Tasvili qulub etmoqqa ruhbon ikkilashdi,
Bir Haq yetarli, garchi shayton ikkilashdi.

* * *

Adabiyot va Hurriyatga jon bersam-da,
Boshqa bir Nomiqi shaydo yetishar xokimdan.

* * *

Tushimga shundoq kirmishdir oshufta nigohing —
Noz uyqusining o'zimidir chashmi siyohing...

* * *

Hech sababsiz ham ezar dilbarlar oshiqni,
Yor bo‘lsa g‘ayri mayl, oshiqni jallod etar.

* * *

Dard-u firoqni chekmoqqa yo‘q dilda iqtidor,
Men o‘lmoq istarman, menga qat’iy javob ber...

* * *

Siynamga yara ochgan ag‘yor emas, yor qo‘lidir.
So‘rma holim, yuragim yaralidir, yaralidir...

* * *

Kimsaning lutfiga bo‘lma tolib,
Badali javhari hurriyatdir.

* * *

Senga sendan kelar bir ishda "dod" kerak bo‘lsa,
Zafardan umiding kes, o‘zgadan imdod kerak bo‘lsa.

* * *

Yuksal ki yering bu yer emasdir;
Dunyoga kelmoq hunar emasdir.

* * *

Bizga g‘ayrat yarashar, marhamat Allohnikidir.
Hukm-u ot na faqirning, na-da shayx-u shohnikidir.

HURRIYAT QASIDASIDAN

Ko‘rib ahkomi asrni munharif sidq-u salomatdan,
Chekildik izzat-u iqbol ila bobi hukumatdan.

To‘xtamas o‘zini inson bilganlar xalqqa xizmatdan,
Muruvvatmand bo‘lgan mazlumga qo‘l chekmas ionatdan.

Haqir bo‘lsa gar millat, shoniga nuqson kelar dema,
Yerga tushmoq-la gavhar soqit bo‘lmas qadr-u qiymatdan.

Vujudingkim xamiri moyasi xoki vatandandir,
Ne g‘am vatanning yo‘lida xok bo‘lsa jabr-u mehnatdan.

Muini zolimning dunyoda arbobi xiyonatdir,
Ko‘ppakdir zavq olgan yovuz sayyodga xizmatdan.

Hamon bir fayzi boqiyni tark etar bir zavqi foniyga,
Hayotning qadrini oliy bilganlar husni shuhratdan.

Nedandir xalqda foniy hayotga buncha rag‘batlar,
Nedir insonga, bilmam, manfaaat hifzi omonatdan.

Jahonda o‘zini har farddan yiroq ko‘rar ulkim,
Uyalmas o‘z nafsidan-da, or qilar malomatdan.

Falakdan intiqom olmoq demakdir ahli idrokka
Etib shiddat-la g‘ayrat,yiroq bo‘lmoq malomatdan.

Turib ahkomi nusrat ittihodi qalbi millatga,
Chekar asari rahmat ixtilofi ra’i ummatdan.

Etar tadviri olam bir fidoning quvvayi azmi,
Jahon titrar saboti poyi arbobi matonatdan.

Kazo har fayzini, har lutfini bir vaqt uchun chekar,
Putur etma, saqin, millatgaki zaif-u betoatdan...

QIT'ALAR

I

Aylamam o'lsam-da yolg'on ixtiyor,
To'g'risin so'zlab yurgan bir shoirman.
Bir go'zal mazmun topilsa, Ashrafo,
O'zimni hajv aylamasam, kofirman!

II

Qabrimni kimsa ziyorat aylamasin Alloh uchun,
Ezmasin qayg'ularim, billohi, o'z qardoshimni.
Ko'zlarim abnoyi adamdan u tutba oldi kim,
Istamam fotiha, bas, o'g'irlamasang go'r toshimni.

III

Vaqti istibdodda so'z so'zlamoq mushkul edi;
Yig'latardi og'zing ochsang hukumat onangni!
Hurriyat davridamiz, endi o'zga qoida —
So'ylatarlar avvalo, so'ngra si..arlar onangni!

IV

Chekkanim jabr-u jafoning sababini so'rama,
Dema kim: — Bodi havo manqabi dalloli budir!
Hibs ila, so'roq ila, qiynoq ila umr o'tar,
Asli Turkiyada shoir bo'lganning holi budir!

V

Madh et, qabringga haykal qo'yamiz, shundoq so'yla
Ki: "Buning holi hayotinda joyi mujmal edi,
O'ylamang — vafot etganda bilindi qadri,
Tirigida ham bu xuddi bir haykal edi".

YO'QDUR

Gul ruhlilarning misoli yo'qdur.
Xurshidning ul rangi oli yo'qdur.

Ag'yor ila ulfat bo'lmoq istar,
Men o'lmasdan ehtimoli yo'qdur.

Jabr etmoq emas fidoyi ishqqa,
O'ldirsa yana vaboli yo'qdur.

Allohgadir istinodim faqat,
Nav'i basharning kamoli yo'qdur.

VATAN MARSIYASI

Oh, yoqdik shu muborak vatanning har yerini,
Sochdik falakka qadar dudi, otashlarini,
Yopdilar ko'zga olganlar chiqquvchi ko'zlarini,
Vatanning bag'riga dushman qadadi xanjarini,
Yo'q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

O'zimizdan nega bo'ldik bu qadar ma'yus,
Yetaylik dodiga Alloh uchun, ey ahli nomus,
So'nmoqda amal sha'mi, endi o'chdi fonus...
Vatanning bag'riga dushman qadadi xanjarini,
Yo'q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Bor edi to Ka'baga, Zam-zam kabi qonsuv oqadi
Yerdagi shahid qonini bu hasrat yoqadi,
Yana arbobi havo sayrga chiqib boqadi.
Vatanning bag'riga dushman qadadi xanjarini,
Yo'q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Ezilib xoki haqoratda vatan jon beradi,
Yetishing, so'ng nafasimdir, keling imdodga deydi.

Sevgili volidamiz oxir qo‘ldan ketadi —
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Bu vatandir tarqatgan olamga ilm-u adabni,
Bundadir Bayti Haram, Masjidi Aqsoyi Nabi,
Ne balo chekkan bo‘lsak, tom bu vatandir sababi.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Vatanni tig‘ bilan kesdi vatanning ag‘yori,
Marhamat, qoldi senga Ikki Jahon Xunxori,
Ketmoqda, sevgili Qur’onini hifz et bori.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Tushuning ro‘zi zuhuridagi shonli damini,
To‘ldirarkan shahodati bu fano olamini,
Tutajak bir bolasi qolmadimi motamini...
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Rizq berarkan bu qadar insonga ehsoni ila,
Ketdi bechora vatan yig‘labon shoni ila,
Yoz bu marsiyani toshga shahid qoni ila,
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Artmadik buncha yetimning ko‘zining yoshlarini,
Toshga, tuproqlarga surdik u go‘zal boshlarini,
Vatanning bag‘riga urdik vatanning toshlarini.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Bir zamone olami iqbolda sulton bo‘ldik,
Olam jomeasi edik, endi parishon bo‘ldik.

Oh, bir qon ichining kayfiga qurbon bo‘ldik.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Vatanning qayg‘usiga, dardiga jonmi tayanar,
Dushmanin ko‘rsa ko‘zin yarasidan qon to‘kilar,
Bu qadar zulmdan inson emas, shayton uyalar.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Ketmoqda oxiratga oh etaroq shonli vatan,
Faqat qoldi tasalli-yu bizga bir parcha kafan.
Himoyasida uning dengizday qonlar to‘karkan,
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Qurbon hayitimidi — kesdingiz qurbonlar,
Ka’bani yiqmoq uchunmi to‘kilar bor qonlar,
Musulmonning holiga rahm etar shaytonlar.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Ma’sum shahidlar qonin ko‘ring, chiqdi tizga,
Boqing Alloh uchun insof ila tariximizga,
Bu haqorat, bu azo loyiq edimi bizga —
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Yolg‘iz bir quchajak qizlar emish avlodi,
Ularning qoni edi giryai istimdodi,
Kirmadi oh qulog‘iga, yana el faryodi.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Ey Vatan, yosh eding, tug‘landing, bitding,
Bizni xoinlarga, nomardlargami muhtoj etding,

Buncha bechoralarni kimga qo‘yding-ketding,
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Bu falokat yarasharmi yuragi dog‘lilarga,
Zulm xanjari urilarmi bu qo‘li bog‘lilarga,
Kaltaklatding bizni, yo Rab, Qoratog‘lilarga,
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Ayladik kasbimizni va vatanni sarmoya,
Biz bu xizmatgami keldik bu foniy dunyoga,
Yuzimiz qolmadi, Alloh, bu qadar riyoga.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Endi jon berdi vatan, diniga, hurriyatiga,
Yo‘llang qonli musalloga Xudo hurmatiga,
Haqni qarshi qo‘ymagay er kishi niyatiga.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Kimdir tilovatin, takbirin oyin etadi,
Qabrda dinini otdoshimi talqin etadi,
Shu muborak vatanda jon qolmadi, kin etadi —
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Na muruvvat tila bizdan, na vafo umid et,
Ey vatan, yaralaring davosini o‘zing et,
Ko‘zingni, bag‘ringni och, mahkamayi mahsharga ket.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Vatan avlodiga Moskov kabi rahm etmadilar,
Xastaga boqmadilar, yaralini tutmadilar.

Titdilar etlarini, malhamin surtmadilar.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Bor ekan mashvaratda millatning iste’dodi,
Kimga berdi, boqingiz, davlati istibdodni,
Endi tahqir etajak maqbari ajdodini.
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Topilmaydi seni bizlar kabi uch dona sevgan,
Yuzingga boqmoq uchun ham qasd etolmasdi dushman.
Etingni o‘stirganing xalq yedi, oh Vatan,
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Vatanning javhari, nomusini bizmi sotaylik,
Ne ravo bundoq jaholat to‘zoni ichra yotaylik,
Xoliqqa qarshi turgan ul kimsaga toshmi otaylik,
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

To‘ymadik, ko‘zlarimiz qon bilan bo‘lsin-to‘lsin,
Otalar yig‘labon tursin, onalar sochini yulsin,
Yuzimiz yerda surinsin, boshimiz tosh bo‘lsin,
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Yaraladi vatanning siynasini dushman qo‘li,
Motam giryasi emish tole’yimiz to azaliy.
Karbaloda to‘kilgan xuni shahidoni Ali,
Vatanning bag‘riga dushman qadadi xanjarini,
Yo‘q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Vatan, evoh, haqir bo‘ldi, parishon bo‘ldi,
Dushman Istanbulga kirdi, bu nechuk sha’n bo‘ldi.

DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ 29946

Siynasidan to'kilgan sut o'rniga qon bo'ldi,
Vatanning bag'riga dushman qadadi xanjarini,
Yo'q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Bundoq ma'sum o'lganning qabri qilich-la ochilar,
Qabr ustidagi toshdan shundoq qonlar sochilar,
Shuncha qonlar sochilarkan, qay yuraklar qochilar?
Vatanning bag'riga dushman qadadi xanjarini,
Yo'q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

Ey vatan, hasratingni iydi visol ayla bizga,
Bori ro'yoda ko'rin, arzi jamol ayla bizga.
Sutingni, ne'matingni g'ayri halol ayla bizga —
Vatanning bag'riga dushman qadadi xanjarini,
Yo'q emish qutqarajak baxti qaro modarini.

G'AZAL

Hasrati jonon ila davronga qildim alvido,
Ozimi so'yi fanoman, jonga qildim alvido.

Bir g'arib ovorayi hajrman afsuskim,
Chiqmayin jon siynadan, jononga qildim alvido.

Diydorning shavqi ila jon mahv etib parvonavor,
U husn chirog'iga yona-yona qildim alvido.

Yig'ladim huzn ila, qon bo'ldi tosh dilli charx,
Dahr bazmiga so'yla, mahrumona qildim alvido.

Azmi dor-ul mulki ishq etdim yana San'on misol,
Ka'ba Sakinasi ul iymonga qildim alvido.

Fayzi tajrid ila Nomiq azmi itlok ayladim,
Olamdagi olti jihat imkonga qildim alvido.

JALOLIDDIN XORAZMSHOH

Drama

QATNASHUVCHI SHAXSLAR

Muhammad Alouddin — *Xorazmshoh, Jaloliddinning otasi*
Jaloliddin — *Muhammad Xorazmshohning o'g'li*
G'iyosiddin
Oq Sulton
Arzak Sulton — Qutbiddin — *Jaloliddinning o'g'li*
O'zbek — *Umarolardan va Jaloliddin mahramlaridan*
Malik Nusrat
O'rxon
Nuriddin Munshiy — *Jaloliddin as'hobi devonidan*
Buroq Hojib — *Qoraxitoy davlati*
Sayfiddin Iroqiy — *Muhammad Xorazmshoh umarolaridan*
Badriddin Amid
Amir Nushtegin
Imodul Mulk
Xodimxon
Izzatdin Kazviniy — *Mehri Jahonning mahrami*
Qiyomiddin Bag'dodiy — *Tabrid kadisi*
Sulaymon
Jobir — *Buroq Hojibning mahramlaridan*
Muborak — *Mehri Jahonning xodimasi*
Nayyira — *Jaloliddining birinchi xotini*
Mehri Jahon — *Jaloliddinning ikkinchi xotini*
Zahira — *G'iyosiddining onasi*

Xizmatkorlar, askarlar, xodimalar, joriyalar va g'oyibiy bir sas.

BIRINCHI PARDA

Obi Sukun orolida shohona, lekin eski bir chodir.

BIRINCHI MAJLIS

Jaloliddin — Nayyira.

NAYYIRA — Jamoli uzra qora bulut yanglig‘ cho‘kkan bu motam rangidan Quyosh qay zamon qutular ekan? Bir vaqtlar bu chehra navbahorga o‘xshardi. Atrofiga doimo nurli shafaqlar, tabassumidan unib chiqqan g‘unchalar sochar; kimki bir karra boqsa, ko‘ngli ruhiy safo, ko‘zlari quvonch yoshlari bilan to‘lardi. Quyosh tutilishini ko‘rgan esam-da, uning kabi yana bir nurli jamolning vaqti kelib zulmat rangi bilan qoplanajagini hech aqlimga sig‘dira olmasdim. Nahot bir martagina, bir daqiqagina bo‘lsa ham kulmassiz? Nayyirangizga — bir vaqtlar yoningizda jon topgan quvonchga, ko‘z ochib ko‘rganingiz Nayyirangizga tikilasiz, tikilasiz-u jigarini o‘q teshib o‘tgan, sayyodini kuzatayotgan yarador arslon kabi ko‘zlaringizdan otash, dudoqlaringizdan g‘azab sochiladi. Falakka bosh egmassiz! Ammo bir vaqtlar meni deb podshoh padaringiz oyoqlariga bosh urib, Xorazm saltanati xonadonining erkasi qilgan edingiz. Nahot ko‘ngilda endi u mayidan, u tavajjuhdan zarracha qolmagan bo‘lsa?!

JALOLIDDIN — Yo‘q, unday dema, aslo! Seni birinchi ko‘rishimda qanday sevib qolgan bo‘lsam, yuzingga boqqanim sayin, sevgim yanada ortib bormoqda.

NAYYIRA — Unday bo‘lsa, chehrangizdagi bu mahzunlik boisi ne? Dunyoda muhabbat qarshisida mag‘lub bo‘lmaydigan alam bormi? Bu jahon g‘amini jahonning o‘ziga qoldirsak-da, yana muhabbatimizni o‘ylasak bo‘lmaydimi? Evoh, qanday musibat zamonga qoldik! Hayot vujudimizdan hech qachon ayrilmay-diganday turibmiz. Falak esa balo kunlarining daqiqasini yillarga, soatini asrlarga uzaytirmoqda. Bizlar ham unga qarshi o‘laroq, vaqtimiz naqadar og‘ir kechsa-da, umrning eng buyuk lazzati bo‘lgan sodiqona muhabbatdan shu qadar ziyoda istifoda etsak, falakdan loyiqi bir intiqom olsak ne bo‘lur! Yuzlarimga bunday mahzun tikilmangiz! Istasak, falakdan intiqom ola bilurmiz! Pok

vijdonimiz, o‘zligimiz bizni har qanday baxtiyorlik bilan ta’minlashga kafildir. Oh bilmayman, negadir bu ulkan olamning qanday qayg‘ulri bo‘lsa — hammasiga qalbingizdan joy topiladi, ammo mening ko‘nglim yolg‘iz siz bilan to‘liq! Sizdan o‘zgani istamas! Yodingizdami, biz qachon ko‘rishgan edik? Bilasiz!... Qilichlar shafaq bag‘rida tug‘ilgan lol yanglig‘ qonlar ichida porlay boshlagan; tug‘lar qoningni so‘rish uchun tanangga yopishishga tayyor turgan ajdarday titrab-titrab boshini ko‘targan; o‘qlar vatan bo‘lguvchi bir qalb izlab maydonga otilgan, muhabbat kabi nogoh qarshisidan chiqib qolganlarni jon uyidan quvib chiqara boshlagan; dahshatli zilzila tufayli butun askarsuilohlari bilan to‘zib ketgan qal’a qo‘rg‘oni kabi fillar, toshlar, temirlar, o‘qlar, xarobalar, qich-qiriqlar, oh-vohlar, vovaylolar sochganicha ustimizga bostirib kela boshlagan edi. (O‘z-o‘ziga) Nahot zeriktirib qo‘ygan bo‘lsam?

JALOLIDDIN — So‘zla, so‘zla! Umrimning sening kabi eng aziz onlarini ko‘z o‘ngimda qayta namoyon qilmoqdasan!

NAYYIRA — Padarim urushga ketarkan, meni ham yonlariga olgandi. Marhuma volidam, bechora ayol, qanday faryod solganini bilsangiz edi! Oh, qanday janjallar qildi! “Qaysi qiz o‘n sakkiz yoshida urushga boribdi? Ikkala o‘g‘limni olib ketyapsiz. Mayli, men roziman, biri zirhingiz, biri siparingiz bo‘lsin! Vujudlari o‘q va qondan atrofga shox otgan va boshdanoyoq gullarga g‘arq bo‘lgan daraxtga o‘xshasin! Iftixor etib yashayin! Faqat qizimdan nima istaysiz? Uni men bilan qoldiring. Oh... O‘g‘ilni to‘qqiz oy yuragimiz tagida saqlab dunyoga keltiramiz. Yetti-sakkiz yoshga chiqar-chiqmas, ularning yuzini ko‘rmakka zor bo‘lamiz... Endi esa qizlarimizni ham tortib olmoqchisiz! Sho‘rlik ayol... farzandini — u qiz bo‘lsin, o‘g‘il bo‘lsin — qornida ko‘tarib yuradi, bag‘rida katta qiladi. Og‘risa, har kecha tongga qadar yotog‘ining etagida, o‘lsa, har kuni oqshomga qadar mozorining boshida yig‘laydi. Yana amir, ta’qiq, tasarruf yolg‘iz otalarning qo‘lida”, — deya shikoyatlar qildi. Yig‘ladi, yolvordi. Otamning oyoqlari tagiga yiqildi. Ammo ta’sir ettirolmadi. Uning faryodlari, fig‘onlari tinganidan so‘ng padarim hafif bir tabassum qildi. Siz ham bir ko‘rsangiz edi! Odatda u kishi bir so‘z demoqqa chog‘langan paytlaridagina shunday kulib qo‘yardilar. “Podshoh nasli-

dan bo‘lganlarning burchi har turlik fidokorlikda xalqqa namuna bo‘lishdir. Men avlodimni, hatto u qiz bola bo‘lsa ham, davlatimni saqlab qolish uchun fido qilishga majburman. Bugun men qizimning hayotini xavf ostiga qo‘ysam, ertaga har kas o‘g‘lini istasa-istamasa silohim oldiga tiz cho‘ktiradi”, — dedilar. Yana volidam ning yuzlarida paydo bo‘lgan yalinish ifodasini ko‘rishlari bilan: “Xotin kishining podshoh ishiga aralashishga haqqi yo‘q!” deya baqirib berdilar. Tuklari hurpaydi. Ko‘zlari otash kabi qizardi. Qizisha boshladi. Otamning ko‘zlariga tikildim-u, qarshimda o‘ljasini tilka-pora qilishga tayyor arslon turganini his qildim! Begim, xudo panohingiz bo‘lsin, zeriktirib qo‘ymadimmi?

JALOLIDDIN — So‘zla, jonim. Sen men umr bo‘yi orzu qilgan podshoh, umr bo‘yi izlagan padar haqida gapirmoqdasan. Qaynotamning mard bo‘lganini eslab, ko‘nglim biroz tasalli topayapti. Koshki, sening kabi baxtiyor bo‘lsam. Ammo, netaykim, padarim orzu-istaklari yo‘lida davlatini emas, meni davlati yo‘lida fido etmoqchi...

NAYYIRA — Oh, qanday farosatsizman! Ichingizdagi qo‘rquv-shubhalarni daf qilaman deb, yana u andishaga quvvat berguvchi narsalar haqida so‘zlab o‘tiribman.

JALOLIDDIN — So‘zla! So‘zla! So‘zlaringni eshitganim sayin lablaringdan o‘pgan kabi ko‘nglim ravshan tortmoqda!

NAYYIRA — Otamning qiyofasi shunday vajohatga kirdiki, onajonim butunlay shoshib qoldi. Go‘yo lablari, kipriklari bir-biriga yopishib qolgan, na bir so‘z demoqqa, na yuzimizga qarashga jur’at qila oldilar. Tezda o‘rnilaridan turib haram eshigi tomon yura boshladilar. Men hayratdan butunlay qotib qolgan edim. Padarim ham o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Qabulxona sari yuzlandi. O‘girilib menga shunday qaradilarki, go‘yo ularning ko‘zlari kahrabodan, vujudim esa cho‘pdan edi — ixtiyorsiz orqalaridan ergashdim.

Jang maydoniga qanday nafrat, azob ichida kelganim yolg‘iz o‘zimga ayon! Bo‘ynimga zanjir bog‘laganday bir haftalik yerga tosh yo‘llardan, tikanzorlar orasidan sudrab keltirdilar. Evoh, mening bu xavotirim go‘daklarning orasidan yo‘qlikdan vujudga kelayotganlaridagi faryodi qabilida ekan. Aslida, Olloh Taolo menga asil hayotni o‘shanda nasib etgan-u, men istiqboliga chiqayotgan

ekanman! Aslida, padarim bu bechora vujudni ikki islom davlati orasida tinchlikka, aqrabolikka xizmat qilsin deya u yerga ehtiyot uchun keltirgan ekanlar! Aslida Jalolimga o‘sha yerda noil bo‘lar ekanman! Oh buzg‘unlik... Mening kabi onasining bag‘ridan yangi ayrilgan qizlar uchun naqadar dahshatli ekanligini bilsangiz edi! Buni tasavvur ham qila olmaysiz. Otliqlaringizning qay biriga boqmay, go‘yo o‘lim tirilib ustimga bostirib kelayotganday tuyulardi. Otamni ko‘rdim. U o‘zini minglarcha qilich va tug‘lar ustiga otar, bir necha yeridan yaralangan, orqasidan xil’ati qon tomchilaridan qoplon po‘stiniga o‘xshab qolgan edi. Havo qorayib ketgan. Osmon Xudoning g‘azabidan jahannam maxluqiday qo‘rqinchli o‘kirardi. Zamin shahid o‘g‘lining qoni yuz-ko‘zlariga sachragan ona kabi achchiq-achchiq yig‘lar: har daqiqada yildirim otash rangidan yaratilgan ajdarho kabi bukila-bukila bulutlarni yirtib yo bir og‘ochga, yo bir tug‘ga tushardi. Yuz minglarcha odam zirh kiygan, zirh kiyimlari ko‘ngillarni ham temirga aylantirgan — jon olishda Azroilga tenglashardilar! Bu tarafga boqsangiz, bir yigit yaralanib, ajali bilan kurashib-kurashib o‘lmoqda! U tarafda esa bir askar boshqasining yoqasiga osilib olgan — go‘yo o‘z ruhi bo‘lgan, u qo‘lidan chiqarib yuborgan, ming hirs bilan, ming g‘azab bilan jonini olmoqqa harakat qilmoqda. Qayerga boqmang o‘qlar, yaradorlar, tug‘lar, qilichlar, qon, fil, o‘lim, otash, yildirim! Otam ko‘rinmas, og‘alarim yaralaridan oqqan qondan tirikmidi, yo‘qmidi, farqlab bo‘lmasdi. Volidam dunyoning u burchida, xizmatkorlar esa jang maydonida jon bermoqda! Joriyalar dahshatdan hushidan ketar, yerlarda sudralib ingrardi. Shamol chodirning bir uchini ko‘targan, vujud sovuq va yomg‘irdan xazon yaproqlari kabi titrar edi. Yo‘q, inson qo‘rquvdan, kadardan o‘ladi desalar yolg‘ondir! Agar shunday bo‘lganida edi, u kun sog‘ qolarmidim.

JALOLIDDIN — Oh, mard kishi shunday dahshatlar ichida o‘zini, do‘stini, ba’zan hatto dushmanini ham o‘limning panjasidan olishib-olishib qutqarishga harakat qilsa, umrining qanchalik uzayishini, ko‘ngli qanday ravshan tortishini bilasanmi?

NAYYIRA — Sizni o‘sha muhoraba, o‘sha qiyomatning orasida ko‘rganim uchun ham bilaman! Hamon ko‘z o‘ngimda. O‘rda-

ga yaqilashgan askar chodir iplariga yopishdi. O‘qlar — daraxtga hujum qilgan ari galasiday birining boshi, birining qanotiga yopishgancha bir-birini quvishib atrofimizda vizillab-vizillab ucha boshladi. Men har daqiqada Azroilimni kutar ekanman, nogah qarshimda bo‘ron kabi tuman paydo bo‘ldi. Hali tuman bir qancha yuz odim uzoqda ekan, yo‘limda sochilgan nima bo‘lsa, hammasi shamolinggizdan parishon bo‘ldi. Tuman ham ko‘tarildi. Neni ko‘rdim deng? Qora bulutlar ichida bir mohitob! Mohitob emas, gul chehrali, inson qiyofasiga kirgan bir malak! Shunday malakki, inson qiyofasida bo‘lsa-da, malakligi yuzidan balqib turardi. Ko‘zlarimni jamolidan hech uza olmadim. Hushimni yo‘qotib qo‘ygandim. Uning har bir harakati, holatini hayron bo‘lib kuzatar; shu qadar behush edimki, chodir oldida to‘kilgan qonlarning oyog‘im tagiga oqib kelganini, etaklarimning qon bilan bulg‘anganini ham sezmas edim. Nogah ko‘z o‘ngimdan yo‘qoldingiz. Ketdingiz. O‘zimni unutdim. Sizni izlay boshladim. Atrofimga ko‘z yugurtirar ekanman, qulog‘imga bir filfirib sado keldi! Evoh, yonimga kelgan va taxtiravonimni bo‘ysundirgan edingiz! Yuzingizga tikildim. Butunlay o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. Qilt etmoqqa majolim qolmadi. Bilasiz, lab ochib hatto tashakkur uchun bir kalima so‘z bo‘lsin, ayta olmadim. O‘rtamizda bor-yo‘g‘i uch-besh odim masofa bor edi. Shunday emasmi? Yuzingizga tikilgan onim jon uyimga bir o‘q otdingiz. Zolimsiz, go‘yo meni asir qilmadingiz, shundaymi? Qaysi joriyangiz mening kabi sizga qulluq qilar?!

JALOLIDDIN *(hazil qilib)* — Ko‘ngillari ozod bo‘lishni istaydimi?

NAYYIRA — Xudo saqlasin! Tushunib turibman, siz mendan qochyapsiz. Ehtimolki, umrimda birinchi marta yuzingizda tabassum ko‘ray deb hazil qilmoqsi bo‘ldim. Siz-da meni yig‘latishga harakat qilyapsiz!

IKKINCHI MAJLIS

Avvalgilar — Qutbiddin.

QUTBIDDIN — Onajonim, nechun ko‘zlaringiz yosh bilan to‘lmish? Avvallari mening ko‘zlarimda bir tomchi yosh ko‘rsan-

giz jahlingiz chiqardi! Dunyoning holi tang bo‘lsagina onalar yig‘laydi, u go‘daklari ovutishga harakat qiladigan darajada o‘zgardimi?

NAYYIRA — Ko‘zlarim yoshlanibdimi? Balki chang tushgandir? Ko‘zi namlanganlarning hammasi ham yig‘lagan bo‘lavermaydi. Qani, arslonim, tashqariga chiqib o‘yna. O‘q ot. Qilich chop. She’r o‘qi. O‘ynash uchun biror narsa topilar, shunday emasmi? Bu yerda zerikmayapsanmi, qora ko‘zim?

QUTBIDDIN — Podshohim himmatida, padarimning, volidamning yonlarida ekanman, nimadan jonim siqilsin!

(Qutbiddin chiqib ketdi).

UCHINCHI MAJLIS

Jaloliddin — Nayyira.

JALOLIDDIN — Birorta latifa aytib beraymi?

NAYYIRA — Ayriliq onlarida latifa ko‘ngilga sig‘armidi?

JALOLIDDIN (o‘z-o‘ziga) — Chehrasi xuddi murdanikidek oqardi. Ammo baribir go‘zal, ruhdan, hayotdan go‘zal! (Nayyiraga). Sendan ko‘nglim qolishini, sendan ayrilishni o‘ylashim mumkinmi? Xudo haqqi, bunday o‘ylarga, bunday vahimalarga aldanma va bir karra qalbingga quloq sol! Vijdoningga diqqat et!

NAYYIRA — Yo‘q! Xudoga shak keltiryapsiz! Yolg‘on gapirishdan qo‘rqaman. Jazosini muhabbatimdan topgayman! Sizning ahvolingizni ko‘rib xotiramga ming vasvasalar kelmoqda. Faqat ko‘nglim mendan sovib ko‘ngil uchun “seni sevaman” deyishingizga aslo qoniqmas! Tangrim, jamoling bilan menga tajalli etgansan! Sevib-sevib bir qul yaratgansan! Shunday mo‘jiza yaratdingki, yuzini majusiylar ko‘rsa, quyoshga emas, unga talpina boshlaydilar. U qulingga meni ham nasib etding! Insonday ojiz maxluqot orasida “Jalol”day buyuk bir vujud yaratgan qudratingga, o‘sha mumtoz qulingning ko‘nglini “Nayyira” kabi oddiy bir bechoraga mayl ettirgan marhamatingga, tuproqdan, tikandan gul yetishtirganday, mendan ham Qutbiddin kabi malakni vujudga keltirgan azamatingga sig‘inaman. Meni Jalolimning muhabbatidan ma’yus, iltifotidan mahrum etma!

mizda inson deyishga loyiq kim bo'lsa — yuztadan to'qsoni-
ning nohaq to'kilgan qoniga bulg'angan nomni qoldirish qanday
musibatdir! Aqling yetyaptimi? Biz Olloh huzurida Namrutlar,
Fir'avnlar kabi mas'ul bo'lamiz. Istiqbolda dunyoga qancha
musulmon, qancha inson kelsa, dinsiz shaytonlarni qoldiradilar,
bizga la'natlar o'qiydilar.

NAYYIRA — Uff... Men sizni hech bunday holatda ko'rma-
gan edim. Og'zingizdan bo'z emas, otash sochilmoqda. Qalbingiz-
ga iblislar joylashib olganmi? Chingizning hujumiga sizning nima
daxlingiz bor?

JALOLIDDIN — Zarracha bo'lsa-da dahlim bor. Chingizni
qo'l-oyog'ini bog'lab oldimga keltirsalar, uni emas, o'zimni o'l-
dirgan bo'lardim. Hammasiga padarim sabab bo'ldi. Hammasiga
u sababchi — padarim, podshohim. Yetmish yoshdagi kampir
volidasi Iynonda (1) (Qal'a nomi) muhofizlik qilmoqda. O'zi qirq
besh yoshda bo'la turib, nomi chiqqan o'g'rilar boshlig'ini, zuhur
sohibini, vahshat biyobonlarining eng sassiq suvlari orasida paydo
bo'lgan yirtqich jonivorni ko'kdan tushgan balo-qazo, deb o'yladi
va qochdi. Natijada dunyo yaralib, inson qadami tegmagan qoya
yorig'iga, teshigiga bekindi. Shunchalik qo'rqqanidan hayotini
saqlab qolish uchun xotiriga mozor kelsa, yer tagiga, yildirim
va yashindan qo'rqmasa, ko'k yuziga yashirinishga ham tayyor.
Evoh, ham o'zi qochdi, ham meni sudradi. Nima qilay, o'z otam,
o'z podshohim. Ikki tarafdan itoat qilmoqqa majburdirman. Urush
boshlangan paytda hokimiyat mening qo'limda bo'lganida edi,
xudo biladi, hozir chegaradan necha soat narida oldingi qatorda
bo'lardik.

NAYYIRA — Dilingizda mamlakatni bosib olishdan boshqa
o'y yo'q. Koshki shu chodirning yarmiday bir kulbamiz bo'lsa...
Sizning fikrlaringiz bu qadar keng, mening ko'nglim esa bu qadar
tor bo'lmasa!..

JALOLIDDIN — Koshki! Lekin nima qilay! Kulbada tug'il-
dim. Hatto beshigimni ham ajdodimning oyoqlari tagida par-
chalangan bir qancha saltanat taxtining siniqlaridan yasadilar.
Nayyiram, Haqdan noil bo'lgan inoyatning, xalqdan ko'rgan
itoatning badali shunday kunlarda Haq uchun, xalq uchun jon

fido qilmoqdir. Bizlar esa tirik butmiz! Ey xudo! Janobi Haqdan ham qudratliday, Olloh qo'rquvini bir tarafga uloqtirdik. Chingiz qo'rquvi bilan o'zimizni tiriklayin mozorga ko'mmoqdamiz. Jahannam eshiklarining yuzimizga ochilishini kutmoqdamiz. Yig'la! Yig'la! Jaloling azaldan marhamatga loyiqdir. Koshki Olloh meni dunyoga keltirishga ahd qilgan onida jahannamga otsaydi, balki u yerning azobi ruhimning hozir chekayotgan azoblaridan yengil bo'larmidi?!

(Qutbiddin kirib keladi).

TO'RTINCHI MAJLIS

Avvalgilar — Qutbiddin.

QUTBIDDIN — Hukmdorimiz sayrdan qaytib, bu tarafga tashrif buyurmoqdalar.

JALOLIDDIN — Kelaversin, xunasa yurakli erkak! Tilanchi podshoh! Lochin tuxumidan chiqqan kalxat! U mening Vatanim, xalqim, dinimga xizmat qilishimni man etmoqda. G'olibo, men ham unga itoat etmaslikka majbur bo'ladurman!

(Muhammad Xorazmshoh kirib keladi).

BESHINCHI MAJLIS

Avvalgilar — Muhammad Xorazmshoh.

MUHAMMAD — Yana nima bo'ldi? Biringizning ko'zla-
ringizdan yomg'ir, biringizning chehrangizdan esa yildirimlar so-
chilmoqda.

JALOLIDDIN — Taajjublanayapsizmi? Bu soyangizda to'kil-
gan qonlarning, kuyib kul bo'lgan mamlakatlarning badalidir!

MUHAMMAD — Sen bu yerga kelmasingdan menga goh imo
bilan, goh kinoya bilan e'tiroz etganing etgan. Shu kunga qadar
nohaq hujum qilmoq badbaxtning sha'niga munosib, deb o'yladim
ham sukut saqlab keldim. Kim nima desa, desin. Menimcha, za-
mona xalqining fikri-yu, so'zi haqorat naxari bilan boqishga arzi-
maydi. Faqat sen boshqa insonsan. Men to'g'rimda noto'g'ri fikr-
larga borishingni istamayman. Gapir, qani... Aybim nima ekan?

olishdan; Nosirga kulgi bo‘lishingiz mahshar to‘la tullar, yetimlarni qaqshatmoqdan afzaldir. Jang maydonida nasib bo‘ladigan mozorning shohona bo‘lmasligi xayolingizga kelmaydi-yu, Chingizning qo‘liga tushib qolishingiz mumkinligini o‘ylaysiz. Hatto shunday musibatlarga duchor qilsa ham, Bag‘doddagi Nosirning xandalarini, istehzolarini nazaringizda jonlantirmoqdasiz. Holbuki, vujudingizga shu iflos chang-to‘zon, tuproqlar ichida bir mozor ham topa olmaysiz. Ollohning qudrati bu yerlarga ham yetadi. Olloh Taolo Nosirgina emas, har qanday odamni, qiyomatgacha G‘arbda, Sharqda zuhur etuvchi oriflarning hammasini sharmanda qiladi. Bularni hech o‘yladingizmi?

MUHAMMAD — Sen bunday beadablikni qachon o‘rganding?

JALOLIDDIN — Siz podshohlik, otalik burchingizni tark etgan kundan boshlab!

MUHAMMAD — Nima?..

JALOLIDDIN — Qo‘l ostidagilarni dushman qilichiga duchor qilib, Azroil panjasiga taslim qilib, o‘zi dushman hududidan bir necha oylik yo‘l ichkariga qochgan odamni podshoh deb hisoblash mumkinmi? Atigi uch-to‘rt yoshlik o‘g‘illarini, qizlarini tatar yirtqichlarining panjasi yetadigan yerlarda qoldirib, hayotini saqlab qolish uchun ajalning ham ko‘zi tushmaydigan orolga yashirinib olgan zotni padar deb sanash mumkinmi? Odamlarga ko‘rinishga yuzingiz qolmadi. Olti ming yildirki, Ollohning bu keng mulkiga qancha odam kelgan bo‘lsa, pastkashlikda barchasiga o‘rnak bo‘ldingiz. Men bu itoatdan, bu safolatdan, bu nomussizlikdan, bu nomardlikdan bezor bo‘ldim. Tepamda Olloh guvoh, bezorman! Qay mamlakatning podshohi bo‘ldingizki, sizga itoat etmoq menga farz bo‘lsin! Padarim bo‘lsangiz, avlodingizning, hatto avlodlaridan ham aziz ko‘rish kerak bo‘lgan bandalaringizni qaysi huquqini himoya qildingiz, men sizga iqtido etayin ham otalik huquqingizni o‘ylayin?! Hozir shu yerdan chiqsangiz, to‘g‘ri dushman oldiga borardik. Birinchi askaringiz men bo‘laman. Bir daqiqa yoningizdan ayrilmayman. Birimiz uxlasak, ikkinchimiz yotoq boshida poyloqchilik qilamiz. Ammo xiyonatga duch kelib halok bo‘ladigan bo‘lsak, bir-birimizni quchoqlab, qilichimizga

suyanib shahid bo‘larmiz. Na dunyoda asorat qo‘rquvi qoladi, na oxiratda safolat!

MUHAMMAD — Shoirona xayollar!...

JALOLIDDIN — Xayol emas, haqiqatni so‘zlamoqdaman. So‘zlarim Lavhi Mahfuzda yozilgan haqiqatlar kabi to‘g‘ridir. Tinglashni istamasangiz, ketaman. Bundan keyin amringizga itoat etmayman! Mayli padarim uchun osiy bo‘lay! Oxiratda Ollohning adolati nimani ravo ko‘rsa, roziman! Bu dunyoda qiyomatgacha mal’un bo‘lib yashashni istayman.!

MUHAMMAD — (Nayyiraga) Nega bunchalik hayron bo‘lib turibsan? Ana so‘zlaring isboti ko‘zlaringda aks etyapti. So‘zlariga qaraganda, mening uchun jonini fido qilmoqchi, shundaymi? Hozir ham saltanat havasini tark etolmayapman. Evoh, qanday balokim, mag‘lubiyat ichida qoldim! Tirik turib, o‘lik holiga tushib qolmadimmi? Boradi, merosimni izlaydi, barini olish uchun inilarini birma-bir o‘ldirishdan qaytmaydi!

JALOLIDDIN — Menmi?

MUHAMMAD — Maqsadiga erishsa a’lo! Erisholmasa, yo Qoraqurumda, yo Bag‘dodda hammaga tomosha bo‘ladi. Yana jahon yo Chingizning, yo Nosirning qo‘l ostida eziladi! Istilo qilinadigan yerlar hali bor. Jalol inson qonidan sellar oqizib u yerlarni xarob qiladi. Shunda ham yomonotliq bo‘ladigan men emasmi?

JALOLIDDIN — Olloh buncha sizni qush yurakli qilib yaratmasa? Podshoh bo‘la turib biron kimsaga yordam bermaysiz, ammo yordam berishni istaganlarni “yerimga ko‘z olaytiryapti” deb o‘ylaysiz. Qani edi, shu saltanatingizning tili bo‘lsa! Chingiz onasidan tug‘ilib, biror marta kulmagan, deyishadi. So‘zlaringizni u ham eshitsa, ichagi uzilganday qulardi.

MUHAMMAD — To‘g‘ri aytasan, hali hech kimning boshiga tushmagan musibat ichidaman. Holimga o‘z o‘g‘lim kulayotgan ekan, nega dushmanim kulmasin?

JALOLIDDIN — Siz meni iztiroblar-u g‘azablar bilan butunlay halok aylamoqchisiz, Jalol holingizga kulyaptimi? Bu nima deganingiz? Ko‘nglingizda zarracha bo‘lsa-da, insof qolmadimi?

(Ichkariga Qutbiddin kiradi).

YETTINCHI MAJLIS

Avvalgilar va Qutbiddin

NAYYIRA — *(Qutbiddinga)* Buncha bu chodirga serqadam bo‘lib qolmasang?

QUTBIDDIN — Hozir qarshidan kimdir keldi. “Hukmdorimiz xoki poyiga yuz surmoqchiman”, — dedi. Muhim xabar keltirganmish. Amir O‘rxon yuborganlari uchun keldim, jahlingizni chiqardimmi?

MUHAMMAD — *(Qutbiddinga)* Kel, qo‘zichog‘im! Men tirik ekanman, seni xafa qilishga biror kimsani haddi sig‘masa kerak. Borib ayt, xabar keltirgan kim bo‘lishidan qat’i-y nazar, bu yerga kiritsinlar! (Nayyiraga) Chodirning orqasiga o‘t! Titilib ketgan bo‘lsa ham bir ayolni nomahram ko‘zidan bekitishga yaraydigan parchasi topilib qolar. (Jaloliddinga) Ehtimol sizni saltanatni boshqarishga da’vat qilib kelishgandir. Biz endi dunyoning manfuri bo‘ldikmi? Podshohligimizni o‘zimiz tark etmadikmi? Zotan, bizdan keyin bu taxt sizniki bo‘ladi. Albatta, har bir odam o‘z podshohini taxtda, davlat tepasida ko‘rishni istaydi!

JALOLIDDIN — Sizni shu orolda bunday holatda qoldirsam, Olloh saltanatning ming turlik balosini boshimga yog‘dirsin! Podshohim, millatimni sevganim, millat yo‘lida jon berishni istaganim uchun meni o‘zinggizga, davlatinggizga xoin deb hisoblayapsizmi?

SAKKIZINCHI MAJLIS

Avvalgilar — O‘zbekxon

QUTBIDDIN *(kirarkan)* — Podshohim, mana o‘sha qulingiz!

MUHAMMAD *(shoshib, o‘z-o‘ziga)* — O‘zbek!.. (Qutbiddinga) Mayli, o‘g‘lim, bora qol! Ayt, kemachiga pul berishsin! Oldingga chaqir, iltifotlar ko‘rsat! (Qutbiddin chiqib ketadi). (O‘zbekka) Men seni Ruqniddinning xizmatiga qoldirmaganmidim? Nega bu yerlarda aylanib yuribsan?

O‘ZBEK — Podshohim! Sizga nima bo‘lganini bilmayman! Yigirma ikki yildir dushmanlaringiz mulkiga xabaringizdan avval qilichingiz yetardi, endi bo‘lsa dushmaningiz xayoliga kirib chiqmagan bu go‘shada o‘tirib o‘z mulkingiz xabarlarini eshitmoqchimisiz?

MUHAMMAD — Sen ham burchingni unuta boshladingmi?

O‘ZBEK — Tomirlarimda oqayotgan ne’matlaringiz haqqi, tajavvuz qilayotgan bo‘lsam uzr so‘rayman. Mulkingizni ko‘rdim! Suyak parchasidan, murdalar hididan yurib bo‘lmaydi. Ruqniddinni, valine’matzodamni ko‘rdim! Oh, Ruqniddin!.. O‘g‘lingiz mening ham jonim edi. Dunyoga keldiki, safosini yolg‘iz siz surdingiz! Shu yoshigacha har qahrini, har jafosini men chekdim! Sizning yana shuncha avlodingiz bor! Mening esa yolg‘iz bir shahzodam… Ruqniddinim bor edi! Uni ham ko‘z o‘ngimda o‘ldirdilar.

MUHAMMAD — Qanaqasiga sodiq xizmatkorsan? Ruqniddinni shahid ettilar! Sen bo‘lsang muborak vujudingni avaylab, musibatga dallollik qilishga bu yerga kelding. Shunday emasmi?

O‘ZBEK — Podshohim, isbot-dalilsiz hukm chiqarmoq na sizning sha’ningizga, na mansab egasiga yarashadi! Men hukmdorimdan keyin omon qolgan bo‘lsam — uning so‘nggi amrini bajarish uchun qoldim. Siz Iroqdan ketdingiz! Intizom, osoyishtalik, hukumat, saltanat siz bilan birga chekildi. O‘zimizni qo‘lga olish umidida Kirmonga yurdik. Umarodan ko‘rmagan haqoratimiz qolmadi! Kun o‘zgarishi bilan dinor qadriday tuturuqsiz ifloslarning harakatlarida o‘zgarish ko‘rina boshladi. Go‘yo biz — sohil, ular to‘lqin edilar! Goh sekinlik bilan yonimizga suquladilar, goh bir oz o‘tmay bizdan qocha boshlaydilar. Yana to‘planadilar, ustimizga bostirib keladilar. Bir-ikki qilich surishadilar-u, yana tinchib qoladilar. Boqdik! Shamolga qanchalik ishonib bo‘lsa, ularga ham shunchalik ishonish mumkin edi! “Ollohning tuprog‘i keng, quli ko‘p”, — dedik va u yerni tark etdik. To‘g‘ri Isfahonga yurdik. Ammo uning qozisi ham Nosir tarafdori ekan!..

MUHAMMAD — Oh, koshki Olloh tanamda qancha tuk bo‘lsa, shuncha Chingizni yaratsa-yu, Nosirni — o‘sha baloni bizga ro‘para qilmasa! Qozi hammangizni tutib, qatl etishni buyurgandir?

O‘ZBEK — Isfaxon ahlidan ko‘rgan xusumatimizni tatardan ham ko‘rmagan edik. Yazd Baytga, Hajjoj Baytullohga qanday muomala qilgan bo‘lsa, isfahonlilar bizga ham o‘shanday muoma-

lada bo‘ldilar. G‘alaba biz tarafda edi. Faqat o‘g‘lingiz: “Bu ko‘p-paklar inson qilichidan o‘lishga loyiq emaslar. To‘lovlari ham, mamlakatlari ham, mollari ham, jonlari ham shaytonga — Chin-gizga buyursin”, — deb otini surdi. Tatarni izlab chegaraga yurish boshladi.

MUHAMMAD — Bechora bola!..

JALOLIDDIN — Ruqniddin, iloyo senga mingta Jalol fido bo‘lsin! Hech bo‘lmasa sen xonadonimiz nomusini muhofaza qilibsan!

O‘ZBEK — Ruqniddin bilan yolg‘iz sizgina emas, jami mu-sulmon, jami inson — hammasi faxrlandi! Firuzquhda biz bilan birga bo‘lganingizda qahramonlik nimaligini ko‘rar edingiz! To‘p-da uch yuz ellik kishi edik. Tatar ham birimizga hech bo‘lmaganda uch yuz kishi bilan hujum qildi. Shunday bo‘lsa ham olti oy jang qildik! Tanamizdagi har bir yara badaliga beshtadan tatar mozori qazildiyov! Ammo ko‘pchilikni yengish uchun g‘ayratning o‘zigi-na yetmas ekan. Oqibatda mamlakatni bosib olishdi. Valine’matni o‘sha damda bir ko‘rsangiz edi! Bosh qal’ani bir hujumda zabt etgan mingtacha tatar yolg‘z Ruqniddin bilan ikki soatdan ziyoda olishdi. Go‘yo Azroilning o‘zi qilich yalang‘ochlab maydonga tushgandi! O‘z ko‘zim bilan ko‘rdim: uning na’rasidan bir mal’un tog‘ parchasiday yer tagiga kirib ketdi, halok bo‘ldi!

JALOLIDDIN — Arslon ukam! Senga askar bo‘lish o‘rni-ga otamga nodim bo‘lib katta xato qilgan ekanman! Din uchun kurashda, insoniyat yo‘lida, vatan fidokorligida itoat uchun yosh-ning katta-kichikligiga qaraladimi? Dunyoda Haq yo‘liga jon fido qilishni istaganlar bilan birga bo‘lishday buyuk baxt bormi?

O‘ZBEK — Xudoning o‘zi saqlabdi! Birga bo‘lsangiz edi, din g‘ayrati, vatan muhabbati, insoniyat tarafdorligi sizday qahramon-dan ham ayrilardi. G‘alaba qilishning imkoni bo‘lganida, o‘sha davlatni qozonish uchun Ruqniddinning o‘zi kifoya qilmasmidi? Xudo biladi, podshohim! Ko‘rsatgan shijoati uningday yigirma yoshli nozik shahzodaning emas, Oloviddinni Jahonso‘zning filsi-fat polvonlarining hamkori emas. Shubham yo‘qki, imon nuridan yaralgan edi. Ammo vujudi toshdan, temirdan yaratilgan emasdi. Yigirma olti yeridan yaralandi. Bu zaif qo‘l, bu nozik suyak shun-

cha o‘qqa, shuncha qilichga qancha soat qarshilik qila olardi, der-siz? Nihoyat yaralaridan to‘kilgan qonlar bechorani behol yiqitdi. Oyog‘i yurishdan, qilichi chopishdan to‘xtadi. Tatarlar yarador arslonni ko‘rgan tozi itlarday ustiga tashlandilar. Sho‘rlik pod-shohzodam oyog‘i tagidan qilichini olishga harakat qilayotganida dushman qo‘llariga, oyoqlariga yopisha ketdi. Bir necha daqiqa-gina qarshilik qila oldi. Bari foydasiz edi. Tutdilar, ming azobda sardorlarining chodiriga sudrab keltirdilar. Oh, bechora shahid… O, baxtsiz qahramon!..

MUHAMMAD — Sen askar emas, aytib yig‘lovchi bo‘lishing kerak ekan.

O‘ZBEK (eshitmay) — Askarlardan shahid bo‘lmagan tax-minan oltmish besh kishi qolgandik. Boshqalar ham bulutlar or-tiga yashiringan yashinday tatar qo‘shinini yorib o‘tib, mening yonimga to‘plana boshladi. Qal’adan tatar sardorining chodiriga borguncha jang qildik. Sho‘rlikni qutqarish u yoqda tursin, hatto yoniga ham yaqinlashib bo‘lmasdi. Atrofini mingtacha doira yasab o‘rab olishgandi. Bir amallab chodir yoniga yaqinlashdik. Tatarlar shahzodaga sardor huzurida bosh egishni taklif qilishdi. Uning boshi jallod qarshisida egiladigan boshlardan edimi?! Ko‘ppaklar haqoratdan boshqa muomala ko‘rmadilar. Mal’unlar valine’matzo-damning oliyjanobligi oldida o‘zlarini shunday olchoq his qildi-larki, g‘azabdan quturib ketdilar. Sardorining amrisiz non yemay-digan ko‘ppaklar sardorning og‘zidan bir so‘z chiqmay turib Ruqniddinning tishlari, tirnoqlari bilan tilka-pora qila boshladilar.

MUHAMMAD — Bechora Ruqniddin!..

JALOLIDDIN — Bechora u emas, bizmiz! Mozori nurga to‘lsin. Shahid bo‘libdi, lekin pastkashlik qilmabdi…

O‘ZBEK — Ha, shahid bo‘ldi. G‘ayrat-la shijoat-la shahid bo‘ldi. Biz o‘sha paytda ham chodirning ichiga kirishga harakat qildik. Marhum faryodimizni eshitdi, Menga xafa bo‘lib so‘nggi bor nazar tashladi. Dahshatdan qotib qoldim. Ollohim, qanday g‘ayrat, qanday fidokorlik edi bu! Marhum dunyoga o‘zi uchun emas, yolg‘iz Olloh uchun kelgandi. Shunday bo‘lsa ham yana Ollohning, dinning, ibodullohning tashvishini qildi. Eng so‘nggi so‘zlari: “Eronda askar yo‘q, siz behudaga bu yerda o‘zingizni

XOLIQNING INONCHI

Bir yaratuvchi kuch bor, ulug‘ va pokiza,
Ilohiy va yuksak, unga vijdon-la inondim.

Yer yuzi vatanim, insoniyat millatimdir mening,
Xuddi shundoq tushungan inson bo‘lajagingga inondim.

Shayton ham bizmiz, jin ham; na shayton, na malak bor;
Dunyo inson-la jannatga aylanajak, inondim.

Yaratilishda komillashish bor, bo‘lgan, bo‘ladi,
Men bunga Injil-la, Tavrot-la, Qur’on-la inondim.

Komil insonlar qardoshidir bir-birining... Bir xayol bu!
Bo‘lsin, men bu xayolga ming jon-la inondim.

Inson go‘shti yonmas; oh, dedim ichimdan, ne yaxshi,
Bir on uchun deganlarimni unutdim-da, inondim.

Qon shiddatni peshlar, shiddat qonni; bu dushmanlik
Qon otashidir, qon ila so‘nmas, inondim.

Albatta, shu mozor hayoti, alam-u, qorong‘ulik ortidan
Oydin bir qiyomat kuni kelajak,
bunga iymon-la inondim.

Aqlning, bu buyuk sehrgarning hunari oldida
Yuk bo‘lajak, haqiqat tashqarisida ne bo‘lsa, inondim.

Qorong‘uliklar o‘tajak, yonajak Haqning nuri,
Portlagan bir vulqon kabi bir onda, inondim.

Qo‘llar va bo‘yinlar cho‘zilib, bog‘lanajak bir-bir
Mushtlar shaqirlagan zanjirlar ila, inondim.

Bir kun topadi fan qora tuproqning ostin,
Bilim kuchi bilan bo‘lar ne bo‘lsa... Inondim.

BALIQCHILAR

— Bugun ochmiz yana, avlodlarim, — der edi padar, —
Bugun ochmiz yana; lekin ertaga, umid qilaman,
Suvlar biroz sokinlashar... Nachora, qadar.

— Yo‘q, suvlar naqadar jo‘shqin bo‘lsa-da, men ketaman, —
Der edi o‘g‘li, — ertaga sen biroz momom-la o‘tir,
Qarilikdir, yana necha kundir endi xasta.

— Bo‘ladi.
Biroz sen ham ishla, bolam, biroz sen ham jahd qil,
Momong, bobong — ikki miskin, biz endi o‘luvchimiz.

Bola tushundi, shikoyatli bir nazar ila: — Yo‘q, biz,..
Yo‘q, men qanday yasharman siz o‘lsangiz?!

Hali
Tashqarida guvillab o‘kirardi bir qo‘shin kabi,
Sohilni zirillatardi minglarcha to‘lqinlar asabiy.

— Ertang sen kun yorishmasdan tayyorlanarsan,
Aslo yetarli biroz ip, qarmoq olmasdan ketma...
Ochilsa, yelkanga hech boqma, o‘ynasin ketsin.
Qayiq bola kabidir. O‘ynasa, to‘xtatma,
Kayfini buzma; faqat tetik bo‘l, tayan.
Dengiz xotin kabidir. Hech ishonib bo‘lmas unga, ha.

Dengiz tashqarida mahzun, chag‘alaylar bir to‘da,
Xotin ming‘irlardi, g‘ingshirdi o‘rtalikda:

Arz aylamasin ruhimga har on bu qadar zohid,
Bir nash'aki, yolg'iz senga, yolg'iz senga oid.

Birlikda bo'lolsak yana bir parcha kulimsar,
Umring, shu o'tgan umrimning iqboli xarobi;
Tazkir ayla moziyni, ey hamdami dilbar!
Birlikda bo'lardik yana, birlikda barobar
Xatm aylaylik, kel, shu g'amoluda kitobni!

XOLIQNING BAYRAMI

("Rubobi Shikasta"dan)

Otang aytadiki: "Hayit go'daklarnikidir, yolg'iz
Go'daklarning nasibasidir! Ey go'zal go'dak, tingla,
Faqat sevinching-la
Nimalarni anglatayapsan, bilasanmi?.. Otasiz,
Umidsiz, naqadar ezilarsan shu onda
Motam siyohiga o'xshar bayram taronasi!

Chiqar taqinchoqlarni endi, sevinching yetishar;
Chiqar, biroz shu yetim ham kiyinsin, shodlansin;
Biroz go'zallansin.

Shu chehrasi so'lg'in safolat... Albatta hayitdir
Go'daklarning nasibasi. Lekin ko'z yoshi-la
Sevinmasdi shu yetim, yig'lardi... Xoliq, tingla!

SHOHONA QAROQCHILIK

Bu dasturxon, afandilar, mehmonlarga har doim zor,
Qarshingizda titrab turgan shu millatning hayotidir.
Shu millatning ki muztarib, shu millatning ki intizor,
Faqat aslo chekinmangiz, yenglar, yuting harir-harir...

Yenglar, afandilar, yenglar, shohona ishtaha denglar,
To'yguncha, tiqilguncha, yorilib ketguncha yenglar.

Afandilar, tom ochsizlar, chehrangizdan ayon bo'lar,
Yenglar, bugun yemasangiz, erta qolarmi, kim bilar.
Shu noz-ne'mat, boqing, qadamingizga muntazir,
Bu haqqidir qazoligingizning, shundoq, u haqda sarosar...

Yenglar, afandilar, yenglar, shohona bir safo denglar,
To'yguncha, tiqilguncha, yorilib ketguncha yenglar.

Butun bu nozli boylarning, ne borsa, o'rtalikda shay,
Hisob, nasab, sharaf, o'yin,tugun, qo'noq, saroy
Bari sizning, afandilar, mehmonsaroy, keling, voy-voy,
Tamom sizning, tamom sizning, hozir-hozir, qulay-qulay...

Yenglar, afandilar, yenglar, shohona ishtaha denglar,
To'yguncha, tiqilguncha, yorilib ketguncha yenglar.

Kattalikning biroz og'ir ham bo'lsa-da hazmi, yo'q ozor,
G'ururi ihtishomi bor, sururi intiqomi bor,
Dasturxon iltifotingizdan shunda ob-u tob kutar,
Sizning bu bosh, bo'yin, jigar, tamom shu qonli luqmalar...

Yenglar, afandilar, yenglar, bundoq bir jonfizo denglar,
To'yguncha, tiqilguncha, yorilib ketguncha yenglar.

Berar bechora mamlakat, berar, ne borsa, molini,
Vujudini, hayotini, umidini, xayolini,
Butun farog'i, holini, boricha shavq-u bolini,
Hamon yuting, so'ramasdan haromini, halolini...

Yenglar, afandilar, yenglar, shohona ishtaha denglar,
To'yguncha, tiqilguncha, yorilib ketguncha yenglar.

Tekinxo'rlik kelar so'ngi, tiqishtiring to ketar choq,
Erta tashlasangiz, so'nar bugun yoqqaningiz o'choq.

Bugun-ku me'dalar ochdir, bugunki sho'rvalar qaynoq,
Xo'rillating, tiqishtiring, qoshiq-qoshiq, tovoq-tovoq...

Yenglar, afandilar, yenglar, shohona purnavo denglar,
To'yguncha, tiqilguncha, yorilib ketguncha yenglar.

QUSHLARGA

Qushlar uchar,
Men ko'charman.
Ularning qanotlari bor,
Mening qanotim —qo'llarim.
Qushlar qanotini chirpar,
Men ham qo'limni siltarman.

Uching, qushlar, uching qushlar,
Hammangiz-la poygamiz bor.

ODDIY ASKAR

Oddiy askar, qurol qo'lda,
Qahramonday ilgarilaydi.
Qarshisida butun o'lka:
"Qahramonim, yasha!" deydi...

Oddiy askar, oddiy askar!
Vatan sendan xizmat istar.

Vatan uchun xizmat etmak
Har kim burchi, etmasmisan?
Vatan demak — ona demak,
Sen onangni sevmasmisan?..

Oddiy askar, oddiy askar!
Vatan sendan shafqat istar.

Vatan sendan hayot kutar,
Sen yashasang — u jonlanar.
Vatan uchun o'lmoq ham bor,
Faqat burching yashamoqdir...

Oddiy askar, oddiy askar!
Vatan sendan quvvat istar.

Mitti-mo'jaz yelkalaring
Tashimoqda og'ir miltiq.
Miltiq emas, vatan yuki
U yelkangda turar intiq...

Oddiy askar, oddiy askar!
Vatan sendan g'ayrat istar.

Oddiy askar, tingla buni:
Aslo bekor qurol otma.
Qilichingni, o'qlaringni
Haqsizlikka qarshi saqla...

Oddiy askar, oddiy askar!
Vatan sendan qudrat istar.

PROMETEY

Qalbingda og'ir hasrating ezadi har on, har kun,
Olovning otashini tuy, uni doimo tushun:

Ular nechun samoda, nega men chuqurdaman,
Jahon nega mendan kular, men faqat ozurdaman?..

Yuksalmoq osmonlarga va kulmoq, ne totli, hey!..
Bir kun shu xastahol vatanim jonlansaydi... Ey

Butun bu qasirg‘alar, taloto‘plar orasida
Ingragan bo‘sh qubba, sen so‘yla!

Senki, har sasni yangilovchisan,
So‘yla, bu bir dunyo talpinish ichinda,
Yana yuqoridagi shu tangri xotiri uchun
Qaysi sasing yangi aks sado bermish?
Qaysi duo qabul bo‘lmish bugunga kelib?
Tinglarman seni, ko‘k tangrisi,
Din ulamolaridan tinglarman seni:
“Na tengi bor, na nuqsoni,
Jonli va o‘limsiz
Va har nega kuchi yetgan
Va yuksak.
Udir bergan yeganingni, ichganingni,
Tushlarni haqiqatga aylantirgan u,
Biluvchi, xabari bo‘lgan, qahr etgan va qasos olgan,
Ochiq, yopiq har neni sezuvchi va anglovchi,
Qo‘l uzatgan yo‘qsillarga va chorasizlarga,
Har zamon har yerda bo‘lgan va har yerni ko‘rgan...”
Seni shundoq ta’riflab turarlar shunda.
Shunda sening eng ustun xosliging nima,
“O‘rtoqsiz” ekaning emasmi?
Qancha do‘sting bor shu botqoqlikda, bir boq.
Ko‘pi o‘limsiz bilar o‘zini va har nega kuchi yetar, qahr etar.
Va ko‘pi o‘rtoqsiz va yolg‘iz
Va ko‘pining buyrug‘i, qonuni va saltanati bor,
Va ko‘pining yuqorilarda bir ko‘kyuzi.
Butun undan kelar yurakka tug‘yon.
Ko‘pining quyoshi, oyi, yulduzlari bor,
Va ko‘pining ko‘rinmas tangrisi.
Ko‘pining o‘tingan bir jannati bor
Va ko‘pining bir borlig‘i, bir yo‘qligi,
Va ko‘pining sevguvchi bir payg‘ambari.
Va ko‘pining jannatida mislsiz hur qizlar yashaydi.
Va ko‘pining jahannaminda biror ovqatdir insonchalar.

Tangrilar ne desa, uni qiladi xalq,
Sabr-la va qahr-la bo‘ladi itoat.
Ammo tangrilar ne desa, uni qiladi.

Ishongim kelmaydi bularning hech biriga.
“Qaydan bilaman?” deydi kimdan so‘rsam.
Hammasi bir niqobmi yo bular yo‘qsa?
Balkim, aldanmoq yashamoqning bir bo‘lagi.
Balkim, hammasi to‘g‘ridir, kim bilsin,
Balkim, men hech narsaning farqiga bormasman,
Aralashtirmoqdaman “yo‘q” va “bor”ni.

Aybim nima? Shubhada qolmoqmi?
Shubha ketmoqdir oydinliklarga tomon.
Inson aqlidir boshida-oxirida haqiqatni topadigan.
Balkim, yo‘q bo‘larmiz ko‘pimiz bir kuni nogah.
Kim bilar bu vujud u o‘limsizning ishi,
Ne uchun og‘rinib turar ming dardning ichinda?
Mayli, deylik, aslimiz tuproq bizning,
Sen kel, uni taqdirdan bir loy ayla.
Har yeri qon-la, ko‘z yoshi ila to‘liq,
Insof, axir, bu qadar ham bo‘larmi?

Sen kel, yana yo‘qdan bor qil,
So‘ngra ham qurganingni buz, yomon qil.
Hech bir yaratgandan demasman buni:
Yaratgan yo‘q etar, ammo parishon etmas!

Eng kuchli dushmaning endi, tangri,
Bo‘g‘moq istar seni ulug‘ arshingda,
Juda yaxshi tanirsan sen u ilonni,
Uning o‘tlug‘ zahridan bir vaqtlar bizga
Bir totim bergan eding, axir.
Shubha! Eng zolim, eng kuchli dushman.
Buni yo bilding va atay kiritding miyamizga,
Va yo bilmading ishing nimaga yarashini.

Kemalar jo‘nar oydin ufqlarga,
kemalar jo‘nar !
Shishgan oppoq yelkanlarga yoqmaydi kadar .
Qachon bo‘lsa, umrim deyman u kemalarda ,
Navbatchilik orzusiga, albatta, yetar .
Madomiki, o‘lim bir kun noiloj ,
men suvlarga botgan bir yorug‘ kabi —
suvlarda so‘nmoq istayman!
Qaytmoq istayman dengizga!
Dengizga qaytmoq istayman!

1927-yil

* * *

Gulim, ikki ko‘zim qorasi ,
Men o‘lmakdan, hayiqmayman bil .
Ammo, o‘lim shanimga sig‘mas ,
Hozir o‘lsam, vijdonim xijil ...

1959-avgust

OCHLIK ARMIYASI KELAYOTIR

Ochlik armiyasi kelayotir:
Kelayotir nonga to‘ymoq uchun,
go‘shtga to‘ymoq uchun,
kitobga to‘ymoq uchun,
ozodlikka to‘ymoq uchun.
Kelayotir ko‘priklardan o‘tib, qildan ingichka,
qilichdan keskin.
Kelayotir temir darvozalarni parchalab,
qal’a devorlarini yiqitib.
Kelayotir oyoqlari qonga belanib.
Ochlik armiyasi kelayotir:
odimlari momaqaldiroq,

qo‘shiqlari olovdan,
bayrog‘ida umid,
umidlarning umidi bayrog‘ida.
Ochlik armiyasi kelayotir:
shaharlarni yelkalarida ko‘tarib,
tor ko‘chalari, qorong‘i uylari bilan shaharlarni,
fabrika karnaylarini
tanaffusdan keyingi paytlarning tuganmas
charchoqlarini ko‘tarib.
Ochlik armiyasi kelayotir:
ayiq ini qishloqlarning orqasidan cho‘zilib — tortilib
va yetaklagancha yersizlikdan o‘lganlarni
bu kap-katta yerda.
Ochlik armiyasi kelayotir:
kelayotir nonsizlarni nonga to‘ydirmoq uchun,
ochlik armiyasi kelayotir.
Kelayotir oyoqlari qonga belanib.

BUYUK INSONLIK

Buyuk insonlik kemada paluba yo‘lchisi,
poyezdda uchinchi mavqe,
shosseda piyoda
buyuk insonlik.
Buyuk insonlik sakkizida ishga ketar,
yigirmasida uylanar,
qirqida o‘lar
buyuk insonlik.
Non buyuk insonlikdan boshqa har kimga yetar
guruch ham shunday,
shakar ham shunday,
mato ham shunday,
kitob ham shunday,
buyuk insonlikdan boshqa har kimga yetar.
Buyuk insonlikning tuprog‘ida soya yo‘q

ko‘chasida chiroq
derazasida oyna…
Ammo umidi bor buyuk insonlikning
umidsiz yashay olmas.

* * *

Yoshim oltmish
o‘n to‘qqizimdan beri tush ko‘raman
yomg‘ir, loygarchilik, yoz, qish,
uyquda uyg‘oniq
ko‘ringan tushimning ketidan yuraman.
Nimalarni olib ketmadi mendan ayriliq,
kilometr-kilometr umid, tonna-tonna qadar,
taraganim sochlar, siqqanim qo‘llar.
Faqat tushim bilan ayrilmadik.
Ovruponi, Osiyoni, Afrikani tushim bilan
birga kezib dovon oshdim,
Faqat amerikanlar viza bermadilar,
dengizlardan, tog‘lardan,
cho‘llardan ko‘p odamlarni sevdim,
odamlarga shoshdim.
Mahbusxonalarda nuri edi hurriyatimning
nonimning qaymog‘i edi surgunda
har bir tugagan tunda edi,
har bir boshlangan kunda:
ulug‘ ozodlik tushi mamlakatimning.

* * *

Dengizning ustida ola bulut.
Yuzida kumush kema,
Ichida sariqbaliq,
Tubida moviy yo‘sin.

Sohilda bir yalang‘och odam
turib o‘ylar:
Bulut bo‘lsammikin,
kemami yoki?
Baliq bo‘lsammikin,
yo‘sinmi yoki?

Na unisi, na bunisi,
Dengiz bo‘lmoq kerak, o‘g‘lim,
Buluti-la, kemasi-la, balig‘i-la, yo‘sini-la.

NEKBIN ODAM

Bolalikda chivinning ham qanotini yulmadi,
Chelak boylamadi mushuklarning dumiga,
Gugurt qutilariga qamamadi pashshalarni
Chumoli uyalarini buzmadi.
Katta bo‘ldi.
Butun bu ishlarni uning boshiga soldilar.
U o‘tlarkan, men yonida edim.
Bir she’r yo‘qki,— dedi menga,—
Quyosh haqida, dengiz haqida,
Atom qozonlari ila sun’iy oylar haqida
Buyukligi haqida insonlikning.

KETISHDAN AVVAL

Ketishdan avval ishlarim bor qiladigan.
Ketishdan avval
Jayronni qochirdim ovchining qo‘lidan.
Ammo hali hushsiz yotar, uyg‘onmagan.
Uzdim po‘rtaxolni butoqdan,
Lekin po‘stlog‘i archilmagan.
Bo‘ldim yulduzlar-la do‘st-oshna,
ammo sanoqlari sanalmagan.

Quduqdan tortdim suvni,
ammo ko‘zalarga quyilmagan.
Gullar tizilgan likoplarga,
ammo toshguldan o‘yilmagan.
Sevgi-armonlarga to‘yilmagan.
Ketishdan avval ishlarim bor qiladigan,
Ketishdan avval.

JANOZA MAROSIMI

Bizning hovlidanmi ko‘tarilar tobutim?
Qanday tushirasizlar uchinchi qabatdan?
Liftga sig‘mas tobut,
Zinalar esa juda tor.
Balki hovlida tizgacha quyosh va kaptarlar bo‘lajak.
Bolalar shovquniga to‘la qor yog‘ar balki.
Balki huzun shivalagan yomg‘ir
va hovlida axlat qutilari turar odatdagiday.
Moshinga yerlik udumga ko‘ra yuzim ochiq qo‘yilsa agar,
bir narsa tomishi mumkin peshonamga bir kaptardan
yaxshilikka.
Musiqa dastasi kelsa-da, kelmasa-da, bolalar
kelishar qoshimga.
bolalar qiziqar o‘likka.
Qarar ortimdan oshxonamiz derazasi.
Ayvonimiz kuzatar meni dorga osilgan kirlari bilan
Men bu hovlida baxtiyor yashadim bilmaganingiz qadar,
Hovlidoshlarim, uzun umrlar tilarman hammangizga.

* * *

Insonlarning qo‘shiqlari o‘zlaridan go‘zaldir,
O‘zlaridan umidli,
O‘zlaridan kadarli
Yana-da uzun umrli o‘zlaridan.

Sevdim insonlardan ko‘ra qo‘shiqlarini.
Insonsiz yashayoldim,
Qo‘shiqsiz hech qachon.
Yorimni aldadim balki,
Qo‘shig‘ini hech qachon.
Hech qachon aldamadi meni qo‘shiqlar ham.
Qo‘shiqlarni angladim qaysi tilda aytilsa-da.
Bu dunyoda yeb-ichganlarimning,
Aylanib yurganlarimning,
Tuyganlarimning,
Bilganlarimning
Hech biri, hech biri
Meni baxtiyor etmadi qo‘shiqlar qadar…

* * *

Yetmakda navbatim,
Hozir men otaman bo‘shliqqa o‘zimni,
Na chirigan etimdan xabarim bo‘lar,
Na ko‘zlarim chuqurida aylanayotgan ko‘k pashshalardan.
Qattiq o‘ylayapman o‘limimni,
Navbatim yaqindir demak.

* * *

Chinor bo‘lsam, dam olsam ko‘lkasida.
Kitob bo‘lsam,
o‘qisam uyqusiz kechalarimda yuragim siqilmasdan.
Qalam bo‘lishni istamayman o‘z qo‘limda ham.
Eshik bo‘lsam, yaxshilarga ochilsam, yomonlarga yopilsam.
Deraza bo‘lsam pardasiz, ikki qanoti ochiq bir deraza
Va shahar to‘lsa xonamga.
So‘z bo‘lsam, chaqirsam adolatga, ezgulikka, go‘zallikka.
So‘z bo‘lsam, sevgimni so‘ylasam ohista.

NEKBINLIK

She'rlar yozaman,
bosilmas,
bosilajak ammo.
Bir maktub kutaman xush xabarli,
ehtimolki, o'lgan kunim kelar,
mutlaqo kelajak ammo.
Davlat ham bo'lmasa, pul ham bo'lmasa,
insonning izmida bo'lsa dunyo,
balki yuz yil so'ngra
shunday bo'lar,
mutlaqo shunday bo'lajak ammo.

1957, Moskva

ERTAKLARNING ERTAGI

Suv boshida turibmiz
chinor ila men.
Suvda suvratimiz chiqmoqda
chinor ila mening.
Suvning shu'lasi urmoqda
chinor ila menga.
Suv boshida turibmiz
chinor ila men hamda mushuk.
Suvda suvratimiz chiqmoqda
chinor ila maning hamda mushukning,
Suvning shu'lasi urmoqda bizga
chinorga, menga hamda mushukka.
Suv boshida turibmiz
chinor, men, mushuk hamda quyosh.
Suvda suvratimiz chiqmoqda
chinorning, mening,
mushukning hamda quyoshning.
Suvning shu'lasi urmoqda bizga

chinorga, menga, mushukka hamda quyoshga.
Suv boshida turibmiz
chinor, men, mushuk, quyosh hamda umrimiz.
Suvda suvratimiz chiqmoqda chinorning, mening,
mushukning, quyoshning hamda umrimizning.
Suvning shu'lasi urmoqda bizga chinorga, menga, mushukka,
quyoshga hamda umrimizga.
Suv boshida turibmiz.
Dastlab mushuk ketajak,
g'oyib bo'lar suvda suvrati,
So'ngra men ketajakman,
G'oyib bo'lar suvda suratim.
So'ngra chinor ketajak,
g'oyib bo'lar suvda surati.
So'ngra suv ketajak,
quyosh qolajak.
So'ngra u ham ketajak.
Suv boshida turibmiz
chinor, men, mushuk, quyosh hamda umrimiz.
Suv sarin,
chinor ulug',
men she'r yozmoqdaman,
mushuk uxlamoqda,
quyosh issiq,
ko'p shukur, yashayapmiz.
Suvning shu'lasi urmoqda bizga, chinorga, menga, mushukka,
quyoshga hamda umrimizga.

1958, 7-mart, Varshava — Shvider

* * *

Dunyoni beraylik bolalarga,
hech bo'lmasa bir kunginaga,
ola-bula pufakday beraylik, o'ynasinlar,
o'ynasinlar qo'shiqlar ayta-ayta

yulduzlarning orasida.
Dunyoni bolalarga beraylik,
kattakon bir olma kabi beraylik,
issiqqina bir non burdasi kabi
hech bo‘lmasa bir kunginaga to‘ysinlar.
Dunyoni bolalarga beraylik,
bir kunlik ham bo‘lsa o‘rgansin
dunyo hamjihatlikni.
Bolalar dunyoni olajak qo‘limizdan,
o‘limsiz daraxtlar ekajaklar.

1962, 21-may, Moskva

INSON MANZARALARI

MUALLIFDAN

“Inson manzaralari”ni 1941-yili Bursa turmasida boshladim.

Bundan avval “Taniqli kishilar qomusi” ustida ishlayotgan edim. Mening Qomusimga mashhur generallar, sultonlar, san’atkorlar, bilimdonlar, husn qirolichalari, qotillar, milliarderlar emas, shuhrati fabrika va mahallalari devorlari oshib chetga chiqmagan ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar kirar edi.

Shu vaqt nemis fashizmi Sovet Ittifoqiga bostirib keldi. Men XX asr tarixini yozishga qaror qildim. Turli millat, turli tabaqa, vakillari hayotini aks ettirish kerak deb o‘yladim bu tarixda. Fashizmning Sovet Ittifoqiga bostirib kirishi bilan XX asr tarixini yozish istagi orasida qanday munosabat bor, dersiz. Balki haqlidirsiz. Ammo bugungidek xotiramda: turma nazoratchisi xabar berganda vujudim larzaga keldi va “Yigirmanchi asr Tarixini yozmoq kerak” dedim o‘zimga o‘zim. Gitlerning bostirib kirishidan boshlamoq, so‘ngra yana ortga, Angliya Bauer urushiga, undan keyin yanada nariroqqa qaytmoq va qamoqdan chiqqach, umrimning oxirgi yilida bir kitob nashr ettirmoq kerak, deb o‘yladim. Demak, men fashizmning yengilajagiga, qamoqdan chiqishimga amin edim.

XX asr tarixiga ma’lum va mashhur millat kishilarining ba’zan uch satrdan, ba’zan uch sahifadan iborat tarjimayi hollarini; umrimda ko‘rgan-bilganlarim, turk, rus, ozari, ukrain, ingliz, fransuz, hind, amerikalik butun insonlarni, o‘zim yaratgan insonlarni kiritmoqchi edim.

Qomusimga kirgan kishilar tariximga ham kirdilar. Uslubning shakllanishida shunday qilib qomus tilining lakonizmi asos bo‘ldi. O‘sha kunlari men qirolicha Yelizaveta shoirlarini mutolaa qilayotgandim, ularning ta’siri bo‘ldi. Endigina Gogolning “O‘lik jonlar”ini o‘qib chiqqan edim, undan ham foydalandim.

Tariximga “Inson manzaralari” deb nom qo‘ydim. Bu — mo‘ljalimda olti, yetti kitobdan iborat bo‘lishi kerak edi. She’r tex-

fetr silindr va shippaklar
hamda Lohur sholidan chorsi-qushoq.
Xurjun o‘nboshining yelkasiga qo‘lini qo‘yib:
“G‘am yema, bir-ikki kun bola-chaqangning
oromini buzmayman
va lekin, biron foiz
qarzing ortadi”, dedi.
Haydarposho bo‘g‘ozida chag‘alaylar suvga tushib
ko‘tarilar havoga,
dengiz uzra tutib yeydi o‘limtiklarni.
Havas qilgudek emas ularning hayoti!
Vokzal soatida uchdan besh daqiqa o‘tdi.
Elevatorda bug‘doy yuklashar
italyan bayroqli kemaga.
O‘nboshidan ayrilgan xurjun
endi vokzalga kelgan.
Pillapoyalar ustida quyosh,
horg‘inlik
va tashvish
hamda qizil boshli bir kapalak o‘ligi.
Inson oyoqlari ostida
oq va uzun tosh ustida
chumolilar sudrashar kapalak jasadini.
Adliya xonim
polis afandiga engashdi,
nimadir so‘zlashdi.
Kamolning boshini siladi.
Barisi jo‘nashdi polisxonaga.
G‘ira-shira ro‘yo singari
xotira bag‘rida yotgan xotinni
Kamol garchi ko‘rolmasa ham,
endi yakka-yolg‘iz emas dunyoda.
Idish-oyoq yuva biladi.
Suv tashishga yaraydi Kamol.
Adviya xonimning tizzasi ostida yashaydi.

Zinalardan mahkumlar chiqishar,
chaqchaqlashib kulishib.
Uch kishi,
bir xotin
va to‘rt jandarm,
Erkaklar — kishanda.
Xotin — kishansiz.
Jandarmlar qurolli.

Pillapoyalar ustida
bir atirgul,
bir papiros qutisi,
bir parcha gazet.
Mahkumlar to‘xtashdi,
Jandarm Hasan
Ahmad o‘nboshiga qo‘lini cho‘zdi,
so‘rashdi
Jandarm Haydar
bo‘sh qutini egilib oldi,
cho‘ntakka soldi.
Mahkum xotin
bo‘yniga osilgan Atifatning o‘pdi
ikki yuzidan.
Qo‘llari bog‘liq Xalil
atirgul yonida yotgan parcha gazetga boqdi:
Qaqqaygan bir odam.
Uni formasi noaniq.
Yuzlarini soqol bosgan.
Oq dokada bog‘langan boshi.
Doka — qon.
So‘ngra
qanotli va yirtqich nahanglar singari
po‘lat qushlar:
“Sho‘ng‘uvchi bombardimonlar” —
ostidagi yozuv.
So‘ngra bir port: ustiga kichik va oq doiralar chizilgan.

U odamning nomini o‘qiyolmadi.
Yozuv ustiga qoramoy to‘kilgan.

Zinalardan chopib chiqdilar
uch xonim —
    boshlarida uchlik kuloh,
  oyoqlarida po‘pak shippak.
Shahar yo‘li sayyohlari.
Zanjirband Sulaymonning
xonimlarga tushdi nazari.
Bir juvon ko‘nglidan o‘tdi.
Atirgulga qarab tupurdi.
Zanjirband Fuod
Usta G‘olibga so‘zlar:
“ — Usta,
g‘aroyib narsalarni
o‘ylaysanmi hali ham,?
“ — O‘ylayman, bolam,
o‘ylayman hamon”.
“ — Yashavor, ey usta,
lekin yolg‘iz o‘ylaring bilan
tuzata olmaysan dunyoni”.

Fuod tarsonada chilangar,
19 yoshida qamoqqa tushdi
uch o‘rtoq pardalarni tushirib,
bir kitob o‘qiganlari uchun.
Va ikki yildan beri yotibdi.
Endi olib ketmakdalar uzoqqa.
Usta G‘olib
bu safar
dahshatli narsalarni o‘ylab,
Fuodning qo‘llariga,
zanjirlariga boqar.
Bugungidek
o‘zi farqiga bormay uyg‘ongan fikrlar

yig‘ilib
      ustma-ust
            baravariga
qopqog‘ini otgan bir chashma suviday
            loyqa
                  shaffof,
oqar edi kallasining ichini to‘ldirib.
“Naqadar ko‘p fabrika bor Istanbulda,
Turkiyada naqadar ko‘p.
Dunyoda naqadar ko‘p,
sanab tugatolmaysan...
Kecha kechasi
chilangar Qodir mayxo‘rning
murdasini topishdi
shundoq dorilfunun darvozasi yonidan —
uni ko‘rib hushidan ketdi bir talaba qiz.
Naqadar ko‘p qayish chig‘anoq,
naqadar ko‘p tasmali charx,
naqadar ko‘p motor!
Hammasi aylanar,
kecha-kunduz aylanar,
            aylanar...
Naqadar ko‘p odam, naqadar ko‘p odam
“Birdan ishsiz qolsam-chi,
birdan ishsiz qolsam-chi” deb o‘ylar bu dam.
Harf teruvchi Usta Shahob ko‘r bo‘ldi,
so‘rar sadaqa...
To‘qima dastgohlari,
      frezer dastgohlari,
            tokarlik dastgohlari.
Bolg‘alar va g‘altaklar,
pulanyolar,
      pulanyolar,
            pulanyolar.
Usta G‘olib pulanyochi edi.
Kim bilar dunyoda naqadar,

naqadar ko‘p ishsizlar bor,

xor.
Askarlikka oladilar ularni.
Bir ishsiz harbiyga ketsa
ortiq ishsiz sanalmasmi yo?”
Yana xayollarga cho‘mding-ku, ustam...”
Usta G‘olib ushlab ko‘rdi Fuodning kishanini.
“ — Olloh oxirimizni...
(qo‘rqib ketdi o‘z ovozidan)
baxayr qilsin, o‘g‘lim”, — dedi.
Fuod kulimsiradi
ingichka mo‘ylabi orasidan;
“ — Albatta, baxayr bo‘ladi oxirimiz”, —
dedi.
Ko‘zlari yoshlanib ustaning,
uzun burni titrar
va hech kimga ko‘rsatmasdan
fuodning cho‘ntagiga solib qo‘ydi hamyonidagi
ellik besh qurush[1]ning yigirmasini.

Vokzalga soatida o‘n beshdan sakkiz daqiqa o‘tdi.
15.45 da qo‘zg‘olar bu.
Uchinchi mavqe kutish salonida,
o‘tirib,
aylanib,
mudrashar odamlar
cho‘zilgancha,
Qo‘zg‘olayotgan har qaysi poyezd bilan ishlari yo‘q.
Bosmakash[2] Umar
soqoli hovuchida
yalang oyoqlari beton ustida,
sahardan beri,
o‘ltirar burchakda ikki bukilib.

[1] **Qurush** — mayda tanga, liraning yuzdan bir bo‘lagi.
[2] **Bosmakash** — qog‘oz trafaretlar bilan bo‘yovchi usta.

Sahardan beri Umarning qarshisida
oldinga,
keyinga,
balandga,
pastga
odim otar Rajab.
Nozik uzun qo‘llari ko‘tarilib tushib,
ko‘rinmas pichoqlarni ilib olmoqchiga
o‘xshar kaftlari.
Taxtada uzala tushib yotar Ali.
Ko‘ylagining orqasi yirtiq,
bilaklari ustida Alining qumrol boshi.
Uchinchi mavqye kutish salonida
o‘ltirib,
aylanib,
mudrashar odamlar
cho‘zilgancha.
Qo‘zg‘olayotgan har qaysi poezd bilan aloqalari yo‘q.
Oysal:
yoshi noaniq.
Balki o‘n uch, balki yigirmadadir.
Jamalaksoch,
Oriq.
Najlo:
yoshi o‘n besh atrofida.
Qorachadan kelgan.
Burni qizil.
Afti yumaloq.
Insonni hayratga solgudek katta
yashil plash ostidagi mammalari.
Vadod:
O‘n sakkiz yosh.
Keng yag‘rinli,
olti o‘qli oq galstuk
va husnbuzar.
Vadod so‘zlar:

“ — Mislsizdir Bursa hammomlari.
Hamda “Farahfazo”.
Bog‘lar qo‘ynidagi otel.
Mushtariylar ozoda.
Uch papyol — bita tashrifing,
biri — xo‘jayinga.
Bultur olib keldim bir armani qizni,
armani millati ayyor bo‘lar,
o‘xshamaydi bizning turklarga...
ro‘zg‘orini o‘nglab oldi.
Sepini butladi.
Kofirlarning odati ma’lum-ku.
Hozir unashilgan”.
Oysal so‘radi:
“ — Senga qancha beramiz, Vadod?”
besh qog‘oz olaman,
muqobala narx.
Hozir payti, qizlar,
baxtingiz yurishsa
kuniga o‘n besh marta,
balki undan ham ko‘p...
Bir hisoblab ko‘r qanchalar bo‘lur?..
Bursa ko‘rib qo‘ysin haqiqiy molni.
Gazetlar
Istanbul qizlarining eng go‘zallari
Kadiko‘yda[1] deb yozilmagan bejiz”.

Ilk marta juda erta o‘rnidan turdi
bosmakash Umar.
“Chekishdan ol!” — dedi Rajabga.
Rajab tez o‘tib ketdi uning yonidan,
chekishga irg‘itdi qaytishda.
Umarning otasi mufti edi.
Uyida kahrabo tasbehlar,

[1] **Kadiko‘y** — Istanbul rayonlaridan.

ipak joynamozlar,
xattot Usmon bitgan
qizil hoshiyali qo‘lyozma
Qur’on nusxalari.

Lekin
na bir karvonsaroy,
na bir hammom,
na bir Hijoz temir yo‘li loyihasi.
Oq semiz kishi edi mufti afandi.
Umar kasalmand bir bola.
Arabcha o‘rgana bilmadi,
o‘rgana bilmadi forsiyni,
lekin Jannatgul ma’noning darvozasin ko‘rdi
kitoblarda;
Ahmadiya[1] kitobida —
bular Do‘lmabog‘cha[2] saroyi darvozasining
ayni o‘zi.

Uning suvratlarini chizdi.
Marshrutiyat[3]dan jindak avval
padari buzrukvori o‘tdi olamdan.
Mashrutiyatda joynamoz-u tasbehlarni ko‘tarib
har tomonga qochishdi xotinlari.
U payt yigirma yoshda edi Umar.
Sotib yedi Parizyonada
xattot Usmon Qur’onlarini.
Bolqon urushiga ketdi ko‘ngilli bo‘lib.
Birinchi jangdayoq ilinib qoldi.
Qaytgandan keyin
bosmakashlik qildi
Qalpoqchilar ko‘chasida.
Ahmadiya Firdavs darvozasidagi naqshlar
batist yuzasida
ochila boshladi.

[1] **Ahmadiya** — bezakli diniy kitob.
[2] **Do‘lmabog‘cha** — Turk sultonlarining Istanbuldagi saroyi.
[3] **Marshrutiyat** — yosh turklar inqilobi — 1908-yil burjua inqilobi.

Kitob o‘qib o‘tirar mahkum Xalil,
Tizzasi ustidagi kitob varaqlarini ochish uchun
juda katta bir ustalik bilan
ishlatadi zanjirli qo‘llarining barmoqlarini.
Kitob va qo‘l zanjirlari bilan
o‘n uch yildirki u birga,
bu beshinchi safari.
Ko‘z osti qovoqlarida chiziqlar.
Chakka sochlarida oq.
Xalil balki qaridi biroz.
Lekin kitob, kishan, yuragi o‘sha-o‘sha.
Endi
yuragi har qachongidan umidvor
Xalil o‘qir ekan kitobini
“Kishanim, — deb o‘ylaydi birdan, —
Sendan omoch yasaymiz kishanimning temiri ”.
Shunday go‘zal ediki bu fikri,
birdan alam qildi unga
o‘lchovli, o‘lchovsiz she’r yozolmasligi.

Qabza bekatida to‘xtab yana
yurib ketdi poyezd.
Baland temir ko‘prik ichidan kechdi.
O‘ngda zamin quyilib ketar
balki yuz,
balki yuz ellik quloch
va u yerda,
tubanda —
Eski Hisor qishlog‘i
va qal’asi
va tor, uzun yo‘lda ketayotgan ikki otliq,
zaytun daraxtlari va hatto bo‘m-bo‘sh dengiz
qutidan endigina chiqqan o‘yinchoqlarga o‘xshar
(shunday kichik)
va uzoq
va teranda bo‘lmaganligidan

va juda tez orqada qolmaganligidan —
— ana shu sababli —
bu bahor oydinligida
ajib ko‘rinardi.
Mahkum Fuod
ko‘rdi va hech qachon unutmayajak
huv pastda,
ikki chavandozi ila ko‘p uzoq
katta shahar tomon
to‘g‘ri ketgan yo‘lni.
Ko‘zlarida ilk martaba
Istanbul g‘oyib bo‘lgani uchun
Boshladi daf’atan o‘z uyidan so‘zlamakka:
“ — Dadam, — dedi, — manim dadam
bir ajoyib kishi bo‘lgan ekan,

Bahriya[1]da mansabdor.
Uyda birgina suvrati bor.
Ma’lumdirki, uzun fas ostida
ustarada olingan katta boshi,
So‘xtasi sovuq.
Buni qarangki, Marshruiyat bo‘lganda
sodiqlikka ont ichdim deya
nikohini yangilagan.[2]
Uch yildan so‘ng pensiyaga chiqdi.
Kulaksiz-da [3] boqqollik do‘konini ochdi.
So‘ngra 1338[4]da
Istanbulning ozod qilinish davrida,
oktabr oyida o‘ldi.
Murdasi shundoq yerda yotardi,
oshxonada yop-yolg‘iz.

[1] **Bahriya** — flot.

[2] 1908-yil yosh turklar inqilobidan keyin ham ba’zilar taxtdan haydalgan sultonga sodiq ekanliklarini bildirib, nikoh haqida yangi qonunni tan olmas edilar.

[3] Istanbul rayonlaridan; “shamolsiz” degan ma’noni bildiradi.

[4] 1922.

Bolalar ko‘chada marsh qilardilar.
Mahkum Sulaymon Fuodga tegishdi:
“ — Sening ijtimoiy chiqishing
sal noaniq ekan:
reaksion militarizm
va mayda hunarmandlik”.
Fuod so‘z bermay davom etdi:
“ — Hali ham ko‘z o‘ngimda otam.
Uzun sariq barmoqli bir odam.
“Quyon” magazini ustalaridan biri
(kemasozlik korxonasi).
Ko‘hna xattotlarga ishqiboz edi.
Yodida, hayit kunlari sahar payti eshitilardi
azon aytgan ovozi.
Jahli chiqdi, o‘qimay qo‘ydi
Arabchani taqiq qilishgandan so‘ng.
35 yoshda sil bo‘lib o‘ldi”
Sulaymon so‘radi:
“ — Onang-chi?”
“ — Meni tug‘gan-u o‘lgan.
Otamning ishxonasida ulg‘aydim
Uning asbob-uskunalar sandig‘ida .
Bu bir yashil sandiq edi.
Otam meni yotqizardi ichini bo‘shatib”.

510-nomerli uchinchi mavqe vagon.
Yo‘lak.
Yo‘lakda bir talaba yurar.

510-nomerli uchinchi mavqe vagon.
Ikkinchi bo‘lma,
sardin qutisi, limon,
oq pishloq, non va shishalar
Xotin,
erkak
ichmoqdalar.

Davlat operasi gastrolga ketayotir.
Sakkiz artist
va mashhur bastakor Mahmad Ali.
510-nomerli uchinchi mavqe vagon.
Birinchi bo‘lma,
Oppoq tishlarini ko‘rsatib kular
qo‘li zanjirli Fuod,
chunki qo‘li zanjirli Sulaymon
universitet talabasiga g‘ijinib qarar,
talaba eshik oynasidan Malohatga
boqqani uchun.
Qo‘li zanjirsiz Malohat,
nozik, qonsiz bilaklarining
erkinligidan mag‘rur
va qo‘llarini ishlatmak
imkoniyatidan xursand,
olma yemakda.
Talaba hamon qarab turar.
Sulaymon ovozini ko‘tardi baland.
Jandarm Haydar
haq berdi Sulaymonga,
eshik pardalarini tushirdi
va mahkumlarning dehqon jandarmlar-la
ahbobligi mana shunday boshlandi.
Qo‘li zanjirli Xalil
(Balki har nening farqiga borar,
balki yo‘q)
xira ko‘zlarini tizzasidagi kitobdan uzib
jandarm Haydarni savolga tutdi:
“ — Qishlog‘ingizda necha xonadon bor?”
“ — Ellikka yaqin”.
“ — Qo‘sh ho‘kiz ko‘pchilikda bormi?”
“ — Ikki xonadonda”.
“ — Nechanchisini ho‘kizi toqdir?”
“ — Toq ho‘kizligi o‘n besh xonadon chiqar...”
“ — Ho‘kizi bo‘lmaganlar?”

“ — Besh-olti xonadon”.
“ — Qolganlari demak...”
“ — Bir juftdan”.
“ — Senda-chi?”
“ — Menda-da qo‘sh ho‘kiz ”.
Sulaymon so‘radi yana:
“ — Bormidir yersizlar ham? ”
Chovush javob berdi:
“ — Bor, nega bo‘lmasin”.
Fuod suhbatga aralashdi.
Muhabbat ortdi
va inson do‘stligida shunday bir on bo‘ladiki
(Shubhadan va buyruqdan ustun),
dehqon jandarmlar
bir-birlariga boqdilar,
do‘rildoq ovozlari ila lazzatlanib,
safoli bir ish qilar kabi
mahkumlarni
qo‘l zanjirlaridan qildilar ozod.

Yo‘lak ...
Talaba kezinib yuribdi.
Beshinchi bo‘lmadan bir yo‘lchi otilib chiqdi yo‘lakka.
Bu, past bo‘yli, naqsh tikilgan shimli kishi —
pishillab,
terlagan shoshqinlik bilan ochdi
butun derazalarni
va so‘nggi darchadan tashqariga cho‘zilib
chuqur nafas oldi uch karra.
So‘ngra to‘piqlari ustida orasiga
o‘girildi kutilmaganda.
Manglayi tor va uzun, yonoqlari salqi va keng.
Kallasi bir haybatli nok singari
turar yelkalarida.
Jovdirigan g‘ilay ko‘zlari ko‘rdi talabani.
“ — Jonim begim, — deya so‘zlandi, —

bo‘g‘ilishimga sal qoldi.
Bizning bo‘lma ayiqlarga to‘la,
iflos,
ter,
sassiq,
darchalarni ochtirmaydilar ham ”.
Yaqinlashdi talabaga:
“ — Talabamisiz?
Ko‘rinib turibdi
kasketingizdagi bo‘ri suvratidan.
To‘g‘ri, ba’zi axloqsiz bolalar ham
shunday kasket kiyar emishlar,
eshitganmiz.
Shunday deyishadi.
Ko‘rmagandim o‘zim.
Bunday ishlar bilan aloqamiz yo‘q.
Magar, tajriba qilmadik, desam yolg‘on bo‘lur.
Inglizlar Istanbulga kelganlarida
to‘nsiz shotland bachchalarini...
Yolg‘iz eronliklarga to‘nkashar, bekor.
Inson degani har zavqni totib ko‘rgani yaxshi.
Yashamak
zavqlanmak demakdir.
Biroq puling bo‘lsa ekan, og‘ayni,
ishq-mishq, hayot-mayot,
Har narsaning ollohi puldir.
Qani anovi ayiqlarga tushuntirolsang.
Deraza ochtirmaydilar-ku,
Qarang,
sizga otalarcha nasihat:
har narsadan azizdir inson sihati,
sog‘liqni ehtiyot qiling,
nonushtada tuxum yuting, xo‘pmi?
Uyimda uch bolakayim bor.
Uch tuxum yutishadi har safar nonushtada.
Uyimda bir qoida o‘rnatganman:

haqoratli zafar-la boqdi,
Salimning kepatasiga engashib dedi:
“ — Qarang- a,
uradigan odam pastkash bo‘lmas emish”.
Gilam-xurjun sohibi davom etdi gapida:
“ — Bir posho bor,
eski posholardan.
Muxorabada
kofir-ingliz ustidan
g‘alaba qozongan bir o‘zi.
Hozir iste’foda,
tijorat qiladir va gazetchilik.
Dermishki yo nemislar-la birlashmak kerak,
Yoki yo‘l bermak kerak, kirsinlar.
Katta poshodir bu
va gazetachi.
Birinchi jahon urushida
mag‘lub etgan bir o‘zi
ingliz-kofirni.
Menga baqqollik do‘konini bergan Hoji Nuribey
tanirdi uni.
— Nemis endi Bolqonga na yunonni kiritar
va na inglizni.
Va lekin, xudoga shukurki, biz musulmonmiz,
odam sanaydi bizni.
Biz nemis ila ittifoq tuzib
otila bilsaydik inglizlarga,
bir kunda yetar edik Shomi Sharif shahriga”.
Qortollik Kozim,
yoxud Yoyolar qishloqlik,
yoxud istanbullik Kozim afandi,
(qirq besh yoshlarda,
bo‘riga o‘xshash odam)
Shokirga “bir chekib ko‘r-chi” dedi.
Sakaryalik Shokir
(qornidan o‘n paqirsuv chiqqan) —

tuz yoki tamaki bosar kabi
yaydoq yarasiga,
sigara chekar edi qimtib
lablarining orasiga.
Naqadar dahshat erur bu hasrat —
yumshoq karavotda o‘lmak armoni.
Buni sakaryalik Shokir bilgay faqat.
Qortollik Kozim,
bo‘lmaning taxtasiga qo‘ydi boshini.
Qisildi sariq bo‘ri ko‘zlari.
Vagon bilan barobar
u yon-bu yon sollanar boshi
va Shokirni kuzatar,
o‘ylar “Mamadcha, Mamadcha, Mamad...”
Va taqir-tuqur
to‘xtovsiz takrorlar taqirlagan g‘ildiraklar
(borgan sari tez-tez, borgan sari qattiq);
“Mamadcha, Mamad.
Mamadcha, Mamad”.
Urush yillari Mamadning yuzi,
simsiyoh to‘nkalarga uringan
qorong‘ilik ichra zo‘rg‘a
suringan kabi
bir uzun yo‘l ustida ko‘rinardi Kozimga.
Bu kunning rohat hissini tuymak
nechun bu qadar oson?
Kechmish falokatning xotiralari
nechun bu qadar og‘ir?
Pozantida strelkachi edi qortollik Kozim...
Uch o‘ttiz uchinchi yo‘l...
Kecha-kunduz sarhadlarga qo‘shinlar jo‘nar.
Qayerdan boshlanur, qaylarda tugar,
qayinlarni yondirar parvoz o‘txonasi.
Tutib ketgan temiryo‘l bo‘yin
kuygan o‘tinlar isi.
Askarlikning qo‘rquvsi.

ko‘ngillarin xush ayladi bu holat.
Mamadcha, Mamad,
Mamadcha, Mamad...
Tog‘dan-tog‘ga sakraydi kaklik,
agar yaralansa kaklik qanoti,
ucha olmas
bechoraga yo‘q madad.
Qo‘shinlarning markazi Salimiya qo‘rg‘oni,
istirohatdan qaytdi
g‘ij-g‘ij Mamad.
Badanida yarasi bitdi.
Bitdi unga bu — istirohat,
Jonidan to‘ydi Mamad,
Yuragida ochildi yarasi.
Xizmatning oxiri bo‘lgay-ku axir.
334 sanasi[1]
Hay, kuling ko‘kka sovrilgur
Salimiya qopqasi!..
Kazarma hovlisida
tuproqning yuzida
bitlar qaynab yotar.
Oyog‘ingda chars-chars ezarsan.
Mamaddan so‘rib olingan qon bilan kezarsan.
Bu qon bitni to‘ydirgan,
bu qora va o‘limtik qon.
Salimiya kazarasida Mamadning eti
terisi bilinmas, tuk bilan emas
bit bilan qoplangan tamom.
Hovlida ro‘yxat o‘qishardi,
Jang-jabhaga chaqirishardi,
Mamad qashinarkan o‘ngiga boqar,
javob qilmas,
chunki uzilgandir umidi,
Mamad qaysardir endi.

[1] 1334-hijriy yil ko‘zda tutilmoqda.

Etini ochlikka, bitta yedirib,
kuniga yuz Mamadning o‘ligi chiqar.
Bosh chovush ro‘yxat o‘qir saharga qadar,
ovozing boricha baqir,
baqir!
Mamadning bu eshikdan tirigi chiqmas,
ammo davlat Mamaddan kuchli.
Bir kun
ertalab yana bu yonda —
hovlida Mamad degani qum-qum,
balki o‘n ming,
balki undan ziyoda.
Bir daryokim, Mamad, Mamad,
qashingan bezabon,
inson ustiga inson...
yangi bosh chovush stol ustiga chiqdi,
uzun bo‘y,
qora mo‘y,
yaltiraydi kaskasi hamda ko‘ngli to‘q,
ro‘yxat o‘qir — javob olmasdan.
Bir soat, ikki soat,
Mamad qaysar, chovush ham qaysar.
Ikki soat, uch soat.
Javob qilgan Mamad yo‘q.
Toqati toq bo‘ldi chovushning.
So‘kindi “Ha, onangni, xotiningni...”
Mamad umidli hamda yakka esa tog‘larda,
qo‘rquvlik bo‘lgay,
o‘n ming umidsiz Mamadni
kazarmada so‘qmoq ham
o‘shanchalik qo‘rquvlik.
O‘zandi stol oyoqlariga Mamadning qo‘li.
Chovush qo‘qqisidan yerga yiqildi.
Mamad egilib ko‘tardi uni,
soldi.

Chovushning badanida

Qahvaxonasi ishlab tursa-da,

yopilar tezdan.

Chunki Basrining uch soatga
yana uyqisi qisqardi,
ajoyib qo‘rquv yana uning o‘rtog‘i —
o‘g‘lidan qo‘rqardi.

Burnini cho‘zdi Basri Shener,
tashqariga boqdi darchadan.
Ko‘z oldidan sur’at-la
o‘tayotgan simyog‘ochlarga qarab notinch
yuraklari siqildi birdan.
Sevmasdi ortiq
sur’at-la
chopayotgan narsalarni hech.
Vagonda Basrining qarshisida
nozikkina bukri kishi o‘tirar,
lekin bu nozik odam
jasorat ila ko‘tarib yurar bukrisini,
juda ingichka bilaklarining uchida
juda katta va suyakdor qo‘llari osilib turar.
Ko‘rinib turar cho‘qqaygan tizzasining o‘rni
lojuvard pantolonida.
Har holda, uning ko‘rinishi
qari qizlarga o‘xshaydi:
mahzun,

sevimli,

mo‘jaz.
“Fidokor avlod” romanida yozilganiday,
xasta, keksa otasiga qaramak uchun
turmushga chiqmagan.
Qalin, og‘ir qaboqlari ostida
ma’sum go‘dakning ko‘zlari,
bu ko‘zlar
yomonlikni o‘ylay olmaydi.
Faqat do‘rdoq lablariga o‘rog‘lik og‘iz

bir dahshatli so‘kish saqlash ichida besas.
Shundayin so‘kishim, tovushga aylanmagan,
aylana olmas.

Adabozorlik edi bukri Karim.
Urushda o‘lgandi duradgor otasi.
Muhoraba deganda Karimning xayolida
oppoq qordek yostiqda qora soqolli
murdaning yuzi,
Fahribey yerlarida kartoshka yiqqani,

g‘oz boqqani,

darslik kitoblari,
yana sochlari oltin kabi sariq
peshonasida chuqur tirishlari bilan
volidasi gavdalanar.
918-da Karim Eskishaharga ketdi,
maktabga, xolalari, tog‘alarining yoniga.
Tog‘asi temiryo‘lda mashinist edi.
Dushman qo‘lida edi Eskishahar.
Karim o‘n to‘rt yoshda edi.
Bukri emas edi,
tuppa-tuzuk edi nihol singari
va dunyoga g‘oyatda qiziqadigan bola edi.
Tog‘asi poyezd haydab yurgan kezlari
xolalari bermasdilar non
(juda uzun sochli ikta kampir).
Hind askarlari bilan do‘stlashdi Karim.
Ular
— g‘alati narsa —
turkchani bilishmas.
Soqollari qora,
qora ko‘zlari porloq.
Qo‘llarini usti jigarrang,
kaftlari esa oq.
Tikan simlar ustidan Karimga
otishardi bu amakilar

biskvit qutilarini,
katta bir omborlari bor edi.
Karim o‘sha yerda o‘ynar edi uzzukun.
Omborda no‘xat, loviya, mayiz
–solingan qoplar,
– g‘alati narsa —
hammasi xachirlar uchun, —
yana sandiqlarda o‘qlar,
miltiqlar.
Bir kun Karimga mashinist tog‘asi dedi:
“ — Ombordan miltiq o‘g‘irlab kel,
kofirlarga qarshi qo‘zg‘algan
zeybeklarga[1] yuborajakman”.
Ombordan miltiq o‘g‘irladi Karim,
bir marta,
yana bir marta,
besh,
o‘n.
Hindistonlik do‘stlarini aldadi u,
Zeybeklarni ko‘proq
sevgani uchun.
Shu orada qora soqolli amakilar ham
jo‘nab ketishdi.
Bekatgacha kuzatib bordi Karim.
Ertasi kun Lefka ko‘prigini portlatib,
zeybeklar Eskishaharga kirishi bilan
tog‘asi Karimni qo‘lidan tutib
ularga topshirdi.
Shu kundan to bu kunga qadar
jangovar qo‘shiqdir umri Karimning.
Eskishahardan olib ketdilar uni.
“Xo‘jaeli dastasi”[2] qo‘mondoni yoniga.
Qo‘mondon — baroq qosh, badqovoq edi.
Karim tez o‘rgandi otga minishni,

[1] Partizan
[2] O‘rmonning nomi.

cho‘pon bo‘lishni
(zotan bunga uquvi bor edi),
qoyalardan kichkina uloq kabi sarkashni,
o‘rmonda bekinishni
va butun farosati bilan Karim
necha bor bir o‘q otimicha o‘limga yaqinlashib,
“Nachora, o‘lgan o‘ldi” deganlarida
Dushman ichida o‘tib, shoshib-pishib
keltirardi xabar,
eltardi xabar.
Uni mashhur “karitan” kabi.
hurmatlashdi partizanlar,
birga o‘ynagan o‘rtoq kabi
Karim ham sevdi partizanlarni.
Nihol singari jasur, farhunda go‘dak
shodlanib o‘ynayotgan bu mudhish o‘yin
davom etdi 1337-yilga qadar...

Xo‘jaeli o‘rmoni — qarag‘ay va emanzordir,
yuksak,
qalin.
Ko‘k yuzi ko‘rinmaydi.
Sokin bir kecha edi.
Siyrak yomg‘ir yoqqan edi biroz avval.
Biroq nam bo‘lmagandi yerda yaproqlar,
shatirlatib,
zulmat qo‘ynidan borardi Karim oti.
So‘lda;
oldinda
tepa etagida yonardi gulxan:
“Tog‘orachilar” deb tanilgan
kofir partizanlar bo‘lishi mumkin.
Shohlardan tomchilar tushardi
Karimning yuziga.
Otning boshi zimziyo qoronqulik qo‘yniga
kirib borardi.

Daydi Rajabning yonidan qaytardi Karim
Qog‘ozlar keltirgan,
qog‘ozlar olib ketar.
Daf’atan to‘xtadi ot,
haykaldek qotdi:
tog‘orachilarning gulxanini ko‘rdimi —
yana birdan oyoqqa qalqdi.
Shoshib qoldi Karim.
Tizginni otdi.
Quchoqladi otning bo‘ynidan.
Telba kabi chopardi hayvon.
Tilar edi Karimni butalar, daraxtlar.
Qayinzor, emanzor, o‘rmon
o‘tardi ikki yonidan qora bo‘ron singari,
kim biladi necha soat o‘tdi shundayin.
O‘rmon tugadi birdan.
Oydin.
Karim ayni sur’ati ila ketarkan,
Armashaning pastida,
Boshtegirmon yonida
ot kutilmaganday qoqildi yerga,
dumiladi Karim.
O‘rnidan turdi.
Yodiga ilk kelgan narsa —
soatiga qaramoq bo‘ldi.
Oynasi singan edi.
Mindi otiga yana .
Oqsar edi jonivor.
Asta-sekin yo‘lga tushdilar.
Chap qulog‘i qonar edi Karimning.
Kirazjaga keldilar yetib
(Soponja va Orifiya orasi).
To‘xtadi Karim,
zo‘rg‘a nafas olardi.
Geyvagov keldi ertasi oqshom.
Beli shunday og‘rir ediki

tusholmadi otdan,
tushirdilar.
Karimni bir aravaga yotqizdilar.
Adabozori.
Keyin balki o‘n kun, balki o‘n besh kun,
aravalar, aravalar,
keyin, yana, yana og‘ir nafasi.
Yaxshixon,
Ko‘nya,
Sila nahiyasi.
(Bunda majruh harbiylar uchun
yog‘och qo‘l, yog‘och oyoq tayyorlashardi.)
nihoyat Hatjahon qishlog‘in
sinchi tabib — Hasan Usta.
Hali ham tushlarida ko‘radi Karim:
ingichka so‘qmoqdan eshakda kelib
qoshiga egilgan
bu cho‘tir kishining yuzini.
Tabab bemorni uqalab-uqalab bosdi,
hushdan ketgunga qadar.
So‘ngra mumga soldi bu singan novda kabi
bola gavdasini.
Yigirma kun o‘tdi oradan.
Keyin bir kun choshgoh paytida
mumning ichidan
Karimni bukri chiqardilar.

Karim istiqlol nishonini ola bilardi,
Ammo nishon yo‘q.
Karim bukursiz ham qola bilardi,
Ammo bukri bor.
Hozir 1941-yil,
vagon darchalaridan kirib kelarkan bahor,
Karim o‘ylanar...
“Balki bir oy o‘tmasdan
ismi sharifim qamoqxona daftariga tushar”.

Chunki ko‘p yillardan buyon
Karim telegraf ma’muri ,
180 lira pulni ishlatib qo‘ydi
olti oy burun.
Hatto, xasta, jon talashib yotgan do‘stiga
o‘sha pulni bergan bo‘lma ham
qamoqqa tushgay baribir —
davlat molini yegan...

Darinjaga yaqinlashmoqda poyezd.
Basri Shener
qarar Karimga.
Katta burni ostida qaychilaganmish
mo‘ylab ila kulimsab:
“Eh, dunyoyi qo‘tir” — deya o‘ylaydi —
“Eh, dunyoyi bukur,”
“Kim bilar, bu qanday rasvo odamdirki,
olloh uni bu holga solmish”.
Bukri Karim Basri Shenerga boqar:
“Qanday xushfe’l odam, — deya o‘ylaydi, —
qanday xushsurat odam,
balki ko‘pam azob bermasmidi,
shundayin bir hakimning qo‘liga tushsam”.

Ochildi bo‘lmaning eshigi,
chiqdi Nuri O‘zturk,
(yetimxona muxosibi)
tik turdi.
Tashqariga qarab baqirdi:
“ — Bu yerda bo‘sh joy bor.
Darcha ham ochiq.
Marhamat qiling, begim.
Har holda, o‘rtoqlar ham toza odailar”.
Talaba javob berdi yo‘lakdan:
“ — Siz o‘tiring,
men birozdan so‘ng kelarman ”.

Nuri O‘zturk
Karim bukriga boqdi
Angladi bukri Karim,
deraza yonidagi joyini bo‘shatdi.
Necha yildirkim odatlandi bu kishi,
ajib muomala qilar odamlar bilan.
Hech bir narsa talab qilmas kimadan,
talab qilganlarga berar borini.
Va pulni ishlatib qo‘ygan kunidan boshlab
dahshat-la
kattalashib borar
og‘zining ichida bir so‘kinish;
shundayin so‘kishim ovoz chiqarib aytib bo‘lmaydi,
iloji yo‘q.
Yo‘lak.
Mahkum Sulaymon yo‘lakka chiqdi
mahkum Malohat bilan birga.
Malohat bug‘doyrang juvon.
Uzun va nozik qushbo‘yin,
dudoqlari qirmizi, bebo‘yoq.
Faqat oyoqlari katta edi,
qo‘llari erkakcha.
Talaba yo‘l berdi, tabassum ila
Malohatga.

Malohat o‘tdi.
Sulaymon talabaga yuzlandi qo‘pol...
“ — Xonimni birovga o‘xshatdingizmi?”
“ — Yo‘q.
Lekin bir narsa...
Sizdan bir narsa so‘ramoqchi edim.
O‘rtoqlaringizdan biri, Xalilbey,
muharrir Xalilbey emasmi?”
“ — Ha, o‘sha, nima edi?
Taniysizmi Xalilni?
“ — Asarlaridan
va suratlaridan.

Jonivorlar aqlli,
egilib qarasam qochishar
yaralarimning ichiga qarab.
yetti kun, yetti kecha.
Olloh joningni olmasa-olmas ekan.
Turkning joni qattiq,
chidaydi.
Sirkachiga keldik sakkizinchi kun,
langar otdi kapitan, lekin,
"Bo'sh yer yo'q bu yerda", deya
qilmadilar bizlarni qabul.
Xufton vaqti yana langar tashlandi.
Kelib edik Haydarposho yoniga.
Tib maktabi kasalxona edi u paytlar,
ular mumkin dedilar.
Palubaga chiqdim men
bir dengizchi yelkasida —
biroz oqsardi.
Ammo temir kabi chayir edi bu laz bolasi.
Bismilloh deb boqdim to'rt tomon,
Istanbul porlab turardi.
Oh, jonim, Istanbulim.
Ishqilib, kasalxonaga joylashdim.
Devorlari oq,
elektr chiroqlar.
To'shama toshlar
terilgan tekis, toza,
zambilg'altaklar hozir...
Yotqizdilar meni zambilga — rohat.
"Xudo davlatga zavol bermasin,
duo qildim davlatni u payt..."

Tatar yuzli kishi ado qildi so'zini.
Peshonasi qatma-qat tirish,
Kichik, o'tkir iyaklarida
oq, siyrak tuklari.

Bo'ri ko'zlarini qisib kulmasdi qortollik Kozim.
Talaba
(suhbatni tinglagandi uzoqdan)
shoshqin bir alamli xayolga cho'mdi
va hayratga,
so'ngra bir g'amgusorlik ila o'ylandi.
"Ming afsuski, tez afu etgaylar..."
O'ylarini davom ettirdi:
"Bir navi baliq,
bir navi yog'och,
bir navi ma'dan kabi
mamlakatimizda bir navi insonlar borki...
hayotning ma'nosini bildiruvchi baho
va bir turli unutilmagan xotirasi:
urushdir.
Yana davom ettirdi fikrini:
"Bu jabhada o'limni kutganlar kabi
jasurmanmi men?
O'limini kutganlar va o'lganlarning bari
jasurmi edilar?
Bugun kutayotgan va o'layotganlar-chi?
Bu ishning jasorat ila
aloqasi bormi?
Bu xandaqlarda,
cho'pon qassobxona kundasi tomon
haydab kelgan qora mollarmi yo?
Yolg'iz badanlari ila emas, yo'q,
shuurlari ila tobe olomon?
Yo'qsa, yanglishmi o'ylaganlarim?
Shunday xandaqlar bormikan,
toki men u yerda
sevinch ila o'la bilayin.
Haq erurman bu zamon.
Va lekin kelgach u kun —
o'limdan avval, bir necha soat
qilurmanmi afsus-nadomat?" —

Talabaning fikri buzildi,
pattachi g‘avg‘o qilardi
tatar yuzli odam-la,
Sababini tushunmadi talaba.
Ko‘pdan pushaymon bo‘lganga o‘xshardi
bu tatar yuzli kishi.
Pattachi shunday mag‘rur o‘z g‘azabidan.
Nuri O‘zturk,
(yetimxona muxosibi)
yetgan edi bo‘lgan voqeaning tagiga,
butun ovozlarini bosib baqirdi:
“ — Afandilar, bas qiling,
Janob pattachi davlat ma’muri,
demak, haqoratlar davlatga tegar,
darhol akt tuzilsin”.
Pattachiga nimanidir ma’qullar, Kozim,
“Yaxshi, shunday bo‘la qolsin, Kozim og‘abey”, —
dedi pattachi.
Talaba kirdi
Nuri O‘zturkni uchinchi bo‘lmaga tortdi.
Janjal bosildi, ammo,
hech kimsa tushuntira olmas
nechuk davlatni haqorat qilganini
tatar yuzli kishiga.
510-nomerli uchinchi mavqe vagon,
Ayollar bo‘lmasi.
yetti yo‘lovchi.
Eng kattasi o‘ltirar
derazaning yonida.
Qora yeldirmasi ichida
suyaklari qolgan edi uning yolg‘iz.
Novcha, oq
va qoshsiz.
Etsiz yonoqlari,
katta burishiq og‘zi yopiq taqa-taq,
ochilmagan go‘yo hech qachon.

O‘ylardi rahmatli Sharif og‘aning bir xotini,
Ratib ila Yoqubni o‘ylardi.
O‘ylari og‘ir va erinchak, —
botqoqlikda shivirlagan qamishlar yanglig‘.
O‘z o‘g‘li etib Ratib.
O‘gay edi Yoqub.
Biri tuproqda,
biri qamoqda.
Yoqub o‘ldirdi Ratibni.
O‘ylardi rahmatli Sharif og‘aning xotini,
Shohanda xonim o‘ylardi.
Marhum o‘g‘liga kuymasdi,
umrida hech narsaga achinmadi zotan,
faqatgina bir marta,
popuk oyoq xo‘rozning o‘limidan boshqa.
Bu yorug‘ dunyoda hech kimsani sevmadi.
Oq, qonsiz vujudni
umrida bir kecha bo‘lsin,
muhabbatni sezmadi.
Kimsasiz, botayotgan kema singari,
qo‘rqinchni, tanholikni gavdasiga ortarak
kunlar sayin cho‘kardi.
Dushman edi Ratibga.
Dushman edi Yoqubga.
Ratibga dushman edi:
yelkalari qisqa va egik,
qo‘llari ayol qo‘llari kabi,
qon tommas qamchisidan,
insonlarni sevadi deya,
e’tirozsiz rozi bo‘lgani
va Sharif og‘azodalik unvonin
Yoqub-la bo‘lishib olgani uchun.
Yoqudga dushman edi:
Mauzeri, qamchisi, etiklari
mo‘ylablari bilan o‘xshagani uchun otasiga,
uni bo‘lak ayol tug‘gani

Yuzi ohak kabi oq.
O‘zi oq sariq.
Birdan aholi boshladi baqirmakka:
“ — Yo‘qolsin Ali Kamol!”
To‘xtadi.
Orqasiga boqdi
hukumat uyining darvozasiga,
balki qaytib kirmak uchun ichkari.
Lekin eshik og‘ir-og‘ir yopildi.
Gandiraklab o‘n qadamcha yurdi ilgari.
Baqirardi olomon.
Bir tosh uchib keldi orqadan,
boshiga tegdi,
Yana bir tosh, bu safar yuziga.
Sindi ko‘zoynagi.
mo‘ylabiga qon silqqanin ko‘rdi.
Kimdir “Urrrr!” deya hayqirdi.
Tosh,
yog‘och,
chirik meva yog‘ildi, ko‘klardan.
Muhofizlar tashlab qochdi Ali Kamolni.
Xaloyiq, qora bulut kabi tashlandi unga.
Ne qilsalar qildilar o‘sha yerda.
So‘ngra ochildi bir parcha oraliq,
Qarasam, yotardi yuztuban,
ishtonchang.
Yalang‘och badani shishgan, oq, momataloq.
Nafas olayotgan kabi tuyuldi menga.
Arqon bog‘ladilar so‘l oyog‘iga.
Esimdan chiqmaydi,
so‘l oyog‘ida na payoq, na botinka, na boshqa,
faqat o‘ng oyog‘ida osilgan paypog‘i.
Sudradilar murdani oyoqlaridan,
qiyalik tomon, boshini toshlarga urib,
chopar olomon.
Birdan uzildi arqon.

Bog‘landi yangisi.
Ibrat olarli hol.
Xalqning g‘azabi yomon.
Bir chidar, ikki chidar...
Xullas, shahrini
shunday kezdi Ali Kamol.
Keyin, boya aytganimdek,
osdilar ko‘prik yonidagi daraxtga
o‘ligini.
Keyin, o‘likni tushirdilar,
ko‘ylagimi, ishtonimi, ishqilib, bir narsasi
bir-ikki oy osilib turdi shoxlarda.
Undan keyin, ko‘p vaqtdan keyin
sotildi do‘konda uning soati, boshqasi...
Bittasini bilaman,
uning bir poy paypog‘ini
besh liraga sotib olgan —
xotira uchun”.
Tatar yuzli kishi so‘radi:
“ — Soati oltinmidi?”
“ — Oltin”.
“ — Yaxshi qilishmabdi,
Soat olgan ham,
paypoq olgan ham, yaxshi ish qilmabdi.
Xayrli deydilar, inonma.
Osilgan odamning moli bexayr.
Yaxshi qilmabdilar,
zotan izmitliklar ishi ham to‘g‘ri emas.
Odamning gunohi bo‘lsa,
davlat berar jazosini,
hukumat osar.
Odamning o‘zicha yerparchin qilmak, —
davlatni behurmat qilmak demakdir.
Men Chanoqqal’ada yaralanib
Haydarposho kasalxonasida yotgan paytim...”
Kuldi qortollik Kozim:

“ — Bunday bo‘lmagan, usta”.
“ — Nega?”
“Negaligin bilmayman-ku,
ammo bunday bo‘lmagan”.
O‘ylardi mashinist Olovuddin.
So‘ngra ma’yus kulimsiradi:
“ — Sen haqsan, Ismoil, to‘g‘ri,
bunday bo‘lmaydi.
Odam shunchaki o‘lmaydi.
O‘limni istamak uchun
bu kun bu dunyoda
shunday sabablar borki...
Insonlarni shunday mahv etadilarki,
vagon maydonchasi eshigining ochiq qolishiga
aqlim bovar qilmaydi”.
Ismoil faqat oxirini angladi
bu uzun jumlaning,
faqat oxirini ma’qulladi u:
“ — Aqlim bovar qilmaydi, usta...”
O‘likni aravaga ortdilar.
Bu ellik yoshlardagi bir kishi edi.
Mashinist Olovuddin
chiqdi lokomativga.
Ishorat qildi poyezd boshlig‘i.
Poyezd harakatga kirarkan,
510-nomerli vagonning beshinchi bo‘lmasida
gilam-xurjunning sohibi
o‘ng kelmagan tushining azobi bilan
qora soqol kalyonga o‘xshab
sigara chekardi.
Soat o‘n sakkizdan
o‘ttiz sakkiz kechardi...

IKKINCHI KITOB

Guldan nafis bo‘yli Arnavutko‘y qulupnayi,
Kovatokka o‘ralmish kabobi ila kelar.
Haydarposho bekatining
bufetiga bahor.
Shunga qaramay
Hasan Shavkat
bir tilim oq peyner bilan araq ichardi,
va soat
o‘n sakkizdan o‘ttiz sakkiz kechardi.
Shatranj nusxa dasturxonda
qo‘llari titrardi Hasan Shavkatning
ko‘zlari qadahida.
Xayolida Anatol Frans kitobin nomi:
“Lo krim lo Silvestr Bonar”
O‘ylardi:
“Tarjima qilmak kerak turkchaga”.
O‘ylardi:
“Tarjima qilinganmikin, ajabo?
Qay zamon?”
Bilmasdi:
taniqli adib bo‘lganidan buyon
turkchada o‘z yozmalaridan boshqasini
o‘qimay qo‘yganini.
“Silvestr Bonnarning jinoyati”.
Nomi ajoyib.
Jinoyati nima edi ammo?
Kimdir o‘zi Silvestr Bonnar?
U kitobda bo‘yi bosh barmoqday,
hatto bosh barmoqdan ham kichik
bir odam edi shekilli.

Silvestr Bonnar-la suhbatlasharmidi
sham yorug‘ida,
qo‘lyozmasi lotincha bir kitobning,
qizil charm muqovasi ustiga chiqarmidi-yey.
Yo bular boshqa romandagi mojarolarmidi?

Hasan Shavkat o‘ylanar
ko‘zlari qadahida:
“Bosh barmoq bo‘yli odam, ya’ni
biz ila sham yorug‘ida suhbat qurgan kishi
biz qadah-la yuzma-yuz qolgan paytimizdagi
vijdonimizdir ehtimol.
Sen, mening bosh barmoq bo‘yligim,
(xuddi men singari qumrol sochli va pakana)
tirpanib o‘tirdi osiltirib oyoqlarini
qadahimning qirg‘og‘iga.
Titramasa bu qadar qo‘llarim mening,
sanchqichimning uchi bilan turtib yuborsaydim,
qadahidagi araqqa cho‘kib bo‘g‘ilar edi.
Tishlari churuk,
ovozi g‘uldirar,
va tushida
onasining o‘ligin ko‘rgan singari
chirqirab so‘zlanar:
Hasan Shavkat, deydi u,
Hasan Shavkat,
sen o‘lgan odamsan endi,
nechuk bu holga tushding?
Seni kimlar bu holga soldi?
Qachondan beri bu ahvoldasan?
Holbuki qanday yo‘lni tanladi ba’zilari.
Endi ular eski bir xotira kabi sening
qo‘llaringni siqishar.
Nomussiz marhamal-la boqishar yuzingga.
Albat,
ular ko‘pdan unutdilar, Hasan Shavkat,

oq gvardiyachi va arman pansionlaridagi
yondirilgan zaytun yog‘i va siydik hidini.
Endi qara, qanday surlik va zafar ila
surkalishar xotinlarga.
Ular ko‘pdan unutdilar
yamoqli ishtonlarning qahrli uyatini.
Dunyo butun ne’matlari bilan ularniki endi.
Ortiq adabiy maqolachalar yozmakka majbur emaslar
litsey talabalari hamda yosh zobitlar uchun:
ikki liralik maqolacha,
ellik yoshida.

Ammo nechun, Hasan Shavkat?
Ammo nechun?
Sendan aqlliroqmi ular?
Yo‘q!
Bilimlari zo‘rmi?.Yo‘q!
Sendan ko‘ra ayyormidir,
sendan ko‘ra yolg‘onlari ozroqmi,
sendan ko‘ra ozroq sevadilarmi o‘zlarini?
Yo‘q, sendan ko‘ra ko‘p.
Hatto rassom Mahmud
besh ming lira oldi suvratiga.
Sendan ko‘ra tanbal, sendan ko‘ra sarxush.
Hasad qilursenmi?
Balki.
E’tirof et.
Hammasini birdan ko‘mishga shaysan,
bir kunda.
vabo qirib ketsa deysan daf’atan.
Holbuki sen o‘lajaksan ulardan avval.
Jigaringning yarmi chirib bitgan.
Bahor keldi, Hasan Shavkat,
Novdalarga nam yugurdi.
Qushlar uya qurdilar,
qushchalik ham bo‘lmading sen...

yettinchi qadahini
ayni o‘sha bir tilim oq peynir bilan ichardi.
Vokzal soatida
o‘n sakkizdan qirq sakkiz kechardi...

uxlardi Nuri Jamil
sap-sariq manglayining qoq o‘rtasida
qandala bilan uxlardi.
Tiq etgan tovush yo‘q vagonda.
Qon isiga o‘xshash bir narsa.
Qulflangan qassob do‘koniga o‘xshash manzara,
bir islangan go‘yo mamlakati — qizil duxobalar.
Uxlardi Nuri Jamil,
kichkina,
mushtdek bo‘lib uxlardi.
Bir do‘sti keldi Hasan Shavkat dasturxoniga,
qanday qilib, qay paytda tanishgani,
so‘ng daf’a qayerda suhbatlashgani,
hatto ismin eslab bo‘lmas do‘stlardan biri.
Hasan Shavkatning yodida
faqat bir narsa qolgandi undan:
loklangan tuflilarida boshmaldoqlarining mo‘ralagan
suyaklari...
Hasan Shavkatning do‘sti
Tushuntirardi:
“ — Men, olloh, deyman,
siz tabiat, deyavering.
Bir intiqom,
bir ma’naviy quvvat bor, begim beyim.
Oh-u fig‘ondan qurildi Ovrupo,
oh-u fig‘on birla yiqilur.
Ko‘z yoshga yo‘g‘rilgan ish
xayrli bo‘lmas.
Zolim otaning bolalari aybli tug‘ilur.
Masalan, bizning Iznik dara boylarining
bolalari zo‘rg‘a sudralib yurishar bugun.

Ba’zilarning puli-la birga
aqlini ham oldi olloh,
siz tabiat, deyavering.
Ali poshoning o‘g‘li:
yer-mulklari bor edi, beyim,
otda o‘n soatda o‘tilardi u boshidan bu boshiga.
Bursada hammomlari.
Ali posho hukmronlik qilgan
sakson qishloqqa.
Posholikni zo‘rlik bilan olgan deydilar Abdul
Hamiddan.
Bursada, ba’zi eski kabobchilarda
hali ham fotosuratlari bor:
yoqasiz kamzul,
ichi bo‘ri terisidan tikilgan po‘stin,
etiklar,
mahalliy usulda bichilgan shim,
galife emas faqat.
Dev kabi tayangan ov miltig‘iga,
odamni yeydigandek ko‘zlari chaqchayib turibdi.
Bu vajohat suratlarda qolgandir xolos.
Ali poshoning avlodi va nom
shon-shuhrati kabi yaqinda so‘nar,
Kichik qizi Mutorakada fohisha bo‘lgan edi,
yunon zobitlari bilan Beyo‘g‘lda tanishgan edi.
Avval aytganimdek,
bir o‘g‘li so‘ng qolgan mehmonxonasida
yashaydi hozir.
Bu mehmonxona qirq xonali
xarobazor, nuramakda har tarafi.
Bu xarobazorda boyqush kabi yakka-yolg‘iz,
esi oqqan,
butun vujudi titrar,
qo‘riqlar xuddi qo‘yxonani qo‘riqlaganday,
qo‘ni-qo‘shni bir burda non tashlamasa
ochidan o‘lar.

“ — O‘qimadim.”
“ — Bir nus’xa taqdim qilurmen sizga,
Ahmad poshoni tanisangiz kerak, albatta?”
Pivosining ko‘pgina ila mashg‘ul —
uch lenta, ikki yulduz, —
so‘zladi:
“ — Yo‘q, tanimayman, qaysi Ahmad posho bu?
Sinfimizda bir Ahmad Sivas bo‘lardi,
yuzboshiydi, halok bo‘ldi Bolqon urushida...”

O‘zini yo‘qotib qo‘ydi Burhon.
Kichrayib ketdi go‘yo yo‘g‘on gavdasi.
Kattakon burnini qashidi.
Bolalikdan shunday qilardi,
birov uchun uyalgan paytlarida.
Tahsinning qora mo‘ylabi kuldi:
“ — Bu Sivaslik posho
Qadimgi usmonlilardan bo‘lsa kerak, — dedi —
Yovuz davrida kimsan falonchi...”
Burhon tilga kirdi qo‘qqisidan:
“ — Qaysi yovuz davri, Tahsinbey?
Qonuniy Sulton Sulaymonning
eng jasur askarlaridan.
Devshirma emas, chapdast turk,
o‘zim kabi asl Sivaslik,
arslon kabi qo‘mondon”.

Uch lenta, ikki yulduz javob berdi betadbir,
ingichka tovushini yo‘g‘on qilib o‘tirmay:
“ — Tanimayman,
Harbiy tariximizda bunday zotning
uchratmadim otini”.
Uch lenta, ikki yulduzga qarab o‘yladi. Tahsin:
“Nechun barin hazilga yo‘yib,
chekina qolmas.
Askariy jasorati shuldir ehtimol?”

Lablarini qonatgudek so‘zlardi Burhon:
“ — Bugun bolalarga o‘qitilyapkan tarix singari emish
yangi harbiy tariximiz ham, poshom.
Fotihlari, Salimlari, Sulaymonlari bilan
inkor qilajakmiz barini.
Bolalarning xabari yo‘q
buyuk usmonlilar imperiyasidan.
Podshoh deyildimi, qo‘riqchi, deb o‘ylaydilar.
Menga shunday tuyularkim
yiqitmak mumkin qadar
yiqitdik,
haddan oshmaylik endi,
yetar ortiq.
Demokratiyada inglizlardan
ilgari ketishning hech keragi yo‘q,
an’ana qudratiga qarang, qanchalar.
Biz mavlud o‘qitishni unutdik.
Inqilob qildik biz, yetar.
Ozgina moziyga tayanaylik-da,
bolalarimizning tushlariga
shohona hayratlari-la kirsin
Yozuv Sulton Salim”.
Hayajonlandi uch lenta, ikki yulduz:
“ — Fikrlaringizga qo‘shilaman,
siz — haqsiz...”

Katta odam suhbatga kirdi:
“ — Muammo qolmadi, demak”.

O‘ylar edim Tahsin:
“O‘zga bir davrga kirmakdamiz,
charchadik”.
Yana cho‘kdi ichiga qadimiy hasrat.
Qoshiqladi kompotini.
Ko‘zlarini pirpiratib
narigi stolga boqar:
u yerda uch kishi:

Musyo Dyuval,
Joziba xonim,
Usmon Najib.
Uchovi ham Tahsinning og‘aynilari.
Usmon Najib katta ziyolilardan edi.
Tahsinning o‘ziga qarab turganin ko‘rdi.
Kulimsadi bilib-bilinmas.
Kerishgandek qo‘lini cho‘zdi,
ma’dan suvi shishsin oldi
Jozibaning oldidan
va beozor harakat ila
qadahiga qo‘ydi xonimning.
Usmon Nojib — qo‘l-oyog‘i uzun bir odam.
Har yerda, har qachon,
shaffof va teran, suv ichida
erinchak bir dengiz maxluqi kabi
mahovatli va og‘ir
qimirlardi u.
Ba’zan harakatlari shu qadar nazokatli va beozor
bo‘lardiki,
qarab tursangiz
go‘yo qonsiz, sovuq
irkanch bir narsa
o‘rlagandek bo‘lardi
badaningizga.
Bir narsa urgingiz kelardi
bu zotni odamdek qimirlatmak uchun.
Usmon Najib xizmatga kelgan kunlar
(kam kelardi, ozroq ishlardi)
tushardi ko‘lkasi xona ichiga
so‘ngaksiz va g‘amgin.
O‘z-o‘zini xonasiga qamab olardi.
Kresloga tashlab o‘zini
uzun oyoqlarini qo‘yar edi stolga.
Devorda imzoli fotosuratlar:
Gyoqalb,

Tal’at posho,
Otaturk va Inyonyu.
Najib
o‘tirgan yerida qimir etmasdan,
yarim ochiq ko‘zlari ila
termilardi devorga soatlarcha.
Ustozi edi Ziyo Gyoqalb.
Dyurkxaymning otini birinchi bor eshitdi undan.
Tal’at posho farmoni-la yordam oldi u
Maxfiy fonddan ilk bora.
Uni kutardi Mustafo Kamol.
Qo‘llaridan tutdi Inyonyu.
Usmon Nojib hurmat-izzat qildi ularni,
lekin ich-ichidan yomon ko‘rardi.
Gyoqalb Usmon Najibga ko‘ra vazmin,
Tal’at posho — Usmon Najibga ko‘ra johil,
Harakatchan edi Mustafo Kamol,
Inyonyu — og‘ir va o‘jar.
To‘rtovlon ham
(Usmon Najib shunday o‘ylardi)
buyuk jiddiyat ila nimagadir inonar,
kurashardilar.
Holbuki, u dunyoda hech bir narsa yo‘q
(Usmon Najib uchun)
butun jiddiyat ila
inonmakka,
qizg‘anmakka,
intilmakka
va kurashmakka.
Qah-qah urib kulmak,
faryod chekib yig‘lamak
(Usmon Najib nazarida)
bo‘sh va kulguli xoldir.
Qayg‘usiz,
zahmatsiz kelgan pullar,
osonlikcha kelib ketayotgan ayollar,

“ — Hikmat Alpersoyni so‘zlayotgan edingiz”.
“ — Shunday.
U haqda so‘zlanmagan narsa qolmadi.
G‘alabadan so‘ng Fransiya va Italiya bilan
hamkorlik qildi hikmat.”
Nihoyat Germaniyada to‘xtadi.
Anqaraga qurol sotildi yana.
Endi faqat na milliy qochoqlik,
na Vatanga xizmat.
Qonun doirasida
to‘ppa-to‘g‘ri
tijorat.
Hikmat chiroyli haydar avtomobilni.
Mo‘jaz kvartirasi Berlinda,
Parijda yashirin uchrashuvlar uchun
ijaraga olib qo‘ygan bir uychasi bor.
Hatto
Ovruponi aylantirdi o‘z “shevroli”da
Istanbul valiylaridan birini.
Goho-goho kadarli tolg‘inlik
sezsa-da garchi,
o‘sha jo‘mardlik-la
xarj qilar hamon
nash’ani, pulni.
Faqat, afsuski,
ikki yildir g‘irt bu xotinbozni
ilintirib bir yahudiy qiz.
Boshqa xotinni ko‘rmas endi
uning yashil ko‘zlari.”
“ — G‘alati.”
“ — G‘alati, to‘g‘ri,
Konserva fabrikasi haqida
gapirdimmi sizga?”
“ — Yo‘q”.
“ — Besh-olti yil avval
bir bulg‘or bilan

konserva fabrikasi ochdilar”.
“ — Nima bo‘ldi keyin?”
“ — Hech narsa...
Faqat bu kecha
o‘liklar bosmish bu vagonni”.
“ — Yana hazil boshladingiz, shekilli?”
“ — Gapimni bo‘lmang, o‘zim
ko‘rsataman sizga ularni”.
“ — Hikmat stolida o‘tirgan
o‘sha emasmi?”
“ — O‘sha.
Faqat stolda o‘tira olmas”.
“ — Bu ham o‘zini o‘zi o‘ldirganmi? ”
“ — Yo‘q,
doktorning fikricha, o‘zini o‘zi o‘ldirgan bo‘lsa-da,
menimcha, to‘ppa-to‘g‘ri o‘ldirilgan.”
“ — Xushbaxt kishisiz”.
“ — Minnatdorman.”
“ — Bu muntahir yoxud mahtul
yosh edimi, qari edimi?”
“ — Yosh edi.
Lekin mulohazanigiz to‘g‘ri,
buni bilish ko‘p kuch talab qiladi.
O‘liklarning yoshini oradan uzoq vaqt o‘tgach
aniqlash qiyin,
ayniqsa oyoqlari kesilgan bo‘lsa,
qovurg‘a suyaklari chalkashgan bo‘lsa yana,
yana pachoqlangan bo‘lsa boshi”.
“ — Baland bir joydan tushgan demak?”
“ — Shunday bo‘lgan.
Konserva fabrikasida ishlardi o‘lgan odam.
Hikmat Alpersoy
va bulg‘orning fabrikasida.
Ish haqi kunbay: yigirma besh qurush.
Ish muddati o‘n to‘rt soat”.
“ — Razolat.”

bu dunyoga yaqin
va boqar o‘z holicha
bu dunyodan uzoq
moviy oynalarda yomg‘irning yog‘ishiga.
Tomchilari arqon singari
yomg‘ir qamchilaydi oynalarni.
Dovulda qora bir poyezd olib ketmoqda odamlarni.

Garson Mustafo yengi bilan artdi stolni,
sariq muqovali daftar oldi qo‘ynidan,
ochdi birinchi sahifasini.
So‘radi bosh oshpaz Mahmud Asher:
“ — Bu qanday daftardir, jigarim?”
“ — Bu yerda bir doston, ustam”.
“ — Bunday narsalarga qiziqasan, o‘ylasam?”
“ — Shunday usta.”
“ — Men ham, jigar.
Kim yozgan buni?”
“ — Bir mahbus”.
“ — Tushunarli.
Turma dostonlarin sevaman men ham”.
“ — Bu unaqa emas”.
“ — Afsus.
Turma dostonlari otashin bo‘lar.
Zotan tovushning ham, sevgining ham otashin go‘zal.
U kuylar, sening rahming kelar.
Yurakda achchiqlik ta’mi
insonlik, ya’ni
jigar.
Achinarli gaplar yo‘qmi bunda?”
“ — Ham bor, ham yo‘q.
Bu — Go‘ro‘g‘li dostoniga o‘xshab ketar.”
“ — Bu ham yaxshi.
Qani, bismilloh,
boshla,
ko‘raylik...”

Tashqarida dovulning so‘nggi hamlasi.
Temir izlar va yomg‘irning sasini
uzoq-uzoqlarga olib ketar shamollar,
uzoq-uzoqlardan kelar bir nido.
Endi kechaning faqat sharqi tarafida emas,
qorong‘ilikning har tarafida chaqnardi chaqmoq
va vaqti-vaqti bilan tushardi yildirimlar.
Mustafo boshladi dostonni:
“Ularki tuproqda chumoli,
suvda baliq,
havoda qush kabi bisyor.
Qo‘rqoq,
jasur,
johil,
hokim
va go‘dak kabi beozor,
bor qilgan ham,
yo‘q qilgan ham ulardir,
dostonimizda yolg‘iz ularning
majarolari bordir.
Ularki, uchib xoinning ig‘vosiga
bayroqlarini qo‘ldan yerga tushirganlar,
dushmanni maydonda qo‘yib
uylariga qochganlar,
ularki,
bir necha murtadga xanjar o‘qtalurlar,
va yashil daraxtday kulayotgan
va bemavrud yig‘layotgan,
va onasini so‘kayotgan ulardir,
dostonimizda yolg‘iz ularning mojarolari bordir.
Temir,
ko‘mir,
shakar,
qizil ruh va gazlama — mahsulot,
sevgi, zulm va hayot,
jumlayi sanoat tarmoqlari,

osmoni,
sahrosi,
moviy okeani,
g‘amgin daryo irmoqlari
surilmish tuproqning,
shaharlarning baxti
bir sahar vaqti
chappa aylanar,
bir sahar vaqti,
qorong‘ulik qirg‘og‘idan
ular og‘ir qo‘llarini tuproqqa titrab
ro‘y-rost shaylanar.
Eng ilmiy oynalarda
eng rangin suvratlarni aks ettirarlar.
Asirmiz-da ular yengdi,
yengildi ular.
Ko‘p so‘zlar aytildi ularga doir
va ular uchun:
“zanjirlaridan boshqa
Yo‘qotajak narsalari yo‘qdir ularning.”

To‘xtadi Mustafo,
Mahmud shoshilib qoldi:
“ — G‘alati doston, — dedi, —
G‘alati doston yozmish mahbusing sening
Allaqanday narsalar hidi.
Faqat, jigar, sening sasing-da otashin
ham ohanglidir,
tegar yurakka aniq.
Tamommi?”
“ — Bu boshi hali.”
“ — Muqaddima, degin — bu,
Ko‘rajakmiz davomin.”
Mustafo davom etdi:
“ — Yil 918 va 19
va hikoyati Qora Ilon.”

Mahmud so‘radi:
“ — Hikoyaning nomimi bu?”
“ — Ha,
o‘qiyman.”
“ — Boshla, ko‘ramiz.”
“ — Otash-u xiyonatni ko‘rdik,
beomon ko‘zlarimiz ila turdik
bu dunyoning uzorinda.
Istanbul 918 ning sunbulasida,
Izmir 919 ning javzosida
va Manisa, Menemen, Oydin, Oqhisor,
javzoning o‘rtasidan
saratonning o‘rtasi qalar
(ya’ni tamaki terimi mavsumi),
ya’ni arpa shishib, bug‘doy yetilgan zamon
yumaladilar.
Adana,
Antepa,
Urfa,
Marash,
tamom, ammo solishardilar hamon.
.....
.....
Antepliklar mergan bo‘lur.
Uchayotgan turnaning ko‘zidan,
qochayotgan quyonning oyog‘idan urishar.
Arab baytalining ustida
toza, zangor sarv kabi
inja, uzun turishar.

Antep issiq,
Antep keskin makondir.
Antepliklar mergan bo‘lur.
Antepliklar mardi maydondir.
Qora Ilon
Qora Ilon bo‘lmasdan avval

eshitganing bir afsonadir.”
Mahmud Asher xafalandi bu e’tirozdan:
“ — Jigar, afsonami bu?
Bekor gap!
Dostondir bu eshitmadingmi?
Go‘ro‘g‘li ham yo‘qdir, seningcha?
Tohir va Zuhralar yolg‘on?
Tanimayman dedimmi arxovalik Ismoilni,
tanimayman,
lekin yigirma yildir ko‘rishmadik biz.
O‘lib ketdi rahmatlik,
afsus,
mard bola edi”.
Tindi Mahmud Asher.
Vagon-restoranda o‘tirganlar tomon,
oyna bo‘lmaning orqasidagilarga
g‘azab-la boqardi Mustafo garson.
Bo‘g‘izga tiqilardi qahri.
Yana so‘zladi Mahmud Asher
go‘yo o‘z-o‘ziga so‘zlagan kabi.
“ — Sen haqsan,
bir hikoyat bo‘lib qoldi
arxovalik Ismoil.
Hikoyat bo‘ldi eski zamonlar bizga,
u kunlar o‘zgadir, bu kunlar o‘zga.
U kunlarning odamlari, jigar, o‘zgadir,
o‘zgadir, jigarim,
bugungi mardum.
Menga qara, Mustafo,
Urushlar haqida ham yozilganmi dostonda? ”
“ — Albatta, yozilgan.”
“ — Inyonyu janglari ham yozilganmi?”
“ — Ha”.
“ — Men bo‘lgandim u yerda...
so‘ngra u jangni Birinchi Inyonyu dedilar.”
Garson Mustafo hayrat-la so‘radi:

“ — Sen ham urushgansan demak?”
“ — Urushganmiz, albatta.
Inyonyu jangohi, jigar,
shamol,
sovuqlar insonni ariday chaqardi.
Havo ilidi biroz so‘ngra,
ammo oldimizda turar edi qish.
Besh kecha-yu besh kunduz jang ketdi.
Axiyrida
kofirlar qor ustida
zambarak,
sandiqlar to‘la konyak,
olti yuk mashinasini
tashlab ketdilar.
So‘ngra qocharkanlar, jigarim,
(qochgan bizmi, ularmi, bilib bo‘lmasdi)
faqat ular qocharkanlar
qishloqlarni, ko‘priklarni yoqdilar.”

Bosh oshpaz Mahmud Asher —
inqilobchi, ya’ni oshxonachilikning
neo-klassik tipi
tuyqusdan Mustafoning ko‘ziga
mutlaqo o‘zga inson bo‘lib ko‘rindi,
burnining bichimiga qadar hattoki,
G‘oyib bo‘ldi oq qalpog‘i ham.
So‘rdi Mustafodan Metrdotel:
“ — Kimdan olding bu yozuvlarni?”
“ — Akamdan”.
“ — Bu she’rlarni yozgan mahbusni
akang taniydimi?”
“ — O‘rtog‘idir.
Menimcha bir kuni ziyorat qilgani
borgansan uni, to‘g‘rimi?”
“ — Kimni? Turmadagi shoirnimi?”
“ — Ha-da”.

“ — *Jigarim, Mustafo,* — *dedi bosh oshpaz Mahmud*
Asher, — charchading,
qolganini keyin o‘qiymiz.”
Mustafo soldi cho‘ntagiga sariq daftarin.
22 dan 36 daqiqa — soatda.
Katta odam
stoldan turdi.
Yonidagilar ham turdilar.
“ — Men yotishga ketaman, ruxsatingiz bilan,
sizlar bezovta bo‘lmanglar”.
O‘yladi Tahsin (deputat — doktor):
“Shunday tek uxlarmi tafakkur?”
22 dan 36 daqiqa o‘tardi — soatda.
Musyo Dyuval so‘zlardi Joziba xonimga:
“ — Sizning dehqonlaringizdan mamnunman,
sabr-toqatli insonlar.
Savdogarlaringiz ham yomon emas,
amaldorlaringiz zararsiz,
lekin yoqtirmayman fabrikantlaringizni.
Sizga hammasidan ko‘ra ziroat lozim.
So‘ngra davlatchilik to‘g‘ri kelmas
Soat 22 dan 36 daqiqa o‘tar edi.
Izmirlik savdogarlardan
Emin Ulvi Ajiqalining
xayolida
yuz ming sandiq uzum
va anjirning hisobi bor.
Qosim Ahmedov kirdi
va ta’mi mandarin tilimiga o‘xshagan qizning
titradi dudoqlari.
Hikmat Alpersoy:
“ — 350 000”, — deya bitirdi so‘zini.
Mardanapal:
“ — 400 000 ga ko‘tar, yana bir masala bor,”
deya boshladi gapni.
Prokuror muovini Fahim:

“ — Mardanapaldan 500 lira
qarz ko‘taraman”,
deya o‘yladi.
Vaqt 22 dan 36 o‘tmakda.
Onado‘li tezyurar poyezdining
birinchi mavqe tanburida
bir yigit turardi.
Tib fakultetida talaba edi.
Ilgari bir qishloq boyi edi otasi,
sohibi bo‘lgandi so‘ng o‘n besh yil ichida
uch amlokning
va ikki sholi tozalash fabrikasining.
Turardi ma’yusona tanburda
tib talabasi.
Oltoy tog‘larini o‘ylardi.
Bu tog‘larga u
qilich yalang‘ochlab,
boshlarida temir niqobi,
yetti tug‘ ko‘targan chavandozlar-la
ketmak niyatida yashardi.
Endi yuragida alam,
tinchgina ketayotgan bir poyezdning yo‘lovchilaridan
biridir.
Holbuki
naqadar go‘zal ayollar minar
poyezdlarga axir.
Vaqt 22 dan 36 o‘tardi.
Onado‘li tezyurar poezdida
ikki ayol suhbatlashar
ikkinchi mavqening
bo‘lmalarin birida...
Ellik yoshlarda ular.
Ellik yil qo‘l bilan tutsa bo‘lar darajada aniq
ko‘rinar ikkisining yuzidan.
Chap tomondagi professor xotini edi.
Keng uzun yuzi yig‘idan qizargan,

shlapasi yechilgan,
qarimsiq qo‘llari ila oq sochli chakkasini
ushlab turardi.
Tinmasdan so‘zlardi o‘ngdagi ayol:
“ — Eringning zulmini ko‘tarding o‘rtoqjon,
bo‘yi bo‘yingga teng keladigan ikki farzand o‘stirding,
ajralasan ne uchun endi?
Seni boqishga majburdir u.
Boqsin.
Endi birov bilan ushlab olsang-da,
ajralishaman deya o‘ylama.
Ajrashsang joni kiradi.
Eringning bir sharmandasin chiqar, ammo,
keyin mayli qayt, kayfingni sur, rohatingni
qil”.
Vaqt 22 dan 36 o‘tardi.
Ayni bo‘lmadan — Ne’matxonim.
Yosh bir ayol.
Vakolat ma’murasi.
Go‘zal emas,
boshqacha:
ilvizi issiq.
Go‘zal bo‘lmaganidan go‘zal.
Yaqinlari uni “jonim”, deydilar.
Bir maktub o‘qirdi.
Uzoqdagi bir kishiga yozlgandir bu maktub,
Anqaradan tashlar pochtaga,
balki tashlamas,
yo‘q, tashlaydi, albat.
Shunday boshlanur maktub:
“O‘rxon,
senga kecha yomon maktub yozayotgan edim,
voz kechdim.
Ammo endi nimaga aytayotirman buni?
Kim bilar?
Ayolligimga bordim.

Holbuki, men u xatni yozolsaydim so‘ngiga qadar,
sen g‘oyat xafa bo‘lgan,
sevingan,
olovlangan
falon-falon
bo‘larding.
Shuni senga ochiq aytib qo‘yay:
Seni istadim kecha,
kecha juda sog‘indim seni.
Butun kirdikoringga qaramasdan,
xo‘rozim, seni xohladim.
Bunday jismoniy ochlik menda yo‘q edi.
Bir balo bo‘lib keldi-yu ketdi.
Ammo necha bora
aminmanki ko‘p marta
bu balo doimo sen yonimda yo‘qligingda
kelaveradi.
Bunday jismoniy ochlik menda yo‘q edi.
Yo‘l qo‘ymayman bunday bir narsani boshlashga.
Bu bo‘lmasligi kerak, sevgilim.
Ongim tanimni yengmagi lozim.
Ammo insonda shunday sirli
bir on bo‘lurki,
aqlsiz
vujud ila qoladi inson.
Yolg‘iz bir xohish qolar bu zamon.
Ammo har qanday erkakka oid deb o‘ylama.
Yo‘q, hali unchalikka bormadim.
Men seni xohladim, xolos.
Ammo bunaqangi istaklar
na-da achinmakka loyiq,
na-da qo‘rqinchli,
shunchaki yolg‘izlikka xos ojizona bir
narsa.
Kulgili emas faqat.
Qo‘rqamanki, shundan boshlanur.

So‘l orqa tomon g‘ildirak teshilganga o‘xshaydimi?
Tushib
Ko‘rib boqay-chi...

Yemish pristanidan
qashshoqqina bir katerga o‘tirib
to‘g‘ri Ayyubga —
niyat qudug‘i tomon keldik.
Qo‘llari to‘la-to‘la,
oyoqlari biroz qiyshiq edi ammo,
yashil zaytun donasi kabi ko‘zlar.
Qoshlari hilol kabi edi.
Yaqinlashdik Qosimposhoga, oq ro‘moli boshida...
G‘ildirak puchayib bormoqda.
Dardiga davo topmasak agar...
Shoshma, Bobo Ja’far, ko‘rish kerak.

Uch nomerli gruzovik to‘xtadi.
Qorong‘ilik.
Domkrat.
Nasos.
Qo‘llar.
Kufurdan va kufur so‘z aytganidan qizishgan qo‘llari
ballon va eski g‘ildirakda ishlarkan
Ahmad xotirladi:
bir kecha falaj buvisini
so‘ridan so‘riga ko‘tarib o‘tkazarkan
sho‘rlik kampir...
Kamera paq etib yorildi.
Boshqasi?
Yo‘q.
Tog‘lar ora dod solib hayqirib
imdod tilamak bekor.

“Sen Sulaymoniyaliksan, o‘g‘lim,
sening yolg‘iz boshingga berilgandir

uch nomerli gruzovik.
Qayda, sening bir qo‘ying bor edi,
o‘z oyog‘idan osilgan qo‘ying.
Sulaymoniyalik shofyor Ahmad,
yechin...

yechindi.
Mayka, shim to‘n, ko‘ylak, qalpoq
va qirmizi qoshoq
Ahmadni botinkada qip-yalang‘och qoldirib
kameraning ichiga kirdilar va uni shishirdilar....
.....
.....
.....
.....
Bu — maqomi nahovanddir.
Dengiz sohilida bir shahar,
boshida oq ro‘moli.
Soatiga ellik chaqirim.
To‘xta, umrimning egovi,
to‘xta, toki onadan tug‘ilgan kabi yalang‘och Ahmadni
tomosha qilsin tog‘lar,
to‘xta, arslon...
Hech qachon
bunday marhamatli bir umid-la sevmadi
hech bir inson
hech bir. Mazza qilib kuldi bosh oshpaz Mahmud Asher:
“ — Pardon shofyor Ahmadga,
jigar, — dedi, —

ochiq gap pardon.
Epchil xalqdir istanbulliklar,
yigitmisan, yigit-da, jigar.
Hozir shofyor Ahmad qayda, kim bilar?
Balki shofyorlik qilar Anqarada,
munitsipalitet avtobuslarida,
yoxud Mudanyo — Bursa yo‘lida kezar.

— buni ko‘rib uning hafsalasi pir bo‘ldi,
— aftini burishtirib kesatganday ming‘illab qo‘ydi:
“ — Tashakkur, Kozim afandi, qornim to‘q.”
Kuldi sariq bo‘ri ko‘zlari qortollik Kozimning,
har holda ko‘p kulgu shu taxlit
Nasriddin Afandining ham ko‘zlari,
bug‘doy palovini qaytarib yubordi Kozim.
Qovurilgan et, shakarob,
holvaytar keltirdilar
va ikki shisha qirq to‘qqizlik.
Uyatchan, lekin jasur,
barcha hujumlarga hozir
yeya boshlarkan Sulaymon,
asta so‘z boshladi qortollik Kozim:
“ — Qishloqilar bug‘doy palovi yoydilar, bilasiz,
siz ham kamina qishloqi uchun
jon kuydirganingizdan...”
Sulaymon kesdi so‘zini Kozimning:
“ — Haqsan, Kozim afandi, — dedi, —
ammo men ham haqman,
qovurilgan go‘sht
bug‘doypalovdan yaxshi.
Lekin istasang uni ham kel
tushiramiz holvadan avval...”
Va shunday qildi Sulaymon,
lekin qutqarmadi uni bu ish hech qachon
shu kundan boshlab —
“bug‘doypalov Sulaymon” degan laqabdan.
Butun o‘rtoqlari bilardi
bug‘doypalov hikoyasini,
qortollik Kozim takrorladi:
“ — Obbo Sulaymon-ye!
— Obbo bug‘doy palovi-e”
Indamadi Sulaymon.
Poyezd derazasidan tupurdi kechaning qo‘yniga,
so‘ngra yegtlib gapirdi pastda

poyezd bilan yonma-yon ketayotgan allakimga
so‘zlagan kabi:
“ — Olloh ila oramiz qanday, hamqishloq?”
Kozim javob berdi ensasi qotib:
“ — O‘zing bilgandek.”
Ters gapirganidan mamnun bo‘ldi Sulaymon.
Kozim davom etdi:
“ — Ollohsiz yashay olur inson,
ammo yashashi mumkin olloh bilan ham.
Menikida o‘xshagan bo‘lsa —
suvga sobunga tegmagan aslo
siyosatga suqilmagan bir olloh.
Tumor kabi bir narsa, Sulaymon,
rahmatli otamni xotirlaganday bir gap.”
Sulaymon kuldi:
“ — Ko‘rinib turibdiki,
bu narsa ustida ko‘p o‘ylagansan
ayyor dehqon bo‘lsang ham qochgani
eshik topolmaysan.”

Javob bermadi Kozim.
Qancha gap bo‘lmasin,
inonardi ollohga,
bulg‘orlarga g‘anim edi u.
Shu qadarki
darhol arazlardi dunyodan,
keyin esa topar edi tasalli:
“Axir Bolqon urushida bu millatning homilador
Xotinlarga
qilgan ishlari g‘irt ablahlik edi-ku”, deyarak.
Oyoq tovushi keldi.
Kozim va Sulaymon o‘grilib qarashdi.
Yo‘lakka chiqqandi sakaryalik Shokir.
Eshiklarga urila-urila,
ilpisang oyoqlari ustida
suv to‘la qornini ko‘tarib
yaqinlas

Ayolning sezgirligiga tan berishdi kursantlar:
Kim biladi bu yog‘i nima bo‘lishini,
axir ofitserlar ham hayiqib o‘tishar
Markaz qo‘mondoni Temir Alidan.

VIII

Haydarposhodan 15.45 da jo‘nagan poyezd
kirdi beshovqingina Anqara vokzaliga.
Soat sakkizdan chorak o‘tardi.
(Kechki besh daqiqa.)
Anqara vokzalida bahor:
stansiya polisida pinhona bir tashvish orttirib,
uchinchi mavqe kutish salonida
qishloqlardan kelgan quruvchi ishchilari bilan
va bufetida semiz ohuga o‘xshagan Istanbul hasrati
bilan kelar.

Anqara vokzali tozadir,
tinchdir
va yap-yangidir.
Biroq marmarlarining yarqirashiga qaramay
tushunilishi g‘oyat qiyin (yoxud g‘oyat oson)
bir narsa bordir shamolida,
baqirish, yugurish
baland ovoz bilan kulish man etilgan
Anqara vokzalida.

Hattoki,
jo‘nay olgan poyezdlar
hayqirgan zamon
g‘aflatda turgan inson
cho‘chib tushar,
boshqa bir dunyoning nidosini eshitganday.
Mahkumlar tushdilar poyezddan
tugunlar va jandarmlar-la.
Kishanlar osilgandi yana.
Borishardi o‘zlariga qiziqish uyg‘otmasdan
(yoxud uyg‘ongan qiziqishlarga befarq).

Faqat bir ayol bir ayolga:
“–bular nemis josusi”, — dedi —
(oq sariq edi Sulaymon).
Mahkumlar yo‘lga tushdi
jandarma markaziga qarab
(u yerda almashuv vagonlarin kutishlari kerak).
Bir qishloqi hammol tashirdi tugunlarini.

Kimsasiz edi ko‘chalar:
balki ertadir,
balki kech,
balki harakat boshlanmagan paytdir,
balki devorlarning ortiga
chekilgandir hayot.
qabat-qabat,
marmar,
beton
va asfalt.

Va haykal,
va haykal,
va haykal,
inson yo‘q faqat.
Keyin sahro:
hech kutmaganda,
hech narsa qaramay
shahar ichiga qadar kirib borgan
va yana darhol
tuproqning so‘ngsizligi...
“— Sulaymon, — dedi mahkum Xalil, —
shahar va sahroning kurashiga boq.”
“— Ko‘rib turibman,
hanuz oyoq tirab tursa-da
yengilmoqda sahro.”
To‘xtadi chilangar mahkum Fuod,
ingichka mo‘ylabin siladi kishanining temiri bilan,
dastgohiga boqqan kabi shaharga boqdi.

Mustafo shapkasini bostirib kiyib
boqardi bulutlar aro uchayotgan kalxatga.
Yirtqich maxluq
qanotlarini kergan,
sassiz, sadosiz,
qog‘ozdan yasalganday
bulutlar ichida suzardi silliq.
Osmonlarda ovlanmas qush bo‘lsang, qani...
Quduq boshida terak.
Quduqning toshiga o‘tirdi Nigor.
Peshbandning tagidagi qorni
xoin va yumshoq edi.
Chaqaloq chiqardi yo‘rgagidan mashtchalarini.
Yo‘rgakda qator tugmalar,
ikki qator,
o‘n ikkitadan yigirma to‘rtta.
Bir donasi shishadan.
Egilsa ustiga
ichida aksini bir olma qurti kabi ko‘rar odam.
Vaqt peshin payti.
Chirildoqlar va so‘zanaklar bo‘zqirda
hali bitirmadilar
o‘z qo‘shiqlarini.
Bir tulki o‘tdi yo‘lning chetidan,
cho‘ponlarning orasida g‘oyib bo‘lmasdan avval
qayrilib qaradi quduqning toshida o‘tirganlarga.
Go‘dek zildek tuyuldi Nigorga,
erining urug‘i.
Va Mustafo der ediki:
“Qishloqda ozmuncha go‘daklar
o‘lyaptimi?
O‘lik sanalmas
olti oylik o‘lik”.
Yirtqichdir kalxat.
Tulki ayyor.
Quduq chuqur.

Bo‘zqir so‘ngsiz
va qizil qalampir singari achchiq.
Kuladi shisha tugmaning ichinda bir mittigina terak.
Nigorning quchog‘idan
go‘dak tushdi quduqqa.
Yo‘lchi yurmagi kerak,
go‘dak shirin uyquda...
Tinchgina yolg‘iz go‘dak emasdi.
Mustafo bilan Nigor
go‘dak kabi tinchgina
uxlar edilar mahbusxonada.
Qal’ada jandarmlar yurishar
keyinga, oldinga.
Tinmay eshitilar hushtaklar ovozi.
Yulduzlar ko‘rinur bulutlarning ortidan.
Mahbusxona chashmasi hovlida tanho
yon tomonga oqar, yon tomonga.
“Mahbuslik hech gap emas,
o‘rtada lekin ayriliq bor-da...”
Oltinchi kamerada o‘n to‘rt kishi edilar.
Mustafo eshikning tagida,
ko‘zlari yumuqdi
og‘zi ochiq,
qo‘lini qo‘shiq aytar kabi tayamish yoniga.
Hammomda badanidan kir chiqargandek
chiqarardi turmada hordig‘ini.
Uyqusi baxtiyor,
mamnun edi hayotdan.
Musofirning chap yonida — Hamza.
Hamza bir parcha to‘shagida o‘tirar
kichkina bo‘lib chordona qurib.
“Ot, — dedi Hamzaga xo‘jayin Nuribey, —
(Hamza uning yerida mardikorlik qilgan edi)
Durzodalarning cho‘ponini ot.”
Nuribey jandarma chovushi bilan
o‘tirgan joyidan turmay gaplashar.

Lekin shunday bashang kiyingan,
bir qator qo‘yilgan kursidagi raislar
juda yoqib ketdi,
zavqlanib, baqirdim...”
“ — Gulga o‘xshar inson bolasi,
so‘laverar bir daqiqada...”
Yolg‘iz yigirma to‘rtlik Umar sukutda,
chordona qurib o‘tirar,
tizzasiga urar mushtini,
borib-kelar mushtumining ichida yog‘och huqqasiga,
qisgan ko‘zlarini,
boqar qarshisida turganning yuziga
va o‘ylanar:
“Yana yoz keldi.
Odam qabul qilar butazor osti...”
Xalil tashqari boqdi derazadan.
Ko‘rinar temir darboza.
Kiyimlarin, ashyolarin tekshirarlar,
kirar ko‘rishuvchilar.
Qarshi yo‘ldan kechgan bozorchining ayg‘iri
kishnab qo‘ydi g‘alati.
Havoni hidladi Xalil:
Bo‘zqir iqlimda shamol birdan ko‘tarilar
va tez bo‘ronga aylanar.
Bu safar ham shunday bo‘ldi:
iliq o‘t islari keldi avvalo,
go‘yo pastda yonda somon g‘arami.
Politsiya uchastkasi tomida to‘lqinlandi bayroq.
Teraklar yirtirab-yiltirab egildilar.
Havo qon kabi iliq.
Bir go‘dak qahqahasi,
bir qiyqiriq
va orasidan to‘s-to‘zon.
Quyoshga boqdi Xalil.
U uzoqlarda
yumaloq, qizil

to‘s-to‘zon ortida yuksalgancha turardi bug‘lanib.
Xalil derazani yopdi,
yumdi ko‘zlarin.
Boshining ichida quyosh:
olovdan iborat shunday bir og‘irlikki,
uch marta, milion marta, ikki ming milion tonna,
na yaxshi,
na yomon,
na go‘zal,
na xunuk,
na haqli,
na haqsiz

bir muazzam
cheksiz-chegarasiz hayot,
har bir kub metrda 100 000 ot quvvatli toqat,
na kecha,
na kunduz,
na umid,
na evoh,
na pastu,
na yuqori,

soatiga yuz ming kilometr esgan
oq gaz
qasirg‘alari,

atomlar ion holida,
takroran o‘lishida,
takroran tug‘ilishida,
takroran kamolga yetishida

va shaylanishlar-la,
otilishlar-la,
muqaddimasiz, xotimasiz, menga bog‘liq bo‘lmagan,
mendan avval ham bo‘lib
mendan keyin ham bo‘lgan...
.....
.....
.....

“ — Shoshib qolibsizlar-da, demak,
afandi og‘a!”
“ — Shoshilib qoldik, to‘g‘risi, Ehsonbey...
Xullas, ertasi kun aslahaxonaga ketdik,
u yerda o‘ldirildi bir zobit.
Shaharga tarqaldik,
ammo talon-taroj yo‘q,
do‘konchilar o‘zlari berishar tekin,
maishat, mayxona, otishma
ko‘nglingga siqqancha lekin!
Ikki kun so‘ngra eshitdikki,
Harakat qo‘shini[1] kelayotir...”
Chuqur so‘lish oldi baqqol Safar,
balki horg‘inlik,
balki bir parcha alam.
Kovladi tirnog‘i ila oltin tishlarining orasini:
“ — Zotan, — dedi, — o‘z-o‘zimcha o‘yladim:
besh vaqt namoz o‘qi,
yeb-ichib podshohni duo qil,
vazifangni ado et.
Istanbul ham,
Bog‘dod ham shu!
Hukumat qayerda?
Askarlik barham topdi.
Yurtimga ketayin endi.”
Asri Yusuf hazillashdi:
“— Shu-da, Harakat qo‘shini deguncha
qaltirar oyoqlaring...”
Baqqol Safar o‘pkalanib javob qaytarmoqchi edi-yu,
Ehson gapga aralashdi shu payt:
“ — Qara, afandi og‘a, yondagi narsaga bir qara...”
Bu eski gazeta edi.
Eski imloda.
Har joy-har joylari yirtilgan.

[1] Turkiyaning Ovrupo qismida yosh turklar tomonidan tashkil qilingan, isyon bostirish uchun Istanbulga kelgan qo‘shin.

“ — Juda eski gazeta, afandi og‘a,
o‘ttiz uch yillik...”
“ — Qani, ber-chi...”
Yuliqib oldi gazetani baqqol Safar.
Bazo‘r o‘zin tutardi Yusuf kulib
yubormaslik uchun.
Baqqol Safar hidlab ko‘rdi gazetni.
Taqdi ko‘zoynagini:
“ — Buni ko‘ryapsanmi, Ehsonbey,
rasmlari ham yo‘q,
boshdan oxirigacha musulmon yozuvi...
Ol,
o‘qi-chi, eshitaylik bir...”
Yumdi ko‘zlarini baqqol,
og‘zi ochiq,
osmonga endi chiqqan yulduzlarday yaltirar
oltin tishlari.
“ — Saboh” gazetning oti, afandi og‘a,
10 rabi-ul oxir, 1327[1]
soni 7038.
Sohibi imtiyozli Mixron.”
Asri Yusuq so‘radi:
“ — Iye, sohibi armani ekanmi?”
“ — Arman-marmanni, qo‘y,
o‘qi, Ehsonbey...”
“ — O‘qiyman, afandi og‘a:
Direktour — Proprietaire
(fransuzchani turkcha qilib o‘qidi).
Ko‘zlarini ochdi baqqol Safar:
“ — Bu ne degani, Ehsonbey?”
“ — Bu fransuzcha, afandi og‘a.”
“ — To‘g‘ri,
oldin Istanbulda, Beyo‘g‘lida
kofir do‘konchilar
lavhalarin farangcha ham yozardilar.

[1] 1909-yilga to‘g‘ri keladi.

biskvitlardan, shakarmalardan, ikralardan,
saryog‘lardan,
bizga xabar berishlaricha, saroyga kirgan askarlar
har tarafda savat-savat mevalar topishipti.”
“ — Hey, onasini...” — deya hayqirdi baqqol Safar
va qah-qah urib kuldi,
oltin tishlari chaqnab ketdi:
“ — 31-martda o‘ralashmay
Harakat qo‘shiniga qo‘shilishimiz kerak edi,
lekin bizning toleyimiz yo‘q!”
Yusuf va Ehson hayron,
kutmagandilar aslo baqqol Safarning
bunday ta’sirlanishini.
“ — O‘qisang-chi, Ehsonbey, nega to‘xtading?”
“ — O‘qiyman, afandi og‘a:
“Abdulhamidning muforakati.”
Ya’ni Adbulhamidning ketishi.
Baqqol Safar tasdiqladi:
“ — Tushunyapsanmi, Yusuf?
Ya’ni uni qanday haydaganlar.”
“ — Salonikiga surgun qilindi,
ammo keyin Saloniki yunonga o‘tgach, qaytib keldi,
Birinchi jahon urushi davri
o‘ldi Istanbulda.
Janozasini ham qoldirdilar,
ko‘rishing kerak edi buni!
Xalq faryod chekdi naqadar,
sen endi buni bas qil, Ehsonbey,
boshqa narsa o‘qi...”
“ — O‘qiyapman.”
“Abdulhamidning boyligi:”
“Abdulhamidning yonida
Sharq Temir yo‘llari obligatsiyalari
700 000 emish,
hozirgi pulga chaqqanda”
bu besh milion 150 ming lira demakdir.

Yusuf kuldi:
“ — Ishlab peshona teri bilan topgan-ku, aniq!”
Baqqol Safar ko‘zoynak ustidan boqdi Yusufga:
“Hozirgilarga o‘xshagan, — dedi, —
bol tutgan barmog‘in yalar, o‘g‘lim.
Biror hodisa yo‘qmi, Ehsonbey, hodisadan o‘qi.”
“ — Bor, ammo gazetasining bu yoni yirtilib ketgan.”
“ — Mayliga, o‘qiyver, Ehsonbey.”
“ — Toshqishloq va atrofidagi yerlar
usmonlining, albanning, yunonning, armanning,
juhudning
bulg‘orning qonlari-la yuvildi,
Vatan sevgisi va hurriyat uchun...”
Hayrat ila so‘radi Asri Yusuf:
“ — Turk yo‘q ekanmi?”
“ — Usmonli, deyapti-ku.”
“ — Ikkisi birmi?”
“ — Bilmadim.”
“ — Xo‘p mayli, o‘qi...”
“ — Tatavladan to‘plarni o‘tkazmoqchi bo‘lgan
askarlarga armani xotinlarning yordam berganini
ko‘rganlar...”
Irg‘itmakchi bo‘ldi gazetni Ehsonbey,
boqqolning jahlini chiqarishdan umidini uzgandi:
“ — O‘qish qiyin,
yirtilib ketgan butkul.”
Bu safar Asri iltimos qildi:
“ — Baribir, o‘qi oxiriga qadar.”
“ — Komil poshoning qochishi”.
“...bozor kuni qochish uchun...
o‘z uyidan Jaddabo‘stonga...
...bir qayiqqa o‘tirib...
hovuchlab jonini...”
Asri Yusuf xotirladi o‘zining qo‘lga tushishin:
“ — Olloh yo‘lini bersin,
tutilmasin ishqilib!”

Davom etdi Ehsonbey:
— "Adana voqeoti"
"...la'nati qo'llar, iflos nushalar...
...oilalik bir armani xotinning xonasiga...
...eri kelib qolar, bu ma'lunlarning uchovini otib o'ldirar.
Shu holdan foydalanib, armani uylariga hujum
...hukumat mushkul ahvolda...
...musulmonlar armanlarga, armanlar musulmonlarga...
...uylarga o't qo'yib...
...shaharni talagan jaholatparastlar...
...Adana ichkari qishloqlariga...
...Tarsus ko'chalari murdaga to'la...
O'qiyveraymi yana?"
" — O'qi."
"— "Parlament Majlisi Oliy Riyosatiga:
...hazrat oliylari...
...hurriyat shahidlari...
...janoza marosimi...
...o'sha haqda amri farmon...
...Mahmud Shavkat posho...
Hurriyat shahidlari qanday ko'milganiga bir qarang:
...eng oldinda guruh suvoriylar...
...keyin polis va munitsipalitet ma'murlari...
...yangi podshoh tomonidan janozada...
avvalo ulamolardan biri tomonidan duo...
...senatorlardan biri, so'ngra deputatlardan...
...va Mahmud Shavkat posho hazratlari...
...boshqa hech kimsa nutq so'zlamas...
...shahidlar ruhiga mavlud...
...yangi podshohning o'g'li
himoyasida..." (otini o'qib bo'lmayapti)
...Doritmusiqiy Usmoniy muassasalari tomonidan...
...shahidlarga yodgorlik o'rnatilajak... iona beruvchilar:

5000-"Saboh" gazeti noshiri Mihron...
20— qalamkash Tavkif...
108— tujjorlardan Xalil...
100— advokatlardan Samuel Anastasiadi...
30.....
20.....
...Ovruponing quvonchlari:
...Lya turki,
(fransuzcha gazeta bo'lsa kerak)
...Ovrupo mamlakatlaridan kelgan telegraflar...
yosh turklar muzaffariatining...
Parij 28:
...Butun gazetalar... Abdulhamidning qulatilishi...
Budapesht 27:
...Matbuot yalpisiga...
Parij birjasi, 28-aprel:
...Birja muomalasi sokindir...
"Duyuni muvahhidayi Usmoniya" qirq santim oshdi...
Sharq Temiryo'llari obligatsiyalari...
G'oyat sokindir London birjasi ham...
...Usmoniy aksiyalari...
...Amsterdam...
Gollandiya qirolichasi bu kecha ko'zi yoriganligi uchun...
Eronda konstitutsiya...
...Hurriyatsevarlar bu kunlarda quvvatlanganligidan...
E'lon:
Uch kun Olamtog'ida sayr.
Toza ob-havosi, go'zalligi ila mashhur...
...O'n besh kishilik orkestr...
...kuniga ikki mahal ovqat tayin...
...jo'nash va qaytish...
...ikki liradir bilet...
...Hukamon Jahon...
...va ta'lim-tarbiya tarixi...
...ushbu asar Ko'zon mutassarifi sobiqiy...
Shoyoni hayrat bir dori...

Tutqaloqqa va yurak o‘ynog‘iga mubtalo bo‘lgan...
Gazetani irg‘itdi Ehson.
Jim qoldilar bir muddat.
Asri Yusufning ko‘zi derazalardan biriga tushdi:
galustuk taqqan, qumrol bir yigit
o‘ziga boqardi.
Negadir birdan kepkasin kiydi yigit,
kulimsiradi.
Asri Yusuf:
“— Uff! —dedi, —
har qalay ancha yo‘lni bosibmiz...”
Oldi kepkasini.
“ — Hey, onasini, xo‘p zamonlar o‘tipti-da, — deya
o‘yladi, —
biroz kech kelibmiz dunyoga, shukur!”
U qimorbozday sevindi:
bir hunar ko‘rsatish mumkin bo‘la turib
ko‘rsatmay qolganiga ham sevinish edi bu!
Cho‘tir Ehsonbey, baqqol Safar ketishdi.
Asri Yusuf gazetani oldi yerdan
tekislab taxladi
va stolga qo‘ymakchi ediki,
stol yuzida birdan
hazrat Alining tuyasi bilan
yuzma-yuz keldi.
Bir bukur tuya edi bu,
ustida bir tobut.
Qo‘li oq arab,
yuzida niqob,
yetaklagan tuyani.
yetaklagan ham,
tobutda yotgan ham —
Hazrat Ali.
Bir yo‘l ol,
bir yo‘l yashil,
tobutga yopilgan shol.

Tobutda boshdan oyoq
tobutdan-da katta
Zulfiqor, og‘zi qiyshiq.
Ko‘kda bir malak,
chapda bir kiyik,
o‘ngda bir arslon,
yig‘laydir Hasan,
yig‘laydir Husan.
Va yupqa bir oyna uzra
ketib borar Hazrat Alining tuyasi,
mitti-mitti oynalarning orasidan.

Bozori chaqqondi bu lavhalarning.
Hatto eng uzoq qishloqlardan ham buyurtmalar kelardi.
Model: eskicha,
birgina farqi:
ko‘kdagi malak.
Uni cho‘tir Ehsonbey bilan Yusuf
arman duo kitobidan ko‘chirib chizgandilar.

Asri Yusuf tashladi gazetni tuyaning ustiga,
yuragi qisilib ketdi daf’atan.
Hozirladi ko‘zgu quymak uchun manqalni.
Shishalar toppa-toza, yalt-yult qiladi.
Maxsus idishlarda dorilar:
nitrat, ammiak, disterlangan suv va hokazo
va Asrining yuragida oshayotgan qisilishi...
Oyna qo‘yishdan voz kechdi,
eshik oldiga chiqdi:
to‘g‘rida dam olardi qadoqchi Shobon ustaning shogirdi,
devorga suyangan holda.
Sahrodagi yolg‘iz qishloq yanglig‘
parishon va kimsasiz.
Ko‘p yaxshi bilardi Asri
bo‘r tuproqqa botgan
bu kabi qishloqlarni.

Bir odam o‘tdi yo‘ldan.
Sigara chekar.
Yana Raif og‘aning sasi:
“ — Inimning xotini haqqorat qildi meni,
Ularning hammasi bir —
polis qo‘mondoni-yu boshqasi.
Inimning xotini haqorat qildi meni,
bir tumor yozdi menga,
men bu holga griftor bo‘ldim,
uyimni, joyimni xotinlar toshbo‘ron qildilar,
devorning tubida pulim bor,
pulni oldim.
Inimning xotini tumor tutar to‘ppa-to‘g‘ri menga —
o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim.
Tekshiruvchiga bordim,
arzimga quloq osmadi.
Boqdimki telba qilurlar oxiri,
xotinimni o‘zim jazoladim, jinoyati uchun.
Qon tutdi meni, qon tutdi meni, qon.
Yer nizosi, amlok nizosi, do‘kon nizosi.
Yer yorildi, mulk yondi, yiqildi do‘kon.
Qiynadilar meni, qiynadilar meni, qiynadilar...”

Eskichi Raif og‘a tindi butunlay,
bilaman,
uxlab qolgan birdan,
shubha tushdi ichimga:
Raif og‘a bu kecha o‘lar, menimcha.
Valining avtomobili o‘tdi yo‘ldan.
Go‘zaldir Valibeyning qizlari:
Bu kecha Xalq Uyida kattasining to‘yi bor...”

Xalil davom etarkan maktubini
Xalq Uyida boshlangandi to‘y,
mudhish bir tush turardi
Valibeyning baxtiyor ota ko‘zlari ortida:

teranda, tubanlikda tanbal, uzun qamishlarni
qimirlatar
qip-qizil baliqlar.
Qizi kuzatilmish yerida xumorlanib
qipyalang‘och yotar
moviy suv yorug‘ligida.
Va hozir shahar orkestri
“zeynbeklar” avjini urarkan,
pokiza bir qirg‘ovulday oralarkan stollarni kelin,
qaynona suzum-suzum,
suzilarkan tillolari va yog‘lari bosib,
va kuyov —
muhandis —
tippa-tik yurarkan kelinning ketida
o‘lchovli odimlari ila bir pargar kabi,
ota —
— Valibey —
xotirlar tushini,
xotirlagisi kelmasa-da xotirlar.
Balki bu mudhish tushga sabab:
besh kun avval tikilayotganida ko‘rib qolganligidir
qizining ipakli, och pushti ich ko‘ylagini...
Vali bey oldi ko‘zlarini qizidan,
bufetga boqdi:
bufetning oldi go‘sht va gazlama
tumonat odam edi,
va u yerda janob Rafiq Basharan
qo‘mondonlik qilardi garsonlarga.
To‘yda eng ko‘p charchagan janob Rafiq Basharan edi,
va eng ko‘p charchaganidan eng ko‘p baxtiyor edi.
Viloyat Idora hay’ati partiyasining a’zosi edi
Rafiq Basharan.

Havo floti, Bolalar Himoyasi, Qizil Yarimoy,
Xalq Uyi, Turk-Temir-sport klubi,
butun rasmiy ballar, uchrashuv marosimlari,
muhim to‘ylar —

bari qisqa yelkasida edi Rafiq Basharanning.
Hanuz uylanishga vaqt topolmagan bo‘lar edi
otasidan qolgan qassob do‘koniga qaramasa pochchasi,
onasi Fatma otinning
    kinnachilikdan topadigan daromadi bo‘lmasa
ochdan o‘lar edi Rafiq Basharan
partiya binosi ila Viloyat idorasining orasida.
Isitmali, sap-sariq peshonasi doimo terli,
ingichka oyoqlarida titroq
va qonsiz lablari bir go‘dak imoni-la kulumsab,
suv kabi xarjlardi o‘zini Rafiq Basharan.
Vali beyning nazdida “gapga tushunmaydigan” bir
odam edi,
Partiya boshlig‘ining nazarida: “Mamad Yuo‘ri”,
adliya vrachining fikricha: dali-devona edi,
holbuki u shunchaki sodiq partiyali edi.

Partiya boshlig‘ining boshi
        ustarada qirilgan,
qoshlari qalin va payvasta,
ko‘zlari katta-katta,
kattakon burnining ostida bodomdek mo‘ylab.
Partiya boshlig‘i
    don-dun savdogari,
kafan oqligi qadar alamli,
yaramas chayqovchi
va chinakam musulmondir — besh vaqt namoz o‘qir.
Partiya boshlig‘i oshiqdir o‘z xotiniga,
hech qarimaydigan ayol,
yangi uzilgan nonday lo‘ppi,
        oq, yumshoq
va laqqabaliqday lazzatlidir eti.
Ba’zan boshliqning muhabbati shunday tovlanarki
yig‘lar ikki ko‘zi — ikki chashma
xonimining tizzalariga yashirinib.
Lekin gul ustiga gul hidlashdan tiya olmasdi o‘zini

faqat yilda bir,
Istanbulga borgani zamon.
Boshliq egildi qulog‘iga shahar raisining:
haybatli burniga hech yarashmas edi
    xatm o‘qiyotgan bolalarning ovozidek
        hanuz yo‘g‘onlashmagan ovozi.

Shahar raisi: bug‘doyrang,
        oq sochli,
            tepakal,
                kalta bo‘yli, zaif.
Shahar raisi qizargan quloqlarida oyna,
        tinglardi boshliqni.
U hammani shunday tinglar,
    sariyog‘dan qilni sug‘urib olganday,
har kimning yomon degani — yomon,
            yaxshi degani — yaxshi.

Shahar raisi — iste’fodagi mingboshi;
Birinchi jahon urushi davri — shu yerlarda shu’ba
okrug raisi edi,
yerli xalqni yaqin yerlarga joylashtirib
        qozondi shaharning xayrixohligini.
Raisning o‘g‘li telba-teskaridir—
shaharning butun qizlariga sovchi qo‘ygan.
Oltin sochlari uzun-uzun,
Moviy ravshan ko‘zlari savollar bilan to‘la.
Hazrati Iso kabi navqiron.
Bultur kasal bo‘lib qoldi rais.
Yondi otash ichida.
Chiqdi ajal teri.
Bir so‘ngak, bir teri — jon hovuchida.
Telba-teskari o‘g‘li bilan onasi
baqirib-chaqirib
        idish-oyoq, gilamlarni
        bo‘lishdilar kasalning boshi ustida.

Sog‘ayib ketdi rais,
O‘g‘lini quvdi uydan,
qamchin bilan savaladi xotinini
va uch kun yonidan yedirdi
yetti fuqaroni.

Shahar raisi go‘yo go‘zal ikki inson yaratganday
hayotining bir tomonidan mag‘rur:
qoshlari qalam,
ko‘zlari shahlo.
biri Munitsipalitet binosi,
biri umumiy xalojoy.
Rais birgina insonga dushman xolos,
u ham bo‘lsa — grajdan sudyasi Rauf bey.
Rauf bey Munitsipalitetning dushmanidir,
endi, bu yerdagina emas
har yerda, har qachon.
Munitsipalitet jazosi ila kelgan
har kimsaki bor
oqlanar.
Umuman Raufbey kam-kam jazo berar,
qonun moddalari-la mudhish bir g‘avg‘odir hayoti.
Advokatlarga jahli chiqar,
o‘zi himoya qilar aybdorlar huquqin.
Har narsadan ustun
shaxsiy e’tiqodi.
Ayni bir dasturxon ustida edilar oilalari ila
ayiq Ibrohim va Rauf bey.
Sariqamish jangi haqida so‘zlar edi yana Ibrohim,
va mudrar edi sudya
oltmish yoshining va yosh xotinining
horg‘inlig‘i-la.
“Moziy” tangosini chalar edi orkestr,
eski bir mahalliy kuyni
Oh, hayot...
Xotiningiz yosh-da, Rauf bey;

Rauf bey, xotiningiz raqsga tushmak istar,
mudramang.
Sariqamishning eng tog‘li qorga yetganda Ayiq Ibrohim,
uyg‘ondi daf’atan sudya,
xotinini raqsga tortdi,
tik turib bosdi bag‘riga,
bosdi bag‘riga tosh bosganday,
va uning tarang, qaynoq ko‘kragi,
va silliq taralgan va qirqilgan siyrak oq sochlari
va akkordeon to‘lqinlariga o‘zini bermasdan,
yarim palaj oyoqlarini zo‘rg‘a-zo‘rg‘a sudrat
mag‘rur,
titrak,
kezindi,
isyon kabi jasur,
adolat kabi hazin edi.
. . . . . .
Turmada ustki qabatda,
Xotini Oyshaga maktub yozyapkan Xalil
Tashladi qalamini.
Xotinidan bugun kelgan maktubni balki beshinchi
marta o‘qir va baxtiyor edi betashvish oqayotgan suv kabi.
Oysha maktubida derdiki:
“Deraza yonida, to‘shakda yotibman,
tizzamda adyol,
bir iliqlik og‘ushidaman.
Qirlar,
ajoyib qirlar
va Chamlijo tepaligi ko‘rinur.
Havo juda osuda.
Dahshatli aks-sado qilar ovozlar.
Bizning bog‘ga tutash yerni haydamakdalar.
Ikki ho‘kiz,
bir kishi oldinda, yetaklab borar,
bir kish orqada omochni boshqarar.
Tuproq qabarmakda.

Hayot to‘la tuproqning ustida inson qo‘li.
Hayratda qolaman:
naqadar muazzam,
naqadar zo‘r ish,
qanday qilib shunchalik oson,
shunchalik bemalol
bajarishar bu ishni.
Tongdan buyon katta bir maydonni tiriltirdilar.
Nima ekisharkin, ko‘ray-chi.
Yozaman senga.
Oqshom cho‘kmakda.
Qarg‘alar maktabdan qaytishyapti,
Bolaligimda shunday deyishardi.
Qizingiz Laylo ham shunday deydi.
Yaxshigina qorong‘ulashdi tevarak-atrof.
Lampani yoqdim.
Boqdim ko‘zguga.
Eri mahkum bo‘lgan xotin hamma vaqt oynaga qaraydi,
qaraganda ham tez-tez qaraydi.
O‘zga xotinlardan ko‘proq tuyar bu ehtiyojni,
qo‘rqar qarib qolishdan.
Sevgan kishisi qaytganda yoqishni istar.
Biroq oradan o‘ttiz yil o‘tsa,
unda nima bo‘ladi?
Ko‘zgudagi ayol hali qarimagan,
sochlari qirmizi
ko‘zlari ba’zan yashil
ba’zan asal rangida”.

Oyshaning maktubini bukladi Xalil,
qo‘yniga soldi
va yarmida to‘xtagan javob xatini boshladi:
“Yagonam,
albatta sochlaringiz qirmizidir,
ko‘zlaringiz ba’zan yashil,
ba’zan asal rangida.

Buni ko‘ra oldingiz demak?
Buni hamma ham ko‘ra olardi.
Faqat ularning bunday ekanini
avvalo men ko‘rdim,
chunki men yozdim eng avval.
Bu dunyoda
mendan avval hech kim so‘zlamagan so‘zim
shundan iboratdir.

Bilursizkim,
berdim umrimni
eng go‘zal,
eng bo‘lajak,
eng amalga oshmog‘i zarur narsa uchun.
Faqat ko‘pdir —
— sanab ado qilolmas qadar —
ayni ishni mendan avval
balki-da menikidan buyuk bir qat’iyat-la
qilganlar.
Albatta sochlaringiz qirmizidir,
ko‘zlaringiz
ba’zan yashil,
ba’zan asal rangida,
va yana bir narsa bordirkim, payqamagansiz balkim,
qo‘llaringiz — bu, mo‘jiza qo‘llaringiz.
Bilursizkim,
insonlar sinf tamg‘alarini
tashirlar kaftlarining ichida,
bu xususdagi haqiqatlar,
masalan, inson qo‘lining
inson taraqqiyotidagi roliga doir,
mendan avval kashf etilgandir.
Faqat qo‘llaringizning go‘zalligini
men ko‘rdim,
chunki men yozdim ilk
albatta sochlaringiz qirmizidir,

ko‘zlaringiz ba’zan yashil,
ba’zan asal rangida.
Va qo‘llaringiz,
bilib qo‘ying shuni —
mo‘jizadirlar.
Yagonam,
biz endi bu 41-yilda
so‘zlamasligimiz kerak edi
ikkimiz to‘g‘rimizda.
Dunyo bor,
vatanimiz bor,
ochlik, o‘lim,
hasrat, umid va zafar
dunyo va yurtimiz bilan barobar
va ularning ichida
shu onda ayrilmog‘imiz,
sevgimiz-la ikkimiz ham bormiz.
Yagonam,
avval saslari keldi aravalarning,
so‘ngra o‘zlari.
Ardarda uch dona edilar.
Biriga uzum ortilgan edi,
Ko‘zdan g‘oyib bo‘ldilar.
Yo‘lda bir muddat saslari qoldi.
Temiryo‘l ishchilari o‘tishar.
Yolg‘iz ulargina shunday baqira-baqira so‘zlashadilar.

Yo‘l oydin.
Radioda bir qo‘shiq:
“Na kelgan bor, na ketgan, kun uzun,
yo‘llar uzoq...”
Nechun?
Holbuki men,
holbuki biz bilurmiz:
xabar har holda
juda tezda kelajak...”

IKKINCHI QISM

I

Turma tabibi lozim ko‘rdi
va Xalil xastaxonaga yotdi ko‘zlarini davolatish uchun.
Davlat xastaxonasining bosh vrachi va jarrohi
Foiq bey edi (bir vaqtlar polisxona doktori),
palatada yana ikki mahkum bor edi
va uch muhofiz jandarma.

Xastaxona shahar tashida, qir o‘rtasida edi.
Atrofda bir qarashda baland o‘simlik yo‘q edi,
faqat bir yovvoyi nok daraxti qaqqayib turardi.
Uzoqda bir tog‘ning,
bir ajib tog‘ning ortida
g‘oyib bo‘lar edi yuksak yashilliklar,
tog‘ga tirmashmasdan
yerda o‘ralashib.
Bir qabatli, beton kubik edi bino.
Tarixda qurilgan barcha beton binolar kabi
yorilgandi devorlar,
sho‘rlashgandi parcha-parcha.
Keng tosh zinalar — eshigining oldida.
Foiqbey Xalilga bunday degandi bu tosh zinalar
haqida:
“ — Yaxshiyamki, bu toshlar shunday keng va qulay.
Xastaxona hukumatning eshigidir
dehqonlarimizning nazdida
va hukumat eshigida devor taglariga o‘tirib oladilar,
bu yerda tosh zinalarga o‘tiradilar hech bo‘lmasa”.
Oqshom.
Tevarak qizargan edi.
Qarshida taqir yerda Dyumelli Mahmad,
og‘zining naq o‘rtasidan boshlab
yarmisi tishsiz,

shilpiq moviy ko‘zlari yoshli,
ichkarida avtoklav shovqini:
Operatsiyaga hozirlashar Dyumellining xotinin.

Suhbatlashurlar doktor va Mahmad.
“ — Ichagi tugilgan,
qornini yoramiz”.
“ — O‘lmasmikin?”
“ — Qornini yormasak o‘lishi aniq.
Qornini yorsak omon qolur ehtimol”.
“ — Ikki go‘dagi bor,
qo‘shniga qo‘yib keldik,
o‘lib qolsa agar...”
“ — Qornini yormasak o‘lishi aniq”
“ — Kecha xirmonda edik,
ustiga yopmoqqa hech vaqomiz yo‘q.
Go‘daklar ham biz bilan.
Xirmon vaqti...
“Voh, onam” deb baqirdi,
qornini changallab
dod soldi to‘lg‘anib.
O‘lib qolsa-ya!
Bir dori yozib bersang...”
“ — Dori kor qilmas.
Qornini yoramiz”.
“ — O‘zing bilasan.
Kechasi xirmonda yalang‘och edik...
Anov sariq doridan ichirsang bo‘lmasmikin?”
“ — Qornini yormakdan o‘zga chora yo‘q”.
“ — Qutularmikan?”
“ — Qornini yormasak o‘lishi aniq”.
“ — Go‘daklarni qo‘shniga qo‘yib keldik.
Xirmon shunday turibdi...”
“ — Tushunsang-chi, axir birodar,
qornida ichagi tugilib qolgan”.
“ — Yechib bo‘lmasmikin?”

“ — O‘zidan o‘zi yechilmas,
qorinni ochaman-da
tugunni yechaman”.
“ — Qo‘ling bilanmi?”
“ — Qo‘lim bilan.
Shovqinni eshityapsanmi?
Qaynamakda asboblar.
Top-toza, yip-yiltiroq”.
“ — Qutularmikin?”
“ — Qornini yormasak o‘lishi aniq”.
“ — Sariq dori bersang-chi?”
“ — Mumkin emas,
agar istasang, kasalni qaytarib olib ket.
Sen rozi bo‘lmasang yormaymiz qornin.
Sen rozi bo‘lsang
olurman pichoq.
Qonunda shunday yozilgan.
Bir qog‘ozga imzo chekasan”.
“ — Qandan qog‘oz?”
“ — Roziman, deya.
Aylan,
o‘ylab ko‘r biroz”.
“ — O‘lmasmikan?”
“ —Qornini ochish kerak.
Lekin mol seniki.
Qonunda shunday yozilgan”.
“ — Qutularmikin?”
“ — Qornini yorsak
ehtimol qutular.
Qornini yormasak o‘lishi aniq.
Mana bu nok ostiga o‘tir,
o‘ylab ko‘r.
Keyin kel, qog‘ozga bos muhringni”.
“ — Muhrim yo‘q”.
“ — Barmoq bosasan”.
Dyumelli uzoqlashdi,

doktor so‘radi Xalildan:
“— Diqqat qildingizmi Dyumellining og‘ziga?
Tipik pioreya.
O‘ngdagi tishlari butun, oq,
chap tarafi butkul to‘kilgan,
go‘yoki og‘zining yarmi yo‘q”.
“ — Moviy ko‘zli...”
“ — Hamda qirmizi soqol.
Qarang, Xalil bey, qarang
qanday o‘tiribdi chordona qurib,
qartaygan parishon bir shoqqol.
Qo‘rqar go‘yo kaftini daraxtga tayamakka.
Naryog‘dan, cho‘ldan kelganiga aminman.
Cho‘l odamga tamg‘asin bosar.
Sira sevmas meni,
menga dushman.
Men bu katta binoda — boshliq,
sariq dori berish o‘rniga
unga yomonlik qilgan inson.
Yer ishlari bo‘yicha kotib va men
ikkimiz har bir.
Barmoq bosadi,
inongani uchun emas,
buyurganim uchun.
Hozir u hech narsani o‘ylamas.,
balki xirmon bundan mustasno.
U qo‘lidan kelganin qildi,
xotini o‘lib qolsa bormi,
men — javobgar.
Men,
men bu katta binoning kattasi.
Meni sevmas.
Menga dushman.
Xotinini ko‘rdingizmi?
Tuproq parchasi kabi,
bir hovuch,

xastalikdan emas,
yillardan.
Buning ustiga, homilador,
ikki go‘dagi ham bor.
Demak, u hali suv isitar,
qo‘yniga kirar hali.
Ko‘rdim
tug‘ilganlik guvohnomasin — 1321.
Bir yoshdami,
ming yoshdami u,
dunyoga kelgandan beri,
yashamagan hech qachon.
Masalan,
kim bilsin
fikr yo‘qdir dengiz haqida.
Masalan, “imom boy bo‘ldi!”[1]ning otini ham
eshitmagan,
o‘zini ham totib ko‘rmagan.
Balki u,
har safar hayrat-la boqar —
agar bor bo‘lsa,
eri buraganda soatin.
Yoki masalan, kun chiqqanda
uxlash mumkinligini
o‘ylamagandir ham.
Menga bunday mehr ila qaramang.
Men turmada yotolmayman!
Ma’lum,
dunyoga bir karra kelar inson.
Va o‘lim
birlashtirmas insonlarni —
ajratar bir-biridan.
Men o‘lgandan keyin ham kimdir yashaydir.
Kimdir o‘lgandan keyin ham

[1] **ovqat nomi** — baqlajon do‘lmasi.

men yashashda davom etarman.
Siz deysizki, go‘zal va rohatdir yashamak?
Ehtimol.
Lekin bugun yashamak —
qimor kabidir,
menga yutuq,
kimgadir hech vaqo.
Na chora?
Ammo men bilurman,
mendan tashqarida,
menga bog‘li bo‘lmagan holda
doim o‘zgarib turar
inson oqimlari ila hayot.
Bilurman.
Hozircha
mamnunman
biletimdan.
Ko‘z o‘ngingizda past ketdim.
Afv etishingiz mumkin emasdir meni,
mening o‘zim ham meni kechirishingizni istamayman.
Siz ham meni sevmaysiz,
nokning ostida cho‘qqaygan ham sevmaydi meni”

Xalil endi javob bermakchi bo‘lib turgan edi,
Bosh hamshira kirdi nozli bir hayajonda.
Bir kelin jig‘asidek boshida tutardi qizil oyli
Durrasi.
“ — Hozirmiz, doktor bey”, — dedi.
Qoldirib ketdilar Xalilni yolg‘iz.
Uzoq cho‘zilmadi yolg‘izlik biroq.
Odamlar bir-bir, ikki-ikki kelishib tosh zinani
to‘ldirishdi.
Sahro rangin qorong‘ulik ichiga cho‘mdi.

Xastaxona kotibi o‘tirgandi
boya doktor o‘tirgan taxtaga.

Kitob va suvratlar havaskori,
qirq yoshlar chamasidagi bir odam.
So‘lda, uzoqdagi tog‘ni ko‘rsatdi Xalilga:
“ — Sahar payti
va oqshom chog‘i
bu vaqtlarda,
shunday lojuvard bo‘lur bu tog‘ning rangi,” — dedi. —
Ajoyib bir tog‘.
Vulqonli.
Ba’zi ma’danlarning ta’siri balki.
Sirli nurlar,
bir narsalar bor,
atrofidagi qishloqlarning
daraxtlari baland,
ho‘kizlari zotdor
va juda ko‘rkam bo‘lar bolalari.
Bolalari keyin aynaydi.
Qani endi iloji bo‘lsa-yu,
o‘zing bilan birga olsang tog‘ni,
yursang shu yorilgan yer
va toshli yurt bo‘ylab.
Yana qasaba yam-yashil.
Bu yer sahroning chegarasidir.
Orqa taraf,
ichkariga kirgan sari
Husaynli, Chuquro‘ran,
Qorabozor o‘rta nohiyasi,
o‘n olti soat yurib bir daraxt ko‘rmaysan,
yop-yorug‘ ichida.
Cho‘lda bo‘lganim bor.
Cho‘l boshqa narsa.
Sizga g‘alati tuyular ammo,
bu bir qorong‘u o‘rmonning yolg‘izligidir.
Jyul Vern romanlarida
Janubiy Amerika o‘rmonlari bor,
yodingizdami?

Qorong‘ulik
asta-sekin,
og‘ir-og‘ir
yuksalar yerdan
ismlari qo‘rqinch daraxtlarning uchlari tomon,
va haftalarcha bu o‘simliklar zulmati ichra yurarlar
jabrlanganlar.
Shunga o‘xshab
sahrodagi daraxtsizlik ham ayni narsa...”
Hamshira Ismat xonim keldi.
U Istanbuldan edi.
Xalil so‘radi Ismat xonimdan:
“ — Boshlandimi operatsiya?”
“ — Boshlandi”.
“ — Ishqilib, osonlikcha hushidan ketdimi?”
“ — Nihoyatda oson”.

Butun bir Oqsaroy vajohati bor edi
Ismat xonimning dumli qora qoshlarida.
Eshikni qoqqanday bir urib qo‘ydi
Ismat xonim Husaynning yelkasiga.
“ — Sen yana chekyapsan-a, jonim”.
Uzoq bir qishloqdan edi Husayn.
Ikki oydan beri yotardi.
Ko‘pdan o‘lishi kerak edi
ilm bo‘yicha
O‘zining tor ko‘kragi va ayyor dehqonlarga
xos o‘jarligi bilan
aldar edi o‘limni.
“ — Bittagina chekdim”, — dedi.
“ — Bunday qilsang yana qon tupurasan, Husayn”.
“ — Hammasi tamakidanmi, Ismat xonim,
Doktor bey ham chekadi-ku axir”.
“ — Sen kasalsan-da, jonim”.
“ — Xo‘p, shuni chekib bo‘lay,
boshqa chekmayman”.

“ — Chekasan...
Toshga o‘tirma, deb aytmadimmi senga?”
“ — Zinada o‘tiribman”.
“ — Zina ham toshdan”.
“ — Mayli, boshqa o‘tirmayman”.
“ — O‘tirasan, baribir”.

Husayn tosh zinada o‘tiraverdi.
Ismat xonim atrofni ko‘rsatdi Xalilga:
“ — Qal’aning ustidagi bulutga qarang, inim, go‘yo
yelkanli qayiq.
Muncha ham sekin-sekin,
tebranib-tebranib kelyapti-ya.
Oh, jonim Istanbul!
Sog‘indingizmi siz ham, Xalilbey?”
“ — Albatta, ora-sira”.

Emin afandi qo‘shildi so‘zga:
“ — Istanbuldan quti keltirgan lo‘li Ismoil
arilar uchun.
Qutimisan, quti,
lekin turmadi, uchib ketdi arilar”.

Kichik ma’mur edi Emin affandi.
Lekin katta,
anglab bo‘lmas kasali bor edi.
Xalildan so‘radi Husayn:
“ — Tayyoralar ko‘kdan odam tashlayotganmish,
shu to‘g‘rimi, bey?”
“ — To‘g‘ri”.
Xo‘rsinib qo‘ydi Ismat xonim.
“ — Ey xudo, qani endi urushga kirmasaydik!”
Husayn so‘zlanar o‘ziga o‘zi:
“ — Aql bovar qilmaydi,
osmondan, demak...”
Emin afandi Husaynning so‘zini kesdi:

“ — Mening arilarim kabi...
Ari bir soatlik yo‘lga ham gul izlab ketaveradi.
Onalari bo‘lak, bolalari bo‘lak.
Yo‘lda yomg‘ir yog‘sa agarda
eman shoxiga yashirinib jon saqlashar”.
Xastaxona kotibi avval qiziqib,
so‘ngra ermak qilib so‘radi:
“ — Agar eman bo‘lmasa-chi, Emin afandi?”

“ — Unda terakni topadi”.
“ — Terak ham topilmasa-chi, Emin afandi?”
“ — Bironta daraxt topadi”.
“ — Daraxt ham bo‘lmasa-chi?”
Emin afandi bolanikiga o‘xshagan yumaloq
ko‘zlari-la boqdi kotibning yuziga:
“ — Shunday bo‘lishi mumkinmi?”
Kotibning yonini oldi Husayn:
“ — Kotib afandi to‘g‘ri aytyapti, nega bo‘lmasin?
Biz tomonlarda daraxt bo‘lmaydi,
yomg‘ir yog‘di deguncha arilar
yashirinib olishar o‘tlarning ichiga”.
Emin afandiga gap otdi Xalil:
“ — Siz hech qasabadan chiqqanmisiz tashqari?”
“ — Chiqqanman.
Bog‘larga qadar borganman.
Bo‘ydoqman.
Onam bultur o‘ldi.
Kezinishar mening o‘rnimga arilarim”.
“ — Askarlikda xizmat qildingizmi?”
“ — Ixrojman. Ozod qilinganman”.
“ — Demak, shunday aylanib yuribsiz,
dunyoni ko‘rish uchun?”
Shop mo‘ylabi ichidan
xuddi tupurmoqchi bo‘lganday
lablarini cho‘chchaytirdi Emin afandi:
“ — Nimasini aylanaman?

Ko‘radigan nimasi bor ekan?
Odam bolasi bir suvga, bir nonga,
bir to‘shakka muhtoj.
Agar arilari bo‘lsa...”

Husayn bo‘g‘iq ovoz bilan kesdi
Emin afandining so‘zini.
Tor uzun ko‘kragi hirqirardi...
“ — Men olam kezmakni istardim,
bey — dedi Xalilga. —

Biz yoqlar taqir toshlik,
na tog‘ bor, na daraxt.
Yigirma xonadon, shundan o‘n sakkizini xonadon
deyishga arzimaydi.
Har bir ishda yo‘l ko‘rsatadigan aqldir.
Qornimdaqlim bo‘lsa,
sakkiz yilki birov bilan sherikchilikka ish qilaman,
bir echki ololmadim.
Qornimda aqlim bo‘lsa...”
“ — Nima qilarding?”
“ — Nima qilardimmi, bey?
Tuproqdan umidimni uzardim-u, shaharlarga ko‘chardim.
Sen yaxshi bilasan:
shunday shaharlar borki,
bir oy kezsang oxiriga yetolmaysan.
Borardim Istanbulga,
dunyoning holi o‘sha yerda ma’lum bo‘lardi.
Turkiyaning eng yaxshi joyi Istanbulmi, bey?
Nasib qilmadi.
Dardim ichimda.
Bu dard meni ado qilar oxiri...”
“ — Kuyinma, yaxshi bo‘lib ketasan”.
“ — Inshoolloh!..”

“ — Men keldim, janoblar!”
Tosh zinada o‘tirganlar boqdi kelganga.

Oldinga, orqaga chayqalardi u.
Soqoli yopgandi yuzini ko‘zlarining tagiga qadar,
faqat iyagida oppoq teri parchasi bor edi.
Jundor qurt kabi edi va sarosimada.
“ — Kech qolding, Vasfi, — dedi Ismat xonim, —
yara bog‘lovchi hamshira operatsiyaga kirib ketdi”.
Emin afandi mag‘rur dedi:
“ — Senga necha marta aytdim,
arilarga o‘xshash kerak odam hayotda!”
Zinaning quyisiga o‘tirdi Vasfi:
“ — Kutaman”, — dedi.
Kerdi qora qoshlarini Ismat xonim.
“ — O‘zing bilasan,
operatsiyadan charchab chiqar hamshira,
bog‘lashga rozi bo‘lmasa agar
men aralashmayman, jonim”.
Emin afandi tasdiqladi:
“ — Ha, bog‘lamaydi,
u ham ma’mur sanaladi,
u ham odam bolasi, axir!”

To‘ng‘illadi Vasfi:
“ — Men-chi?
Men odam yemasmanmi?
Araqxo‘r, qimorboz bo‘lsak...
Issiqqa chidamayapti, qurtlab ketyapti yara...”

Emin afandi birdan
boyvachchalarday beparvo kuldi:
“ — Mening arilarimga sening ham
ishing tushadiganga o‘xshaydi.
Tamakini asalga qorishtirib
yarangga bog‘lab ko‘r...”

Ismat xonim Emin afandini urishib berdi:
“ — Nimalar deyapsan, Emin afandi, jonim?

Hali ham bo‘lsa sen, Vasfi, hamshirani kut.”
“ — Kutaman.
Bir yildirki, chekaman azobini.
Hamma ayb hamshiralarda.
Churra yarasi o‘n kunda tuzalmaydimi?
Meniki tuzalmadi.
Araqxo‘r bo‘ldim, qimorboz bo‘ldim.
Anqarada kesib tashladilar churramni.
Bir hamshira bor edi
qo‘tos kabi
qop-qora.
Doktor unga topshirdi meni operatsiyalardan so‘ng.
Lekin yangi yaraga havaskor ekan u yaramas,
yangi yara joni ekan uning.
Ikki soat o‘tmasdan — bintlarni yechdi.
Qancha qonlar oqdi, birodarlar,
yotgan o‘rnim ko‘lmak qon bo‘ldi.
Tikkan yeri so‘kilib ketdi.
Onasini so‘kaman, baqiraman,
u razil bo‘lsa yalang kular.”
“ — Tong otsin, doktorga aytaman”, — dedim.
“ — Doktorni tushingda ko‘rasan,
Sen endi mening qo‘limdasan”, — dedi u.
“Mana, kasallar, hammasini ko‘rib turibdi”, dedim.
Kasallardan sado chiqmadi.
“Kasallar!” dedim.
Kasallar indamay turishibdi
kasallar uxlab qolishgan edi.
Bino esa shunday kattaki,
bu tomon to‘p otsang
u tomondan eshitilmas.
Qo‘rqdim, birodarlar,
qish chillada ko‘chada qolgan itday qaltiradim.
Yarani bog‘lab chiqib ketib u, razil,
tashqarida yalang kulardi.
Kutib turdim, daf bo‘ldi.

Tong otar-otmas
ko‘ylak-ishtonda qochdim kasalxonadan.
Mening kiyimlarim hamon u yerda.
Karvonsaroyga bordim.
Qishloqqa jo‘natdilar.
Javobgarlikka tortilasan, dedilar,
biroq ketimdan so‘roqlab keluvchi bo‘lmadi,
shunisiga ham shukur.
Lekin yara bitib ketmadi,
qurtlab ketdi yara.
Qishloq joyda bekor yurib bo‘lmas.
Shaharga keldim yana,
bu yara araqxo‘r qildi meni,
qimorboz qildi.
Araqxo‘r bo‘ldik, qimorboz bo‘ldik.”
Bir muddat sukunat.
Xastaxona kotibi so‘radi Xalildan:
“ — Yangi kitob yozyapkan emishsiz?”
“ — Ishlayapman.”
“ — Nomini so‘rasam bo‘lurmi?”
“ — 1908-dan 1939-ga qadar
Onado‘lida tabaqalashma va sinflashma.”
Ismat xonim hayqirib yubordi birdan:
“ — Oy...”
Oyga qarang...
Oy ko‘rdim, Olloh,
Omantu billoh!”
Kotib tegishdi:
“ — Musulmon ekansiz-ku, hamshira xonim.”
“ — Bolaligim yodimga keldi, jonim.
qorong‘u tushmay turib oyni ko‘rish —
yaxshilikka ekan,
necha bor sinadim.
(Xalilga o‘girildi.)
Sevaman oqshom qorong‘uligin
shunday shahardan olis

sahroning o‘rtasida.
Qarang, parvonalarga qarang.
Qaylarga uchadir bunday parpirab?
Nechun jimsiz, Xalil bey?
Xalil uyqudan uyg‘onganday so‘radi;
“ — Nima deyapsiz, tuzalib ketarmikan?”
“ — Kim?”
“ — Operatsiya qilingan ayol.”
“ — Doktorning qo‘li yengil.
Lekin, yo rabbim, dunyo naqadar go‘zal!
Istanbulning qay bir joyiga o‘xshar:
uylar g‘oyib bo‘lar,
chiroqlar yoqilgach.”
Xalilning soqchilaridan
Rafiq o‘nboshi keldi.
Quvonchli bir xabar keltirgan boladay
so‘zladi:
“ — Men ko‘rdim oynavand eshikdan.
Oq choyshab ustiga yotqizibdilar ayolni.
Avval odam qo‘rqib ketar ekan,
keyin qiziqib qolarkan.
(Tutdi Xalilning qo‘lidan)
Kel, xohlasang sen ham qaragin, beyim...”
“ — Xohlamayman, o‘nboshi.”
“ — Ammo-lekin ko‘rsa ko‘rgundek.”
“ — Yarim soat bo‘ldi.”
“ — Undan ko‘proq.”
Saslandi Husayn:
“Qorong‘ulikda kimdir bor,
kim u yerdagi?”
“ — Menman, afandi og‘a.”
Tanidi Ismat xonim. Operatsiyadagi xotinning eri.
“ — Jonim. Nima kerak?”
“ — Hech narsa...”
“ — Bir narsa demoqchimiding?”
Xalil chaqirdi Dyumelli Mahmadni:

“ — Bu yoqqa kel.
Operatsiya hali bitmadi.”
“ — Bitar inoolloh, afandi og‘a.”
Askarlarga ta’lim berayotganday
izohot berdi Rafiq o‘nboshi:
“ — Men ko‘rdim, hamshahar,
inson qo‘li emas,
qushning qanotidir — doktor beyning
qo‘llari,
bir yon uchadi, bir bu yon...
o‘z onasiga ham shuncha xizmat qilmaydi odam!”

Xalil joy ko‘rsatdi Dyumelli Mahmadga:
“ — O‘tirsang-chi.”
“ — Tik turganim ma’qul.
Tez bitarmikin...”
“ — Yana biroz bor.”
“ — Demak hali-veri bitmas ekan-da?”
“ — Bilib bo‘lmaydi,
ammo ko‘pi ketib, ozi qoldi.”
“ — Men shahar borib olma keltiray.”
Yumaloq yelkalarin uchirib kuldi Ismat xonim:
“ — Voy, xudoyim-ey.
Baraka topgur, hozir olmaning kimga keragi bor?”
“ — Bitguncha borib kelaman.
U olmani yaxshi ko‘rardi.”
“ — Yaxshi ko‘rgani bilan hozir yeyolmaydi-da!”
“ — Keyin yer,
tez borib kelaman.
Olma yaxshi narsa.
Chorak soat davom etarmi yana?”
“ — Ehtimol.”
“ — Tez borib kelaman.
U olmani yaxshi ko‘rardi.”
yelkalarini qisib
g‘oyib bo‘ldi qorong‘ulikda Dyumelli Mahmad.

Gapirdi Husayn:
“ — Qorin ochdi.”

Xastaxona kotibi egildi Xalil tomon.
“ — Ochlik, — dedi, —
ochlik, hech narsa yemaslik yemas,”
ichagi tugulgunga qadar
yorma sho‘rva ichmakdir.

O‘ylab ko‘ring:
Qishloqda tizza bo‘yi qor.
Uyga kirdik.
Kimsa yo‘q.
Bostirmaga bordik.
Go‘ng ichiga kirib yotishar.
Tag‘in ham sizning qamoqxonadagilarga maza,
har holda tayin non bilan uyqu.
Xalil o‘yladi:
“Hurriyat tayin non va uyqu bermaydi.”
Ichkaridan baqirdilar:
“ — Ovqatga!”
Emin afandi bilan Husayn shoshib o‘rinlaridan
turdilar.
Hamshiraga kelgan Vasfi
yolvordi Ismat xonimga:
“ — Menga ham issiq bera qol, baraka topgur.”
“ — Noning bormi?”
“ — U ham yo‘q.”
“ — Ko‘raman, agar ortsa...
Bilaman,
yemak uchun ataylab kech kelasan hamshiraga.
Roziman,
tush payti kel,
tushlikdan beraman.”
Vasfi uyalib kuldi:
“ — Tushlikda odam ko‘p,
tashvishingiz ham ko‘p.”

So‘radi Xalildan Ismat xonim:
“ — Ovqatga bormaysizmi, jonim?”
“ — Men so‘ngroq yerman.”
Ismat xonim va kotib ketdi.
Qoldi tosh zinada
Vasfi va Xalil.

Kun botgandan so‘ng
xuddi ochiq dengiz kabi,
katta tog‘lar,
katta o‘rmonlar kabi
sahro tez sarinlashar.
Va bu soatlarda bu yerlarda bekor kishi
ichmagan bo‘lsa,
ayniqsa ziyolilardan bo‘lsa agar,
po‘stli hayvonday o‘z ichida teranlashar.
Bundan boshqacharoq bir narsa keldi Xalilning
xayoliga:
jaketining tugmalarini soldi,
yelkasining orasiga oldi bo‘ynini
va ko‘zoynaklarini qarshidagi shaharning
chiroqlariga qaratgancha qoldi:
“Qamoqxonaga xabar jo‘natish kerak ertaga,
deya o‘yladi,
maktub kelgandir Oyshadan.
Ajabo, qarshidagi chiroq bir yonar,
bir o‘char.
Ne uchun?
Har holda u xonadon bu xonaga
olib o‘tayotgan bo‘lsalar kerak lampani.
Qaydadir o‘qidim,
shundayin ishorat berar bir yerlarga
oq ko‘ylakli, qora sochli bir xotin.
Saqlab qolarmikanlar ayolni?
Rezin qo‘lqop-la bo‘lsa-da,
tirik odamning ichagiga qo‘l urmak...

Ochlik.
Ochlik — hech narsa yemaslik emas...
Qishloqda tizza bo‘yi qor.
Go‘ng ichiga ko‘milib yotarlar
Hindiston,
Kongo,
Xitoy,
mustamlaka yurtlarning yerli kishilari.
Chiroq yana o‘chib,
yondi.
Ne uchun?
Har holda xonadan xonaga...
Har holda xabar yuborish kerak turmaga.
Har holda maktub kelgandir Oyshadan.
Oyshani sevaman o‘lguday.
So‘nggi maktublarida
“shakarim”, deb yozmayapti ortiq,
nechun?
Bo‘yi muncha ham bo‘liq va oppoq.
Qizim o‘xsharmikan onasiga?
Ko‘r bo‘lib qolsam,
qizimning ulg‘ayganini ko‘rmayman,
mening uchun u qornog‘ulikda ulg‘ayar.
Uning qanday o‘zgarayotganini ko‘rolmayman.”

“ — Afandi...”
“ — Menga bir narsa dedingmi, Vasfi?”
“ — So‘ramakchi edim chekishga...”
“ — Tamaki bor...
Qog‘ozing bormi?”
“ — Yo‘q, ammo tamaki bo‘lsa ham beraver.”
Xalil tamaki berdi Vasfiga
va ko‘ngli xira tortib ketdi nechundir:
“Nechun bitib ketmas yarasi, — deb o‘yladi, —
qand kasali bordir ehtimol?
Qanday qilib qirilib ketmas ekanlar?

Naqadar matonatli mening millatim.
Qamoqdagilar eng baquvvatlari.
Yashamak haqqi,
yashamak...”
“ — Yarim soatda olishgan edi mening churramni.
Hali-veri bitmaydimi bu?”
“ — Bitib ketadi.”
“ — Inshoolloh!”

“Qarshida chiroq yana yondi, o‘yladi Xalil,
ertaga turmaga xabar yo‘llash kerak.
Har holda biznikilar Ovrupodagilardan yaxshi, oyda
bir bor bo‘lsa-da turmadan xabar olib turishadi...
Oyshani shunday sog‘indimki.
Ko‘pi ketib, ozi qoldi,
bular farqiga bormas,
baxtiyor bo‘lur beixtiyor...”

Ismat xonim yemak keltirdi Vasfiga:
“ — Operatsiya tugadi, Xalil bey, — dedi, —
ayolni yotqizdik o‘rniga.
Doktor sizni so‘radi, hozir keladi.
Sizni qanday suyar u, jonim.
Hammamiz sizni sevamiz-ku...
Sen esa Vasfi, yemagingni ol-da, nariroqqa borib ye.
Hamshiradan yorug‘lik chiqmaydi bugun...”
Xalil qarshiladi doktorni:
“ — Yaxshi o‘tdimi?”
“ — Bilib bo‘lmaydi hali,
operatsiya benuqson o‘tdi.
Tahlika keyin bo‘lishi mumkin.”
“ — Umidingiz bormi?”
“ — Yuzdan o‘ttiz foiz.
Eri qayerda?”
“ — Shaharga ketdi, olma olmak uchun.”
“ — Shoshilibdi.”

“ — Aytdik, quloq solmadi.
Charchadingizmi?”
“ — Unchalik emas.”
“ — Demak, yuzdan o‘ttiz.”
“ — Shunday.
Hatto undan-da oz.”

Jim qoldilar.
Oy nurida kunduz kabi yorug‘ maydon.
Yiroqda yakkam-dukkam chiroqlari bilan
yaslanib yotgan shahar,
atrofda uchayotgan, sudralayotgan
hasharotning shitir-shitiri,
va “men bundaman, ya’ni yoningizdaman”,
deya shivirlayotgan tuproq.

Sahro hordiq chiqardi.

Doktor otdi sigaretini,
yerda yashna qurtdek yonishda davom etdi cho‘g‘.
Xalil tizga urib to‘kdi huqqasining kulini.
Doktor so‘radi daf’atan:
“ — O‘lim haqida
jiddiyat-la o‘yladingizmi hech,
uzun-uzun,
bir hisob masalasini o‘ylaganday o‘yladingizmi?
Men so‘nggi yillarda juda ko‘p o‘ylayman buni.
Kechasi o‘rnimga kiraman-u
yumaman ko‘zlarimni,
allaqanday ohang uchadi tishlarimning orasidan,
har safar o‘zim xayolimda yaratgan,
men uchun g‘oyat hazin tuyuluvchi bir narsalar
va o‘lishim kerakligini o‘ylayman.
G‘ussali bir yolg‘izlik to‘lar ichimga,
o‘limini o‘ylagan bir insonning yolg‘izligi,
sevgisiz va nafratsiz.

Uzilmoqda insonlar bilan aloqam
o‘lim bilan yuzma-yuz turganimni
sezyapman.
So‘ngra hisoblab ko‘rdim:
hozir qirq sakkiz yoshdaman,
juda borsam yetmish beshga borarman,
yana yigirma yetti yil bor, demak.
O‘lchayman o‘tgan qirq sakkiz-la
qolgan yigirma yettini,”
sharmandalikdan boshqa gap yo‘q.
Ajab dunyo, ne ajab dunyo,
juda borsa yigirma yetti sana
va bor ekan-da, yo‘q ekan
doktor Foiq bey!”
Jim bo‘ldi.
So‘ngra go‘yo madad tilaganday
iltijo-la so‘radi Xalildan:
“ — Necha yoshdasiz?”
“ — O‘ttiz to‘qqiz, shekilli,”
“ — Nima uchun, shekilli, deysiz?”
“ — Metirkaga ko‘ra o‘ttiz to‘qqiz.
Ammo onam seni bir yosh katta qilib
yozdirdik, derdi.”
Negadir keskin bo‘ldi Foiq bey:
“ — Onangizni qo‘ying,
o‘ttiz to‘qqiz, deylik.”
Xalil kuldi:
“ — Qirq deyaverishingiz ham mumkin.”
“ — Yo‘q,
saxiylikning keragi yo‘q.
Bir yil — bir yildir.
Sarhisob qildingizmi, Xalil bey?
“ — Nimani?”
“ — Qancha qolganini.
Hisoblashingiz kerak.
O‘ttiz olti qoldi.

Mendan to‘qqiz sana ko‘p.
Hozir siz sarhisob qiladigan yoshdasiz.
Ko‘pi ketgan qo‘lingizdan.
O‘tgan va qolganni qiyos qila bilursiz.
O‘ttizga qadar yillar va hatto o‘lim ham — bir nazariya.
So‘ngra haqiqatga aylanur.
Muncha tez o‘tdi,
Muncha oz qoldi, deb inson hayron bo‘lar.
Hech his qildingizmi shuni?”
“ — Yo‘q,
sizni tushunib turibman biroq.”
“ — Nimani tushundingiz?”
“ — Bemalol o‘ylashga vaqtingiz va imkoningiz bor.”
“ — Sizda yo‘qmi?”
“ — Mening ham shunday bir
imtiyozim bor, albatta.”
“ — Imtiyoz ne degani?”
“ — Imtiyoz shudirki, Foiq bey,
siz hali operatsiya qilgan ayol,
o‘zingiz aytgandek,
kun chiqqan chog‘da ham uxlash mumkinligini
sira xayoliga keltirmagan,
bu ayol yarim o‘simlik,
yarim hayvon hayotini
yashamakka mahkum,
shu Dyumellining xotini,
va Dyumellining o‘zi,
mamlakatimdagi va yer yuzidagi insonlarning ko‘pi
mahrumdir bemalol fikr yuritish baxtidan.
Vaqtlari va imkonlari yo‘q.
Shu qadar ko‘p ishlaydilarki,
shu qadar horiydilarki,
kechasi, oltmish yoshida ham ko‘rpaga kirgan paytlarida
uyqu qo‘rg‘oshin kabi bosar ularni.”
Jim qoldi.
So‘ngra mamnun kulimsirab ilova qildi Xalil:

“ — Ular o‘ylaganda ham
hayot haqida o‘ylaydilar,
o‘lim haqida emas...”
“ — Xo‘p, agar o‘limini o‘ylashga vaqtlari va imkonlari
bo‘lsa-chi?”
“ —O‘shanda ham sizday o‘ylamaydilar.”
“ — Nechun?”
“ — Shuning uchunki, Foiq bey,
siz hayotda yolg‘iz bo‘lganingiz kabi
o‘limda ham yolg‘izsiz.
Polis mudirligining doktori bo‘lib qolsangiz edi
butun bog‘laringiz bilan,
o‘z sinfingiz bilan orangizdagi
iplarni kesmaganingizda edi,
yoxud bu operatsiyadan so‘ng
qarshi tarafga o‘tib
boshqa bog‘lar, boshqa insonlar bilan bog‘lansaydingiz,
shu paytda bemavrud kelgan bu muzmin xastalik
tasodifiy hol bo‘lardi loaqal...”

Foiq bey qah-qah urib kuldi:
“ — Doktorchasiga gapirdingiz, — dedi, —
biroq qarang-a, tasodifiy bo‘lsa ham yuz berarkan-da.”
“ — Ha, shunday, Foiq bey, ahyon-ahyonda yuz beradi.
Daraxt niholligida bukiladi
va qarorgohni o‘zgartmak
unchalik oson emas,
inson beshikdaligidan boshlab bir narsalar tashir
ichida.
Bundan tashqari...”

Dyumelli Mahmad chiqib keldi nokning ostidan.
Xalil ko‘rdi uni.
Sevinch-la turdi o‘rnidan:
“ — Kelyapti, — dedi, — keldi, ana...”
Dyumellini kutib oldilar.

Eshikdan va derazadan urgan iliq nur ichra
turdilar jimgina
uchta daraxt kabi oyoqda.
Quchog‘ida katta qog‘oz o‘rami Dyumellining.
Uni tushirib yuborishdan qo‘rqayotganga
o‘xshab ko‘rinardi.
Qog‘oz o‘ramiga ko‘nikmagani
ko‘rinib turardi.
“Sendan odamga yaxshilik chiqmaydi,
shundayam gapir”, deganday
boqardi doktorning yuziga.
Yig‘lar edi Dyumelli.

“ — Tabriklayman, birodar, ishqilib,
ko‘rgan-kechirganing shu bo‘lsin”, — dedi Xalil.
Tushirib yubordi Dyumelli qo‘lidagi qog‘oz o‘ramin.
yerlarga sochildi bola sevinchlari kabi olmalar.
Olmalarni terdi Xalilning yordamida,
qog‘oz o‘ramiga joyladi takror,
tosh zinaga suyab qo‘ydi.
So‘ngra ikki olma oldi ichidan,
ko‘ylagining yengiga artdi
va uzatdi Xalilga va doktorga.
Tishsiz og‘zi kulguga to‘ldi,
shilpiq, moviy ko‘zlar yig‘lardi hamon.
Tabiiyki, hovliqib doktorning qo‘lini o‘pdi.
Xalilning qo‘llariga yopishdi,
Xalil qo‘lini tortdi,
Quchoqlashdilar
va Xalilning bag‘rida ekan
Dyumelli yangi bir sevinch-la seskanib
qulog‘ini ding qildi.

Allaqanday ovozlar eshitilardi,
shahar janubidan yo‘lga chiqqan arava ovozlari .

Bir tosh boltaday ishlayotgan,
oy nuridan noxush yaltiragan,
keng o‘zlashtirilmagan bo‘z dalaning
vahimali navosi edi bu.
Xalil ham his qildi.
Va uning vujudidan
yerdan yengillashning alami
va sevimli Vatan g‘ussasi
achchiq titroq bo‘lib o‘tdi.
“ — Biznikilar, — dedi, — Dyumelli Mahmad, —
borib to‘xtatay,
boya men kelayotganimda yo‘lga chiqishgandi.
Aravaga yotqizamiz, charchamaydi.
(Doktorga qaradi)
Afandi og‘a, sen aytgin unga,
hozirlansin.

Va otilmakchi bo‘ldi ko‘chaga arava tomon,
doktor tutib qoldi qo‘lidan.
“ — To‘xta, — dedi, — hali hushiga kelgani yo‘q”.
“ — Men borib kelgunimcha hushiga keladi”.
“ — Balki hushiga kelar, lekin yo‘lga chiqolmaydi”.
“ — Aravaga mindi,
besh qadam-ku, axir, orasi...”
“ — Bo‘lmaydi”.
“ — Axir, afandi og‘a!”
Ikki go‘dagi bor.
Qo‘shnimizga berib kelganmiz.
Shundayicha turibdi xirmon”.
“ — Bo‘lmaydi, ota”.
“ — Xo‘p, mayli, yurmasa,
aravani keltiraymi manavi yerga”.
“ — Chiqolmaydi yotoqdan.
Kamida o‘n besh kun osmonga qarab yotishi kerak”.
“ — Uyda yotar”.
“ — Bo‘lmaydi”.

“ — Ikki go‘dagi bor”.
“ — Qiynama odamni, yo‘q,
dedimmi, yo‘q”.

“ — Barmoq bosaman”.
“ — Nima deb?”
“ — Mol seniki demaganmiding?
Molimni butun oldim, deb
barmoq bosaman.”
“ — Bo‘lmaydi”.
“ — Muhr kerakmi?”
“ — Qani, muhr yo‘q-ku senda”.
“ — Quling bo‘layin,
masxara qilma odamni,
ber, bolalarimning onasini,
shunday turibdi xirmon.
(Xalilga yuzlandi Dyumelli)
Afandi, sen ayt unga...”

Xalil ko‘z yoshlarin oqizib yubormaslik uchun
zo‘rg‘a tutib turardi o‘zini:
“ — Ichkari kiraylik, kasalni ko‘r, — dedi —
qimirlashga holi bormi-yo‘qmi, ko‘rarsan”.
Ichki, teri, yuqumli kasalliklar, tug‘uruqxona,
xotinlar, erkaklar, bolalar,
ellik to‘qqiz o‘rinli davlat kasalxonasi,
kasallarning soni esa yetmish ikkita.
yerda yotardi ko‘pchilik
va ba’zi karavotlarda ikkitadan
kasal yotardi
Dyumelli xotinini ko‘rdi.
Behush yotardi hamon.
Sochlari qirib tashlangandi tag-tugi bilan.
Yumaloq-yumaloq, yupqa po‘stli pomidor kabi biroz.
Kasalvon o‘g‘il bolaga o‘xshardi
va tuproqdan turtib chiqib qogan ikki ildizday
oq choyshabning ustida turardi qo‘llari.

Dyumelli olmani tushirib yubordi
xastaning oyog‘iga.
Uzoq-uzoq tikilib qaradi.
Qaradi shilpiq moviy ko‘zlarini qisib.
“ — Umid yo‘q, — dedi, — endi bundan.

Ola ho‘kizim ham shunday bo‘lgandi bultur,
yotdi, yotdi, qaytib turmadi.
Olmalarni bering, yesin.
Sevar edi olmani.
Yaxshi qoling, afandi og‘a”.
Yig‘lay-yig‘lay tashqari chiqdi Dyumelli.
Shu ketgancha uni hech kim ko‘rmadi qaytib.
Uch kun keyin o‘ldi xotini...

II

Erta saharlab,
kasalxona ustiga tong nur sochdi, nur yoyilarkan
doktor Foiq bey uyg‘ondi tuyqusdan
(bo‘ydoqligi uchun shu yerda yotardi).
Xona g‘ira-shira qorong‘i edi.
Pardalari ochiq derazaning keng oynalari ortida
sovuq suvlarga xos bo‘lgan yorug‘lik bor edi,
sadaqa kabi bir yorug‘lik.
“Soat necha bo‘ldi?” — deya o‘yladi Foiq bey.
Ko‘ra olmadi.
Elektrni yoqdi,
xonada — sahar vaqti bekatlarining g‘ussasi,
oqargan chiroqlar,
ayriliq.

Tepaga qarab yalang‘och yotardi Foiq bey.
(Qishin-yozin shunday yotardi.)
Va soatga qayta qarashni unutgan edi.
Shipga tikdi ko‘zlarin,
toqilarni sanadi.

Boqdi qarshi devorga,
u yerda bir qandala
ohakli, muazzam oqlikning o‘rtasida
kichkinagina bo‘lib o‘rmalab borardi,
qutbning chek-chegarasiz qorlarida
g‘oyib bo‘lib borayotgan odam singari,
tubssiz osmonda miltiragan tanho
yulduzday...
“Tubsiz osmonda miltiragan tanho yulduzday...”
deya takrorladi Foiq bey ovoz chiqarib.
Va ko‘ksiga egdi boshini:
ko‘z o‘ngida ro‘y-rost yotardi,
oyoq tirnoqlarining uchiga qadar,
boshsiz qip-yalang‘och tanasi.
Ilk bor ko‘rayotganday
tomosha qildi.
Ilk bor boqar edi unga shundayin
hayrat-la,
maroq-la
va hasrat-la.
Qorni qoracha, ichiga cho‘kkan.
Oyoqlari paysiz, ingichka, uzun,
qarib qolgan teri.
Qornining ustiga qo‘ydi qo‘lini:
liqildoq bir narsaday yoqimsiz edi.
O‘ng oyog‘ini bukdi, chiqdi boldiri.
To‘pig‘ida, oshiq suyagining yaqinida — tirishlar.
Va bu boshsiz qari vujudning yolg‘izligi.
Foiq bey o‘z vujudining qarshisida
o‘yladi uning o‘limini.
Ilk bor aqliga kelgan narsa:
g‘assol qo‘lida emas,
kafanda emas,
o‘likxonada ko‘rganday bo‘ldi uni.
Tosh supaning ustida shunday
qip-yalang‘och uzangan payti,

so‘ngra bir chuqurga sudralayotgan chog‘i,
so‘ngra namxush tuproq isi,
tobutning yog‘ochini o‘ya boshlagan qurtlar
(ularning badanga o‘tishin o‘ylashga
esa majoli yo‘q edi)
va hammasidan battari:
his qilishdan,
ko‘rishdan,
qimirlashdan mahkum bo‘lgan
yolg‘izlik...
Foiq bey qo‘ng‘iroqni bosdi,
bosdi yana,
yana.
So‘ngra o‘zini qo‘lga olib,
o‘rinning ichida yostiq
tomonga surildi,
choyshabni tortdi tizzlariga,
g‘ujanak bo‘lib o‘tirdi,
kuta boshladi.

Eshik ochildi.
Kirdi shoshilib istanbullik hamshira Ismat xonim.
Foiq bey balki uni kutardi,
balki kutmas edi hech kimni,
tutdi juvonning bilaklaridan:
“ — Qo‘rqma, baqirma, jim bo‘l,
xudo haqqi, meni qutqargin”, — dedi.
Ismat xonim avval qo‘rqdi, tisarildi,
biroq ko‘p o‘tmay:
“ — Voy, doktor bey, bilib qolishadi...
ko‘rib qolishadi...
eshik ochiq,
falon-piston”, — der ekan,
o‘chirdi chiroqni
va ovoz chiqarmadi ortiq.

Tashqarida, derazaning keng oynalari ortida
sovuq suvlarga xos bir yorug‘lik bor edi,
sadaqa kabi yorug‘lik...

erta saharlab
kasalxona ustiga tong nur sochdi, nur yoyilarkan
Xalil uyg‘ondi tuyqusdan,
turdi o‘rnidan.
Mudrayotgan navbatchi jandarmaga baqirdi:
“ — Men eshikning yonidaman,
tosh zinalarning oldida”.
Chiqdi yo‘lakka.
Uyqu va dorilar isi,
g‘ayritabiiy ingroqlar,
yiroq-yiroqlarda temir-tersaklarning taqirlashi,
oqargan chiroqlar,
sahar vaqti bekatlarning g‘ussasi,
ayriliq...
Ayollar palatasin eshigi ochiq:
kasal bir ayol o‘tiribdi o‘rnida,
sochlarini taraydi.
Yuzi sap-sariq,
sochlari qop-qora.

Xalil tosh zinalardan pastga tushdi,
tuproqqa tushgach to‘xtadi,
qo‘llarini yozib nafas oldi.

Havo nam.
Quyosh chiqmakda.
Osmon nam latta bilan g‘ijirlatib
artilganday top-toza.
Chapdagi tog‘ etagida zaif bir tuman,
go‘yo osilib turgan to‘r parda.
Oldinda daraxtlar yorishdi:
chap tomoniga nur tushib borar.

Va uzoqda shahar:
go‘yo bir uzun safardan limanga qaytganday turardi.
Manzarada ajib oydinlik,
ochiq ranginlik,
va bu soatda
tabiat sog‘lom, yosh
va bardam.

“ — Doktor uyg‘onganmikin, afandi og‘a?”
Xalil o‘girilib qaradi bolaga.
Jonim jigarim
O‘n uch yoshli ishchi Karim,
ust-boshi ko‘mir
yerdan chiqqan jin kabi
qarshisida turardi.
Kutmaganda eng yaqin do‘sti-la
Ro‘baru kelgandek sevindi Xalil.
“ — Iye, iye, xush kelibsan, yigitcha”, — dedi.
Kulimsadi Karim:
“ — Salom, amaki”.
“ — Valaykum, oting nima sening?”
“ — Karim”.
“ — Nima qilasan doktorni, Karim usta?”
Karimning mitti qip-qizil burunli yuzi osildi:
“Usta bo‘lish yo‘l bo‘lsin bizga”, — dedi.
“ — Nega endi?”
Karim o‘ng qo‘lini chiqardi cho‘ntagidan.
Qavat-qavat bintlar bilan bog‘langan edi bosh barmog‘i.
Esankiradi Xalil:
“ — Nima bo‘ldi?”
“ — Kecha kechasi press ezdi”.
Va daf’atan takror tuygandek ezilish
paytining achchig‘ini,
ingradi, ko‘zlari yoshga to‘lib:
“ — Oyi, oyijon, sirqirayapti!”
“ — Xo‘sh, kechadan beri nima qilding?”

“ — Hech narsa.
Ahmad usta latta bilan bog‘lab qo‘ydi,
Uyda yangidan bog‘ladik.
Onam kasalxonaga chop, doktorga ko‘rsat, dedi.
Bugun ishdan kech qolmay, deya saharlab keldim”.

Xalil va Karim ichkari kirdilar.
Topdilar bosh hamshirani.
Dori qo‘yib bog‘lashdi.
Xalil choy bilan mehmon qildi Karimni,
yanada yaqinroq tanishdilar.
O‘rtoqlashishga qaror qildilar,
Karim ketdi.

Vaqt bo‘lganiga qaramasdan
doktorning ertalabki ko‘rigi boshlanmagandi hali.
Xalil yo‘lakda uchrashdi Ismat xonim-la.
To‘zg‘igandi juvonning qumrol sochlari
(Holbuki, doimo tarangan bo‘lardi avval),
qo‘lida bo‘sh taqsimchali patnisi bor edi.
Xalil so‘radi:
“ — Doktorni ko‘rdingizmi?”
Qotib qoldi Ismat xonim.
Yuzi lavlagiday qizardi:
“ — Bosh hakim Foiq beynimi?
Yo‘q, ko‘rmadim.
Faqat, haligi...
Tongga yaqin
Qo‘ng‘iroq qilgan edi.
Navbatchi edim.
Suv so‘radi.
Keltirib berdim.

Shundan keyin ko‘rmadim...
Nega so‘rayapsiz?
Palatalardan biridadir, balki.

Ammo bosh hamshira ham
"kech qoldik", deyapgandi boya.
Necha bo'ldi soat?"

Ismat xonim bo'sh taqsimchalar ustidan
ortiqcha qo'rquv ila boqar edi Xalilga.
Yolg'on so'zlovchilar kabi
goh tog'dan, goh bog'dan kelib
shoshqin-shoshqin
va ko'p so'zlardi.
Xalil payqamadi uning sirini.
" — Salomat bo'ling", — dedi
va kirdi o'z palatasiga,
o'tirdi o'rniga.
To'g'ri oldinga qarab egildi.
Horg'in yuzida so'rrayib qolgandi burni.
Ko'zoynagi yarqirar edi;
chorasiz ikki shisha parchasi.
Osilgandi qo'llari,
kaftlari tizzasida,
yuqori o'girilgan edi.
Xalil endilikda bilardi kasalning otini:
ko'z tomirlarining buzilishi.
Yillar o'tar og'ir-og'ir, ketma-ket
va bir kuni, bir onda, bir sakrash ila:
ko'rlik.
Bunda ham dialektika.
Xalil!
Har yerda dialektika!
Lekin, ehtimol,
davolash borasida yangi kashfiyot bo'lib qolar?
Shifo tomonga bo'lar — sakrash?
Ajaldan burun
yorug'ikdan mahrum bo'lmasaydi...
Xalil o'qtin-o'qtin unutar
edi ko'zlarining xastaligini,

o'qtin-o'qtin xotirlar edi:
terisining ichida, bir joyda, ingichka qil tomiri
yorilganday bo'lar,
yuragi hapriqar edi,
va o'zini zo'rg'a tutardi chuqur-chuqur nafas olmaslik
uchun.

So'ngra sukut.
So'ngra horg'inlik.
Eshikdan kirganday kirardi
horg'inlikning ichiga Xalil,
eski Istanbul uylarining toshloqlariga o'xshardi
bu horg'inlik:
oppoq to'rdan edi, qudug'i, qalay krujkasi bilan,
yumshoq,
salqin
va g'ira-shira yorug'ligida alamli
ertaklardan nimalardir bor...

Palatada ikki karavot atrofida to'plangandi xastalar.
Birinchisida arabqirlik Ali,
namoz o'qiyotganday
o'rnida o'tirardi tiz cho'kib.
Chap tiziga yoyilgan turujiy yozma belbog'i,
ko'zlari, mo'ylablari yilt-yilt qiladi,
qop-qora

va yonog'ida burushiq chandiq yeri —
Antep yarasi,
Ali tushini so'zlar,
u yerdagilar tinglashardi ehtirom-la.
Ehtiromlari tush ko'rganga emas,
Tushning o'ziga.

" — Yaxshilikka, inshoolloh!"
" — Yaxshilikka yo'ysang, yaxshi bo'ladi..."
" — Keng bir dalani ko'rdim,
suv taralgan.
Men ol ayg'irlar bilan qo'sh hayydayapman.

Ho‘kiz bilan qo‘sh haydash qolib ketgan
emish qishloqda.
Bir miltiq otildi orqadan”.
Alining so‘zini bo‘lib so‘radi biri:
“ — Eshitdingmi ovozini?”
“ — Eshitmadim”.
“ — Yaxshi, eshitmaganing juda yaxshi bo‘libdi”.
“ — To‘xta-to‘xta, eshitganga o‘xshayman-u”.
“ — Zarari yo‘q,
eshitsang ham bo‘ladi,
dalaga suv taralgan edi-ku baribir ham
hamda keng edi...”
Rasmli bir jurnalning atrofida edi ikkinchi karavot,
kuni kecha Xalildan olgandilar.
Odamlari,
qurollari
va yong‘inlari-la urush tasviri.

“ — Mamadchalarga qara, hey, mamadchalarga”.
“ — Mamadcha emas bular, ingliz askari”.
“ — Baribir, bari mamadcha-da”.
“ — Mana bular italyanmi?”
“ — Shapkalaridan bilinib turibdi, italyan!”
“ — Italyonlar,
urishqoq millat emas, jonim,
kibor insonlar”.

Tomdan tarasha tushganday,
aralashdi gapga Rajab:

“ — Jangga kirishing bilan bir kofirni o‘ldirib
bir qultum qonini ichsang agar
qo‘rquvingdan asar ham qolmas emish”.

Hamma Rajabga boqdi.
Rajab — o‘n besh, o‘n olti yoshda.

Yuzi yum-yumaloq.
Har kas-la hazillashar,
uyalganda bo‘ynini egib,
qizlarday jilmayardi.
Yaxshi ko‘rardi o‘qishni.
Butun viloyatlarning qasaba va
nohiyalarini yoddan bilardi.
“ — Bu gapni qayerdan olding, shumtaka?”
“ — Eshitganman marhum otamdan,
men olti oylik chaqaloqligimda
otam shahid ketgan ekanlar”.

Oydinlik Tolib chovush
turtdi jurnal bilan
Rajabning boshiga:
“ — Joning chiqsin Rajab...”
Tolib chovush — siyrak sariq soch,
ko‘zlari yashil edi.
Yuzi asal mumidan ishlanganga o‘xshardi bamisoli.

Yumshoq so‘zlar,
xafa bo‘lar daf’atan,
necha kunlab arazlab yurardi odamdan:
Rajab bilan og‘ayni edilar.
“Ona”, deb atardi Tolib chovushni Rajab.
Cherkeshlik tunukachi Muslim javob berdi
(yuzi bolta bilan yo‘nilganday bir odam):
“ — Oson emas o‘risni yengish...”
“ — Ichi chirigan emish-ku!”
“ — Quloq berma har xil loflarga,
Qaysarida bo‘lganmisan hech?
Biz uchun shunday bir
bo‘z fabrikasi qurishganki ular,
bunaqa yetti iqlimda yo‘q”.
Suqildi suhbatga jandarma Rafiq:
“ — Olti haftada masalang hal bo‘ladi,

debdi olmon ruslarga.
Qo‘ro‘g‘lida o‘qidilar”.
Yumshoqqina gapirdi Tolib chovush:
“ — Endi ingliz ham rus bilan birga”.
Jandarma Rafiq e’tiroz qildi:
“ — Ingliz nayrang qilib urushar,
deydilar”.
Rajabning qo‘liga o‘tgandi jurnal.
So‘nggi sahifada
Yerto‘lada ingliz askarlarini
ovuntirayotgan qizlarning
yalang‘och, oq sochlariga boqardi,
Va yumaloq yuzidagi qisilgan ko‘zlari
sira ham hazillashmayotgan edilar.

G‘ala-g‘ovur eshitildi yo‘lakdan.
Kasal ko‘rish boshlandi, deya
o‘rinlariga ketdi xastalar...
Xalil hushiga keldi.
Eshik ochildi birdan.
Ostonada istanbullik Ismat xonim:
“ — Xalil bey, — dedi, —
doktor o‘ldi”.
Na yuzida o‘zgarish bor Ismat xonimning,
na ovozida.
Hatto qumrol sochlari
haligidek to‘zg‘igan emas,
yana taralgan suvsarday edi.
“ — Doktor Foiq bey o‘ldi”, —
takrorladi u.
Va eshikni tez yopib chiqib ketdi.
Kasallar hayratdan qotib qoldilar.
Bir doktorning,
ayniqsa bosh hakimning o‘limi
aql bovar qilmaydigan bir narsa edi
sho‘rliklar uchun.

Bir zarb ila uzildi
shifo topmakdan umidlari.
Arabqirlik Ali ming‘irladi:
“ — Xudo rahmat qilsin,
bola-baqrasiga sabr ato qilsin”.
Tolib chovush so‘zladi sekin:
“ — Aytishlaricha, hech kimi yo‘qmish,
bu yorug‘ dunyoda yop-yolg‘iz ekan...”
Va qanchalik daf’atan esankirab ruhsizlangan
bo‘lsa palata,
yana shunday daf’atan harakatga keldi,
kasallar otildilar yo‘lakka.

Kasalxona kotibi ila to‘qnashdi Xalil.
Xalilning qo‘llariga osildi kotib:
“ — Intihor, — dedi, — intihor,
zaharlabdi o‘zini.
O‘rnida qip-yalang‘och yotibdi.
U ancha kech qolgach, xavotirlandik.
Eshigi — qulf edi.
Menda bor edi ikkinchi kalit.
Muovin bilan birgalikda ochdik.
Asti so‘ramang...”

Xalil kotibdan qo‘llarini tortdi
va darz ketgan ovoz ila
va o‘zi ham sababini bilmagan holda so‘radi:
“ — Qirq sakkizda edi, shundaymi?”
va ko‘zoynak shishalarin artmakchi bo‘lganday,
ko‘zlarini to‘sib
tosh zinaning ustiga, oftobga chiqdi.
Sahro yorug‘ va iliq edi...
Birdan Xalilga yolg‘on tuyuldi
Foiq beyning o‘limi,
intihori xususan,
o‘z-o‘zini zaharlagani.

(Holbuki, bir muddat avval,
Xalil buning izohini qilgandi miyasida.)
Ortga qaytdi.
Harakatlarining mantiqini o‘zi ham anglamasdan
tashvishlanib o‘tdi yo‘lakdan to‘g‘ri
Foiq beyning xonasi tomon.
Eshik ochildi.
O‘likni zambilga solib chiqardilar tashqari.
Oq bir choyshab bilan o‘ralgan edi.
Xalil devorga tayadi yelkasini, yo‘l berdi.
O‘tdilar,
doktor Foiq beyning jasadi oldda,
orqada kotib
va qo‘llari cho‘ntakda — prokuror.
Kasallar palata ostonalariga tarqalishgandi
boshqa zambillarga qaraganlariday
qo‘rquv-la emas,
qayg‘u-la emas,
qiziqish-la qaradilar dokorning zambiliga.
Foiq beyni morgga tushirdilar.
Palatalarning eshiklari yopildi
va Xalilning qarshisidagi yo‘lak
bo‘m-bo‘sh,
jimjit,
up-uzun qoldi bir muddat.

Qulog‘i ostida bir ayolning chinqirig‘ini
eshitdi Xalil,
sakrab turib tevarakka quloq soldi.
Chapda, operatsiya zalining eshigi qiya ochiq edi
va yaxlagan oynalari yorishib ko‘rinardi ichkaridan,
ko‘r, qorachiqsiz, oq tushgan bir ko‘zday
yorug‘lik,
mavhum, sof aql yanglig‘ bir narsa.
Eshikka tiqildi Xalil
va nojo‘ya ish qilganini fahmlab,

boqmasligi kerak bo‘lgan joyga boqqanidan uyalib,
ichkariga qaradi.
Hali yaxlagan oynalarda ko‘rgani
o‘sha ehtirossiz,
o‘sha qonsiz
va dardsiz yorug‘lik qo‘ynida,
yaltillagan asboblar orasida
va tug‘uruq stolining ustida
bo‘y baravar chalqancha ag‘anab yotardi bir ayol.
Ikki yoqqa yirilgandi oyoqlari
va qornining tagigacha surilgan oq surp,
kattakon, yalang‘och mudhish bir gulga o‘xshardi
juftlashuv yeri.
Jon achchig‘ida to‘lg‘anardi ayol,
bilaklaridan ushlab turardi Ismat xonim,
bosh hamshira yonidaydi vrach-terapevt:
“Foiq beyning o‘rniga kelgan, deya o‘yladi Xalil,
terapevt ne anglar bu ishda,
bir balo qilib qo‘ymasin-da, ishqilib...”
Yangi to‘lg‘oq ichida tipirchiladi xotin.
Boshi chap tomonga shilq etib tushdi.
Xalil tanidi:
boya ertalab o‘rnida
qop-qora sochlarini
tarayotgan edi u.
Shishib borar edi qorni tobora,
uyat joyi bo‘rtib chiqqandi,
yarmi qon bir modda sizib oqardi undan:
“Barcha sut emizuvchi hayvonlarga o‘xshab... —
deya o‘ylardi Xalil, —
sigirlar, mushuklar va itlar kabi”.
“Koinot kabi, — deya o‘yladi Xalil,-
tug‘adigan daraxtlar,
yulduzlar,
jamiyatlar kabi”.
Tuxum bichimida ochilib kattalashdi

yalang‘och va mudhish gulning o‘rtasi.
Va bir qora narsa ko‘rindi chuqurcha ichida:
bu — yumshoq va nam sochlari edi
kelayotgan bolaning.
To‘lg‘oq sari kengroq ochilardi yo‘lning og‘zi.
Va nihoyat bolaning boshi ko‘rindi qorong‘ilikda,
spirtli tampon bilan tozaladi doktorning rezinka
qo‘lqopli
qo‘llari
ayolning uyat joyini.
Va shu payt
so‘ngsiz uyat hissi o‘rtab yubordi Xalilni:
“Oysha ham, demak, Xosakida xuddi shunday tuqqan
ekan-da”, — deb o‘yladi.
Bir qichqiriq eshitdi birdan.
Dunyoda eng go‘zal, eng umidli qo‘shiq.
Bolaning kallasi chiqdi tashqariga.
Doktor buradi bolaning yuzini
onasining o‘ng oyog‘ining pastiga qarata,
so‘ngra o‘ng yelkasini, so‘ngra chap yelkasini
tortib chiqardi,
so‘ngra qo‘llar, gavda va oyoqlar.
Bola — doktorning qo‘llarida
va badani bilan bog‘langandir onasining qorniga,
doktor ikki pinset bilan siqib olib kindigini
kesdi qaychi bilan.
Va Xalil eshitdi shu payt —
dunyodagi eng yoqimli ovozni,
yangi tug‘ilgan go‘dakning ilk zafar
qo‘shig‘ini
va yuragi sevinchga to‘ldi,
yopib qo‘yishdi eshikni ohista.

Uchinchi kitobning oxiri

Turkchadan Rauf Parfi tarjimasi

MUNDARIJA

NOMIQ KAMOL

Nomiq Kamolning hayoti va ijodi *(Tohir Qahhor)* 4

She’rlar

(turkchadan Karim Bahriyev tarjimalari)

Vatan qo‘shig‘i 8
Baytlar 8
Hurriyat qasidasidan 11
Qit’alar 12
Yo‘qdur 13
Vatan marsiyasi 13
G‘azal 18
Jaloliddin Xorazmshoh
(drama, Xurshid Davron va Nafisa Rahmonova tarjimasi) 19
Birinchi parda 20
Birinchi majlis 24
Ikkinchi majlis 25
Uchinchi majlis 29
To‘rtinchi majlis 29
Beshinchi majlis 31
Oltinchi majlis 36
Yettinchi majlis 36
Sakkizinchi majlis 44
To‘qqizinchi majlis 45
O‘ninchi majlis 45

TAVFIQ FIKRAT

Tarjimondan 48
She’rlar (turkchadan Karim Bahriyev tarjimalari) 50
Xoliqning inonchi 50

Baliqchilar....51
Mendan kimsan deya so‘rma, malagim....53
Birlikda....53
Xoliqning bayrami....54
Shohona qaroqchilik....54
Qushlarga....56
Oddiy askar....56
Prometey....57
Tong otsa....58
Sen bo‘lmasang....59
Yangidan uylanmoq....60
Ko‘hna tarix....61

NOZIM HIKMAT

“Nozim Hikmat” *(Naim Karimov)*....70

She’rlar

Quyosh ichganlar qo‘shig‘i *(Hamid Olimjon tarjimasi)*....72
Karam kabi *(G‘afur G‘ulom tarjimasi)*....75
Tun she’rlari *(Maqsud Shayxzoda tarjimasi)*....77
Yashamoqqa doir *(Maqsud Shayxzoda tarjimasi)*....80
Ovozimiz *(Maqsud Shayxzoda tarjimasi)*....81
Hasrat *(Maqsud Shayxzoda tarjimasi)*....81
“Gulim, ikki ko‘zim qorasi” *(Maqsud Shayxzoda tarjimasi)*....82
Ochlik armiyasi kelayotir *(Rauf Parfi tarjimasi)*....82
Buyuk insonlik *(Rauf Parfi tarjimasi)*....83
“Yoshim oltmish” *(Rauf Parfi tarjimasi)*....84
“Dengizning ustida” *(Rauf Parfi tarjimasi)*....84
Nekbin odam *(Rauf Parfi tarjimasi)*....85
Ketishdan avval *(Rauf Parfi tarjimasi)*....85
Janoza marosimi *(Rauf Parfi tarjimasi)*....86
“Insonlarning qo‘shiqlari” *(Rauf Parfi tarjimasi)*....86
“Yetmakda navbatim” *(Rauf Parfi tarjimasi)*....87
“Chinor bo‘lsam” *(Rauf Parfi tarjimasi)*....87
Nekbinlik *(Miraziz A’zam tarjimasi)*....88
Ertaklarning ertagi *(Miraziz A’zam tarjimasi)*....88
“Dunyoni beraylik bolalarga” *(Miraziz A’zam tarjimasi)*....89

INSON MANZARALARI

(epopeya, turkchadan Rauf Parfi tarjimasi)....91
Muallifdan....94
Birinchi kitob....195
Ikkinchi kitob....353
Uchinchi kitob....

K 20 Nomiq Kamol, Tavfiq Fikrat, Nozim Hikmat [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Tohir Qahhor. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 456 b.
ISBN 978-9943-8570-7-0

UO‘K 821.512.161-3
KBK 84(5Turk)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

NOMIQ KAMOL
TAVFIQ FIKRAT
NOZIM HIKMAT

40-jild


Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Malohat Ibragimova*
Sahifalovchilar: *Gulshan Saidova, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 28,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 21,01.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 107-1/22 Buyurtma raqami № 22-323

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.


1



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

NOMIQ KAMOL
TAVFIQ FIKRAT
NOZIM HIKMAT